Jinoyatchilikning ijtimoiyligini uning kelib chiqishi va mazmunida yaqqol ko'rish mumkin. Birinchidan, u jamiyat ijtimoiy hayotining mahsuli, ikkinchidan, uning jamiyatda bo'lishini taqozo qiladigan sabab va sharoitlar, ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalaridagi hodisa va jarayonlar ham ijtimoiy, uchinchi, u o'z ichiga olgan jinoyatlarni sodir qilgan shaxslar ham bir tomondan jamiyat ijtimoiy munosabatlarining mahsuli sifatida ijtimoiydir. Shuning uchun ham kriminologiya jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganadi.

Barcha ijtimoiy hodisalar kabi jinoyatchilik ham tarixiy o'zgaruvchandir. Uning tarixiy o'zgaruvchanligi bevosita jamiyat rivojlanish davri, uning turli sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlar, shuningdek unga qarshi kurash siyosati va uni amalga oshirish amaliyoti mazmun-mohiyati bilan belgilanadi. Jamiyat rivojlanishining har bir tarixiy bosqichiga xos bo'lgan jinoyatchiligi ham obyektiv mavjud. Agar O'zbekistondagi jinoyatchilikni o'rganadigan bo'lsak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, mustaqillikning ilk davridagi jinoyatchilik bilan, undan oldingi va hozirgi davrdagi jinoyatchiliklar bir-biridan tubdan farq qiladi. Har qaysi davr jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ko'ramiz [10, 12].

Jinoyatchilikning nisbatan ommaviyligi shundaki, u o'z ichiga olgan ma'lum bir davrda ma'lum bir mintaqada sodir qilingan jinoyatlar nisbatan ommaviy ravishda sodir qilinadi. Demak, bir vaqtning

o'zida nisbatan ommaviy sodir qilingan jinoyatlarni o'z ichiga olgan hodisa ham nisbatan ommaviylik belgisiga ega bo'ladi.

Jinoyatchilikning asosiy belgilaridan biri uning ijtimoiy xavfliligi hisoblanadi. Jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalaridagi hodisa va jarayonlar bir tomondan jinoyatchilikning obyektiv ijtimoiy hodisa sifatida mavjud bo'lishini taqozo qilsa va unga doimo ta'sir qilib tursa, ikkinchi tomondan jinoyatchilikning o'zi "bumerang" singari jamiyatga aks ta'sir ko'rsatadi. Jinoyatchilikning ijtimoiy xavfliligi uning jamiyat rivojlanishiga va barqarorligiga to'sqinlik qilishida, aholi tinch va osoyishta hayotini buzishida, fuqarolarga keltirayotgan jismoniy, moddiy, ma'naviy, ruhiy zarar bilan insonlarda ishonchsizlik, g'ulg'ula uyg'otishida, mustahkam fikrga ega bo'lmagan shaxslarni jinoiy xatti-harakatga undashida, unga qarshi kurash uchun katta xarajatlar sarf qilinishida ko'rinadi.

Jinoyatchilikning ijtimoiy xavfligini kriminologlar yana quyidagicha izohlaydi "... jinoyatchilik o'zining sababi sifatida harakat qiladi, o'zini o'zi keltirib chiqaradi, o'zini ko'paytiradi, jinoyatlar sodir etilishi ildizini tashkil qiladi va mustahkamlaydi" [17].

Jinoyatchilikning ijtimoiy xavfliligi hozirgi kunda juda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jamiyatdagi ijtimoiy salbiy hodisa va jarayonlar keltirib chiqarayotgan va oziqlantirayotgan jinoyatchilik, o'z navbatida, ijtimoiy salbiy hodisa va jarayonlarni kuchaytirmoqda hamda chuqurlashtirmoqda.

Jinoyatchilik huquqiy, aniqrog'i jinoiy-huquqiy hodisadir. Bu belgi jinoyatchilikni huquqbuzarliklarning umumiy yig'indisi ichida mustaqil bo'lgan ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida jamiyatdagi boshqa salbiy hodisalardan ajratib turadi. Avvalo, bu belgini jinoyatchilikning jinoyat bilan bog'liqligi belgilaydi.

Har qanday jamiyatda qilmish (xatti-harakat, harakatsizlik)ning jinoyat yoki jinoyat emasligi jinoyat qonuni normalari bilan belgilanadi. Jinoyat qonuni normalari bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir qilinsa, u albatta jinoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. Bunday jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)larning umumiy va asosiy belgilarini o'zida mujassamlashtirgan jinoyatchilik ham jinoiy-huquqiy hodisadir.

Dunyodagi davlatlarning barchasida, ular qaysi tuzumda yashashlaridan va rivojlanganlik darajasi qanday ahvolda bo'lishidan qat'i nazar, jinoyatchilik obyektiv ravishda mavjud. Ammo, u yerdagi jinoyatchiliklar bir-biridan miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan farq qiladi. Har qanday jamiyatda ham jinoyatlar asosan insonga, uning qadr-qimmatiga, hayotiga, sog'lig'iga, mulkiga, ularning yashashi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy sharoitlariga tajovuz qiladi.

Jinoyatchilik har qanday jamiyatda, qanday tuzum bo'lishidan qat'i nazar, uning rivojlanishining har qanday bosqichida obyektiv mavjud bo'lgan ijtimoiy-huquqiy hodisadir. Bu o'rinda jinoyatchilikning insoniyat rivojlanishining ma'lum bir bosqichida yo'q bo'ladi degan fikrlar ilmiy asosga ega emas. Chunki, birinchidan, jinoiy xatti-harakatni sodir qiluvchi odamlar ijtimoiy-biologik mavjudot, ya'ni u faqat o'ziga o'xshaganlar bilan aloqada yashaydi, rivojlanadi. Inson faqatgina jamiyatda va undagi mavjud hodisalar, voqealar, jarayonlar ta'sirida shaxs sifatida shakllanadi va ma'lum bir natijalarga erishadi. Ikkinchidan, shaxs ijtimoiy-biologik mavjudot sifatida nafaqat yakka, balki yagona. U hamma vaqt o'zida o'zining "men" degan xususiyatini saqlaydi, bu bilan u o'zining boshqalardan farqini sezadi va uni o'z hayotiy tajribasi bilan o'rganadi. Shuning uchun ham ijtimoiylik va yagonalik o'rtasida doimo qarama-qarshilik mavjud, Bu esa jamiyatda jinoyatchilikning obyektiv mavjud bo'lishini taqozo qiluvchi asosiy sabablardan biridir.

Har qanday jamiyatda jinoyatchilikning qanday darajada bo'lishi shu jamiyatdagi qarama-qarshiliklarning qanday holatda bo'lishiga bog'liqdir. Qaysi davrda jinoyatchilik qanday darajada ekanligi uning miqdor va sifat ko'rsatkichlarida, ya'ni jinoyatchilik ahvoli, darajasi (koeffitsiyenti), tuzilishi, dinamikasi, geografiyasiga oid aniq statistik ma'lumotlarda namoyon bo'ladi. Jamiyat ijtimoiy hayotida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar o'rtasidagi ziddiyat qancha chuqurlashsa, jinoyatchilik shunchalik yuqori darajaga ko'tariladi, agar ular o'rtasidagi murosasizlik qanchalik kuchsizlantirilsa, jinoyatchilik miqdor va sifat jihatidan kamayishiga shunchalik imkoniyat ko'payadi. Bu obyektiv qonuniyatni jahon taraqqiyoti isbotlamoqda.

Jinoyatchilikning miqdor va sifat ko'rsatkichlari faqatgina rasmiy statistik ma'lumotlardangina iborat emas. Kriminologiyada latent jinoyatchilik tushunchasi ham mavjud. Jamiyatda sodir etilayotgan jinoyatlarning ma'lum bir qismi obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra rasmiy statistik ma'lumotlarda o'z aksini topmaydi. Shuning uchun ham jinoyatchilik latentlik (yashirin holatda bo'lish) xususiyatiga ega. Jinoyatchilik darajasiga baho berishda albatta uning latentlik xususiyatini va darajasini ham e'tiborga olishimiz shart.

Jinoyatchilikning biz yuqorida ko'rib o'tgan asosiy belgilariga asoslangan holda unga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: **“Jinoyatchilik – bu jamiyatdagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarning oqibati sifatida obyektiv mavjud bo'lgan, ma'lum bir mintaqada, ma'lum bir vaqtda (davrda) sodir qilingan jinoyatlar majmuasini o'z ichiga olgan, miqdor va sifat ko'rsatkichlarda tavsiflanadigan, latentlik xususiyatiga ega, nisbatan ommaviy, tarixiy o'zgaruvchan, o'zini o'zi oziqlantiruvchi ijtimoiy xavfli ijtimoiy-huquqiy hodisa”**.

Jinoyatchilikning mohiyatini, uning qonuniyatlarini ochib berishda biz uni tavsiflovchi miqdor va sifat ko'rsatkichlarni tahlil qilishga, har tomonlama va yanada chuqurroq bilish uchun esa uning turlari, sodir etgan shaxslar, hududlar kesimida o'rganamiz.

Maqola maqsadidan kelib chiqqan holda O'zbekistondagi jinoyatchilikni uch, ya'ni mustaqillikka erishgan yildan [18] to 2001-yilgacha, shu yili jinoyat qonunchiligini liberallashtirish munosabati bilan amalga oshirilgan islohotlar boshlangandan to 2017-yilgacha[19] va Harakatlar strategiyasiga muvofiq qonun ustuvorligi va sud-huquq sohasida islohotlar boshlangandan [20] bugungi kungacha bo'lgan davrga ajratgan holda tahlil qilishga harakat qilamiz.

Respublikada 1991–2000-yillardagi jinoyatchilik tahlili. 1991 va 1992-yillarda to'xtovsiz o'sib kelayotgan jinoyatchilikni jilovlash va o'sishini to'xtatishning imkoni bo'lmagan. Ammo, 1991-yilga kelib Respublikada jinoyatchilikning o'sish darajasini 1990-yildagi 4,4% dan 0,5% gacha kamaytirishga erishilgan.

Shuni qayd etish lozimki, o'tish davridagi mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan Respublikada mustaqillikning birinchi yilidayoq ayrim turdagi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning o'sishini to'xtatishga, hatto ularning miqdorini qisman kamaytirishga erishildi. Ammo umumiy jinoyatchilik salmog'ini kamaytirish qiyin kechdi.

O'sha paytda bir tomondan, respublikada vujudga kelgan iqtisodiy tanglik, amaldagi qonunlarning davr talablariga javob bera olmasligi, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalardagi inqirozlar ma'lum bir turdagi jinoyatlarning ko'payishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini amalga oshirishda vujudga kelgan bir qator qiyinchiliklar va yo'l qo'yilgan xatolar, jinoyatchilikning, ayniqsa uning uyushgan turlarining birdaniga

o'sishiga sharoit yaratib bergan. Oqibatda 1992-yilda respublikada umumiy jinoyatchilik 1991-yilga nisbatan 5,6% ga oshganligi qayd etilgan.

Jinoyatchilikning bunday sur'atlar bilan o'sib borishi respublikamiz mustaqilligini mustahkamlash, huquqiy va adolatli jamiyat qurish uchun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, ayniqsa, ma'naviy sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlarga katta to'sqinlik qila boshladi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: «Biz jinoyatchilikka qarshi ayovsiz kurash boshladik. Respublika Prezidenti devoni va boshqa davlat tashkilotlariga bu ishlarimizni ma'qullab, ularni dadil davom ettirishimizni talab etib minglab xat va telegrammalar kelib turibdi... Xalq vaqtinchalik davom etayotgan qiyinchiliklarga chidashi mumkin, lekin bilib qo'yaylik, takroran aytaman: adolatsizlikka chidamaydi» [21] deb ta'kidlagan edi.

Respublikada jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish natijasida 1993-yilda O'zbekistonda oxirgi olti yil ichida birinchi marta uning o'sishini to'xtatish, hatto umumiy miqdori 1992-yilga nisbatan 3,9% ga kamayishiga erishildi.

Respublikamizda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 1993-yildan boshlab 2000-yilgacha bo'lgan davrda jinoyatchilik umumiy miqdorining yil sayin kamayib borishi qayd etilgan. 2000-yilga kelib O'zbekistonda 1992-yilga nisbatan aholi soni 4,5 millionga o'sgan bo'lishiga qaramasdan, umumiy jinoyatchilik miqdori 1992-yilga nisbatan 21,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Jinoyatchilikka oid statistik ma'lumotlar va jamiyat taraqqiyotining mazkur davrida mamlakatda ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan islohotlar tahlili natijalariga asoslanib, jinoyatchilik miqdor va sifat ko'rsatkichlaridagi ijobiy o'zgarishlarni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy tanglik vujudga kelishi xavfining oldini olish borasida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilishi natijalari;

ikkinchidan, xalqning milliy qadriyatlarini tiklash, tarixni, buyuk ajdodlarimizning insoniyat taraqqiyotidagi o'rnini, bizga qoldirgan bebaho meroslarini o'rganish orqali o'zligimizni anglash va uning asosida kelajak avlodga ta'lim-tarbiya berish borasida qilingan harakatlar;

uchinchidan, jinoyatchilik, ayniqsa, uning uyushgan turiga, shuningdek ularni oziqlantiruvchi ekstremizm, aqidaparastlik, "ommaviy madaniyat" kabi xurujlarga qarshi ayovsiz kurash olib borilishi;

to'rtinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi, xususan, uning eng oldingi safida faoliyat olib boruvchi ichki ishlar organlari tizimida bosqichma-bosqich tub islohotlar amalga oshirilishining boshlanganligi va hokazo.

Respublikada 2001–2016-yillardagi jinoyatchilik tahlili. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jinoyat va jazoga oid davlat siyosati doirasida birgina inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, adolat hamda insonparvarlik prinsiplarini ta'minlash bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan ishlarning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin: birinchidan, jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya qonunchiligini liberallashtirish; ikkinchidan, jinoiy jazo tizimini liberallashtirish va o'lim jazosini bekor qilish, shuningdek "Xabeas korpus" institutini joriy qilish; uchinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashda o'zbek xalqining milliy qadriyatlariga asoslangan holda jinoyat uchun javobgarlik va jazodan ozod qilish, xususan, amnistiya, afv, yarashtirish, uy qamog'i va boshqa huquqiy institutlar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yanada kengaytirish hamda chuqurlashtirish; to'rtinchidan, odil sudlovni amalga oshiruvchi mutlaqo yangi sud tizimini

shakllantirish va uning faoliyatini takomillashtirish, xususan, sudyalar mustaqilligini ta'minlash borasidagi tizimli islohotlarni yanada chuqurlashtirish; beshinchidan, sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik va jazoning muqarrarligini ta'minlovchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi hamda ular faoliyatini takomillashtirish borasidagi izchil islohotlarni yanada chuqurlashtirish; oltinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashni demokratlashtirish va bu sohada faoliyat olib borayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, ular ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish; yettinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashning barcha yo'nalishlarida, shu jumladan uning oldini olish, xususan jabrlanuvchilarga, jinoyat sodir etgan, shuningdek, javobgarlikdan va jazodan ozod qilingan shaxslarga huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy amaliy yordam ko'rsatish, ularning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasida fuqarolik jamiyati institutlari, ayniqsa mahallaning ishtirokini kengaytirish.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida O'zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratilganligi, bu esa istiqloлга erishganimizdan keyin biz qo'lga kiritgan eng katta, eng muhim yutuqlarimiz ekanligi, yurtimizda o'zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko'p asrlik milliy an'analarga mos va sodiq qolgan holda haqiqatan ham adolat o'rnatishda jinoyat yo'lga kirganlarga nisbatan eng odil siyosat yuritilayotganligi chuqur tahlillar asosida bayon etilgan [22].

Tahlil qilinayotgan davrda yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlarda amalga oshirilgan islohotlarning natijalarini O'zbekistonda 2016-yilga kelib aholi 10 million kishiga ko'payib, 31,5 milliondan oshgan bo'lsa-da, jinoyatchilik 1992-yildagi ko'rsatkichdan 6,6 %ga kamayishga erishilganligida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan o'n besh yilda, ya'ni 2001-yilga nisbatan 2016-yilda jinoyatchilik umumiy miqdori 17,7 %ga oshib, o'rtacha yillik o'sish 1,2 %ni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu davrda aholi soni 10 millionga, ya'ni 53,6 %ga oshib, o'rtacha yillik o'sish 6,6 %ni tashkil etgan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, respublikamiz hududida tahlil qilinayotgan davrda jinoyatchilikning umumiy miqdori o'sishiga qaramasdan, uning tarkibidagi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar hissasi to'xtovsiz kamayishga erishilgan. Agar 2002-yilda mamlakatimizda umuman jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan hududlar jami hududlarning 11,6 %ini tashkil qilgan bo'lsa 2014-yilga kelib ularning hissasi ikki barobarga oshib 22,2 %ni tashkil etgan.

Mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalik, shu jumladan jinoyatchilik ko'rsatkichlaridagi kuzatilgan ijobiy tomonga o'zgarishlar, avvalo, mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan islohotlar, qolaversa, tahlil qilinayotgan davrda, birinchidan, jinoyatchilikning sabab va sharoitlari bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bartaraf etilishiga, ikkinchidan, insonni g'ayriijtimoiy va qonunga zid ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishiga yo'l qo'ymaydigan xalqimiz milliy qadriyatlariga asoslangan yuksak ma'naviyatimiz tiklanishiga, uchinchidan, insonparvarlik va adolat prinsiplariga asoslangan sud-huquq, xususan, huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimi shakllantirishga qaratilganligining natijasidir.

Respublikada 2017–2023-yillardagi jinoyatchilik tahlili. Tahlil qilinayotgan davrdagi jinoyatchilik dinamikasida quyidagi o'zga xos qiziqarli holat kuzatiladi: birinchidan, dastlabki uch yilda jami qayd etilgan jinoyatlar 2016-yilga nisbatan 2017-yilda 15,7 foizga, 2018-yilda 44 foizga, 2019-yilda 47,3 foizga pasayganligi, ikkinchidan, oxirgi to'rt yilda esa 2019-yilga nisbatan 2020-yilda 34,7 foizga,

2021-yilda 2,41 barobarga, 2022-yilda 2,28 barobarga, 2023-yilda 2,26 barobarga oshganligi qayd etilgan.

Xuddi shunga yaqin holatni og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar, shuningdek ayrim an'anaviy jinoyat turlari dinamikasida ham kuzatishimiz mumkin. Xususan: og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar 2016-yilga nisbatan 2017-yilda 1,6 foizga, 2018-yilda 19,2 foizga, 2019-yilda 24,4 foizga kamayganligi, oxirgi to'rt yilda esa 2019-yilga nisbatan 2020-yilda 49,9 foizga, 2021-yilda 2,76 barobarga, 2022-yilda 2,87 barobarga, 2023-yilda 2,29 barobarga oshganligi qayd etilgan.

O'zbekistonda jinoyatchilik dinamikasidagi mazkur holatlarni jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining mazmun-mohiyatiga va uni amalga oshirish, ayniqsa jinoyatlar, ularning sabab va sharoitlarining barvaqt oldini olish sohasini, ularni aniqlash hamda fosh etish amaliyotini, mazkur sohaga mas'ul vakolatli davlat organlari faoliyatini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar, shuningdek bu sohadagi qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan izohlashimiz mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatchilik, uning og'ir va o'ta og'ir turlarining tadqiq etilayotgan davrning dastlabki uch yilida kamayishining kuzatilishini bir tomondan mamlakat va uning barcha hududlarida Harakatlar strategiyasi doirasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarining joriy etilishi [23], ikkinchi tomondan jinoyatchilik ko'rsatkichlari uchun huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari, shu jumladan bevosita rahbarlarining mas'uliyati kuchaytirilganligi, qolaversa 2018-yil 1-yanvardan boshlab mazkur ko'rsatkichlar ularga nisbatan rag'batlantirish bilan bir vaqtda jazolash uchun asosiy mezon sifatida belgilanganligi bilan bog'liqdir.

Oxirgi to'rt yilda jinoyatchilik dinamikasidagi o'sishni esa, birinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida inson huquq va erkinliklarini, bu sohada qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilishi, ikkinchidan, jinoyatlarga oid statistik ma'lumotlarni qayd etish va yuritish tartibiga, shuningdek hududlarda kriminogen vaziyatni baholash mezonlariga kiritilgan yangi tartib qoidalarining amaliyotga joriy etilishi, uchinchidan, jinoyat qonunchiligida ayrim turdagi, xususan xotin-qizlarga, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlikning kuchaytirilishi bilan izohlash mumkin.

Bugungi kunda jinoyatchilikning yosharib, kibermakonda jinoyatlar sodir etilishining kengayib borayotganligi, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan, shu jumladan sun'iy intellektlardan jinoiy maqsadlarda foydalanishga bo'lgan harakatlarning paydo bo'layotganligi, uning yangi turlari va ko'rinishlari paydo bo'layotganligi, birinchidan, bugungi jinoyatchilik, ularning sabab va sharoitlari, jinoyat sodir etuvchi va undan jabrlanuvchilarga xos xususiyat hamda qonuniyatlarni, ikkinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini va uni amalga oshirish amaliyotini, uchinchidan, inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tizimli va maqsadli tadqiq etishni taqozo etmoqda. Bu esa kriminologiya oldiga boshqa fanlar, xususan iqtisod, kibernetika, genetika, pedagogika, psixologiyadagi yutuqlardan foydalanib, soha mutaxassislarini jalb etgan holda fanlararo tadqiqotlarni o'tkazishni bugungi kunning eng dolzarb vazifasi sifatida qo'yimoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida, xususan Harakatlar, Taraqqiyot strategiyalari asosida yangi O'zbekistonda shakllangan inson huquqlarini himoya qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimining shakllanganligi jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida muayyan ijobiy natijalarga erishish imkonini bermoqda. Oxirgi besh yilda aholi soni 2020-yildagi

33,9 milliondan 2023-yilda 36,2 millionga, ya'ni 6,8 foizga oshgan bir paytda qasddan odam o'ldirish 10,6 foizga, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish 13,2 foizga, bezorilik 28,7 foizga kam qayd etilganligi, shuningdek ushbu davrda sodir etilgan jinoyatlarning 63,9 foizini oldini olish mumkin bo'lgan, 36,1 foizini aniqlangan jinoyatlar tashkil etilganligi yangi O'zbekistonda:

birinchidan, aholining ijtimoiy muammolarini hal etish, kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan manzilli va tizimli chora-tadbirlar, shuningdek xalqning tinch va osoyishta hayot kechirishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar huquqbuzarliklar sabab va sharoitlarining barvaqt profilaktikasiga xizmat qilayotganligining;

ikkinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimini yanada takomillashtirish, bu borada davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati, xususan mahalla instituti hamkorligining yangi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning;

uchinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida amaliyotga joriy etilayotgan zamonaviy yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, qolaversa bu sohada faoliyat olib boruvchi xodimlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning;

to'rtinchidan, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashda ochiqlik va shaffoflikni, jamoatchilik nazoratini hamda raqamlashtirishni yanada kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijasidir.

Jinoyatchilikka qarshi kurash, uning ustuvor yo'nalishi hisoblangan oldini olishning asosiy samarali chora-tadbirlari qatorida kriminologik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj hamda zaruratning yuqoriligi haqidagi ta'limot inson, jamiyat va davlat manfaatlariga to'liq mos keladi, shuningdek bugungi kunda ham istiqbolda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Shu o'rinda, yangi tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti belgilangan maqsadlarga erishish borasida ilmiy-tadqiqotlar samarali amalga oshirilishini ta'minlashga mamlakatimizning ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari yetuk olimlari, boy amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislari faoliyatini yo'naltiradi hamda muvofiqlashtiradi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan manbalar

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Криминология>
2. Шестаков Д. А. Криминология. – СПб., 2006. – С. 40
3. Криминология: Darslik / Prof. Z.S. Zaripov tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006
4. Шестаков Д. А. К вопросу об истории криминологии // Вестник ЛГУ. – 1991. – № 2. – С. 74–81
5. Давитадзе М.Д., Майстренко Г.А. К вопросу об истории формирования и развития криминологии как науки // Теория и практика юридической науки. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-ob-istorii-formirovaniya-i-razvitiya-kriminologii-kak-nauki-1/viewer>
6. Пудовочкин Ю.Е., Бабаев М.М. Криминология и история: на пути междисциплинарного сближения. // Проблемы теоретико-методологического обеспечения криминологических исследований и криминологическая безопасность. <https://cyberleninka.ru/article/n/kriminologiya-i-istoriya-na-puti-mezhdistsiplinarnogo-sblizheniya/viewer>
7. Imom Buxoriy. Sahihi Buxoriy. – T.: "O'zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008; Alisher Navoiy. Mahbub ul qulub. Mukammal asarlar to plami. 20 tomlik. 14 t. –T.: Fan, 1998

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5416-son farmoni. <https://lex.uz/docs/3686277>
9. Karaketov Y.M., Usmonaliyev M.U. Jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminologik choralari: O'quv qo'llanma. –T., 1995. – B. 229
10. Zaripov Z.S., Ismailov I. Kriminologiya (Umumiy qism): Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1996.
11. Abdurasulova Q. Mamlakatimizda kriminologik ta'limlarning shakllanishi, rivojlanishi, hozirgi holati va zamonaviy kriminologiya fanining vazifalari. // Jamiyat va innovatsiyalar. <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1315/1496>
12. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova, I. Yu. Fazilov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 35–57
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5416-son farmoni. <https://lex.uz/docs/3686277>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27-son farmoni. <https://lex.uz/docs/5749291>
15. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. – T., 2008. – B. 20
16. Kriminologiya: Darslik / Mualliflar jamoasi. Z. S. Zaripovning umumiy tahriri ostida. – T., 2009. – B. 43
17. Аванесов Г. А. Криминология и социальная профилактика. – Горький, 1980. – С. 189
18. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 336-XII-son qonuni. <https://lex.uz/docs/127899>
19. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-avgustdagi "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 254-II-son qonuni. <https://lex.uz/docs/87124>
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
21. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T., 1993. – B. 179
22. Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T., 2011. – B. 21

KRIMINOLOGIYA FANINING VAZIFALARI HAQIDAGI MULOHAZALAR



Considerations on the tasks of the science of criminology

Abdurasulova Qumrinisa Raimqulovna

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrası
professori, yuridik fanlar doktori*

Annotatsiya: maqolada “jinoyatchilik” tushunchasi, jinoyat sodir etishga yoki jabrlanishga moyil xulq-atvorli shaxslarning xulqini tuzatish, jinoyatlarning sabablari, unga imkon bergan sharoitlar, kriminologiya fanining vazifalari, kriminologiya fanining hozirgi kundagi dolzarb vazifalari, yoshlar va ayollar jinoyatchiligining xususiyatlari, oilaviy nizolar, xavfsiz oila, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimi joriy etilganligi, kriminologiya fanining vazifalari bir nechta guruhlariga ajratilganligi, kriminologiya fanining predmeti, jinoyatchilik haqidagi bilimlarni boyitish, kriminologiya fanining asosiy funksiyalari, yig'ish funksiyasi, ta'riflash funksiyasi, prognoz qilish funksiyasi, aholini xabardor qilish funksiyasi va kriminologiya fanining asosiy vazifalari samarali bajarilishini ta'minlash bo'yicha takliflar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: kriminologiya, fan, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklarning oldini olish, yig'ish funksiyasi, ta'riflash funksiyasi, prognoz qilish funksiyasi, aholini xabardor qilish funksiyasi.

Abstract. the article contains opinions on the concept of "criminality", the causes of crimes, the conditions that made it possible, the tasks and current tasks of criminology, the characteristics of youth and women's crime, safe family, maintaining public order, etc.

Keywords: criminology, science, crime, offense, crime prevention, collecting function, descriptive function, forecasting function, public awareness function.

Kriminologiya fanining potentsiali, avvalo, “jinoyatchilik” tushunchasining barcha tomonlari va parametrlarini, uning boshqa salbiy hodisalar bilan aloqadorligini, shaxs antiijtimoiy xulq-atvorining jinoyatchilik bilan dialektik aloqadorligini aniqlash, o'rganishdan iborat [1].

Mamlakatimizda huquqbuzarlik (jinoyat)larning barvaqt oldini olish, xulq-atvori jinoyat sodir etishga yoki jabrlanishga moyil shaxslarning xulqini tuzatish, jinoyatlarning sabablari, unga imkon bergan sharoitlarni aniqlab, ularni bartaraf qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Buning uchun vakolatli tuzilmalarga barcha sharoitlar yaratilmoqda. Oxirgi ikki yilda huquq-tartibot faoliyatiga oid 10 ta qonun, Prezidentning 40 ga yaqin farmon va qarorlari, 60 dan ortiq hukumat qarorlari qabul qilindi. Huquq-tartibot organlari, ayniqsa, ichki ishlar xodimlarining oylik maoshi keskin oshirildi va ko'plab imtiyozlar berildi. “Mahalladagi beshlik” uchun 30 mingdan ortiq yangi shtatlar kiritildi. Chunki aholining tinchligini ta'minlash mahalladan boshlanishi kerak [2].

Jamiyatimizda jinoyat qilgan shaxslarning har uchinchisini yoshlar tashkil qilayotgani afsus bilan qayd etildi. Shu bois uyushmagan yoshlar bilan yagona yondashuv asosida ishlashni yo'lga qo'yish

maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati raisi boshchiligidagi idoralararo kengash tuziladigan bo'ldi. Bu kengash yoshlar bilan manzilli ishlash dasturlarini amalga oshiradi [3].

Oilaviy nizolar, ayollar jinoyatchiligi holatlariga ham e'tibor qaratildi. Ijtimoiy–maishiy muammosi bor oilalar bilan ishlash – davlat idoralarining birinchi galdagi vazifasi bo'lishi kerakligi ta'kidlandi. Shu maqsadda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Endi og'ir hayotiy ahvolga tushgan oilalarga yordam berish bo'yicha "ijtimoiy xizmat ishi" ochiladi. "Xavfsiz oila" tamoyili asosida alohida ish tizimi yo'lga qo'yiladi [4].

Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarorlari va qator farmonlari qabul qilindi.

Ushbu hujjatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirishning mutlaqo yangi mexanizmlari belgilab berildi.

Yuqoridagi hujjatlarda qo'yilgan vazifalarni bajarish, hal etishda kriminologiya fanining ham o'ziga xos o'rni bor. Boshqa huquqiy fanlarga nisbatan "yosh" bo'lsa-da, kriminologiya ijtimoiy-huquqiy fan sifatida ham ijtimoiy, ham huquqiy fanlar bilan aloqadorlikda ijtimoiy salbiy hodisa – jinoyatchilik, uning alohida turlari, muayyan jinoyatning mavjud bo'lishi, sodir etilishi va o'sishining sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish (zararsizlantirish), jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu esa, jinoyatlarning oldini olish samaradorligini yanada oshirish orqali jinoyatchilik darajasini imkon qadar eng kichik miqdorgacha kamaytirishga qaratilgan bilimlarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Olimlar kriminologiyaning vazifalarini bir nechta guruhlariga ajratadilar. Xususan, A.I. Dolgova kriminologiyaning asosiy vazifalari sifatida:

1) jinoyatchilik profilaktikasini yanada jadallashtirish maqsadida kriminologik hodisalarni ilmiy tushuntirish va prognoz qilish;

2) mavjud konsepsiyalar va ishlanma(g'oya)larni real tahlil qilish, ulardagi e'tiborli jihatlarni saqlab qolish, shuningdek, qotib qolgan va haqiqatga zid holatlardan voz kechish; jinoyatchilik va uning tendensiyalarini darhol shakllantirish; kriminogen determinantlar tizimini to'liq aniqlash;

3) kriminologik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish – kriminologik nuqtayi nazardan asoslangan va jinoyatchilikdagi o'zgarishlarga ta'siridan kelib chiqib normativ aktlarni ekspertizadan o'tkazish, ilmiy asoslangan tavsiyalarini jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotiga joriy etish;

4) jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va uni tatbiq etish;

5) jinoyatlarning o'ta xavfli turlari (iqtisodiy jinoyatchilik, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, zo'rlik ishlatib sodir etilgan og'ir jinoyatlar, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, korrupsiya)ni o'rganish va ularga qarshi kurashishning samarali choralarini ishlab chiqishni ko'rsatgan.

V.Ye. Eminov kriminologiyaning vazifalarini quyidagi guruhlariga ajratgan:

1) o'rganish vazifasi (jinoyatchilikning mavjud bo'lishi va rivojlanishining qonuniyatlarini, jinoyatchi shaxsi va turli jinoyatlarning sodir etilishi "mexanizm"larini, ijtimoiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasini o'rganish);

2) prognoz qilish;

3) davlat organlari va jamoat tashkilotlari uchun kriminologlarning tavsiyalari o'zgarayotgan ijtimoiy va texnik hayotiy shart-sharoitlarni, jinoyatchilikning oldini olish subyektlarning faoliyati bo'yicha kundalik amaliyotiga joriy etish;

4) aholini xabardor qilish (bilimini oshirish).

N.F. Kuznetsova kriminologiya fanining predmeti va tabiatdan kelib chiqib, uning quyidagi vazifalarini ko'rsatgan:

1) tahliliy (jinoyatchilikni, uning umumiy holati va jinoyatlar turlari, jinoyatchi shaxsi, jinoyatchilikning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni, oldini olishning tizimi va samaradorligini tadqiq etish);

2) prognoz qilish (kriminologik hodisalarning rivojlanishi ehtimoli haqida fikrlar bildirish);

3) amaliy (kriminologik tavsiyalarni qonun ijodkorligi va uni qo'llash amaliyoti tatbiq etish);

4) xalqaro (BMT, Interpol va boshqa tashkilotlar yo'nalishida jinoyatchilikka qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish).

Yuqorida ko'rsatilgan kriminologiya fanining vazifalarini tizimlashtirish asosida jamiyat rivojining hozirgi bosqichida uning quyidagi vazifalarini qayd etish zarur:

a) jinoyatchilik haqidagi bilimlarni boyitish uchun u haqida obyektiv va haqiqiy hajmi (holati), bunda o'tmishdagi va hozirgi vaqtdagi jinoyatchilik dinamikasi, darajasi, tuzilishga oid bilimlarga ega bo'lish;

6) jinoyatchilik turlariga qarshi kurashishni differensiatsiya qilish uchun ularni kriminologik tadqiq etish;

v) jinoyatchilik sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

g) jinoyatchi shaxsini va muayyan jinoyatning sodir etilish mexanizmini o'rganish, turli jinoyatlarni klassifikatsiyalash va jinoyatchi shaxslarni tiplarga ajratish;

d) jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishning vositalari va yo'nalishlarini aniqlash;

e) muayyan hududlardagi jinoyatchilikni ilmiy diagnoz qilish;

j) xalqaro va xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ularning yutuqlaridan foydalanish.

Har qanday fan singari kriminologiya ham amaliyotning aniq tavsiyalar, qulay axborotlar bilan ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Bu borada asosiy e'tibor yuqori malakali, bilimdon va o'z ishini sevadigan, jinoyatlar va jinoyatchi shaxsiga differensiatsiya nuqtayi nazaridan yondashadigan kadrlarni tayyorlash, shuningdek, oldini olish choralarga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shulardan kelib chiqib, kriminologiya fani quyidagi vazifalarni:

– jamiyatda umumiy jinoyatchilik, uning alohida turlari, muayyan jinoyatning mavjud bo'lishi, sodir etilishi va o'sib borishining sabablari va uni bartaraf etish bo'yicha zarur ilmiy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish;

— jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqib, chuqur ilmiy xulosalarga tayangan holda, jinoyatlar profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha zarur tavsiyalar berish;

– jinoyatlar profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish uchun jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotini zarur tavsiyalar bilan ta'minlash;

— xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganib, uni jinoyatlar profilaktikasida qo'llash bo'yicha tavsiyalar berish;

— jinoyatchilikni prognoz qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashishni rejalashtirish;

– maxsus ilmiy metodlar yordamida kriminologiyaga taalluqli hodisalarni o'rganish, ularga doir mavjud bilimlarni bugungi kun jinoyatchilikka qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotining ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilash;

– jinoyatlar profilaktikasini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish lozim.

Muxtasar qilib aytganda, kriminologiya fanining asosiy vazifasi kriminologik ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy hodisalarga doir mavjud bilimlarni bugungi kun jinoyatchilikka qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotining ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilash, mavjud muammolarning nazariy va metodologik jihatdan asoslangan yechimlarini va jinoyatlar profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha zarur tavsiyalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi.

Ushbu og'ir, sharaflı vazifalarni bajarishda kriminologiya o'zining ilmiy asoslangan tavsiyalarini yaratadi. Mazkur tavsiyalar esa, jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil etishda zarur manba hisoblanadi.

Shuni unutmashlik zarurki, kriminologiya fani jinoyatlar profilaktikasiga doir samarali ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni yaratmog'i juda muhim. Chunki har qanday fan singari kriminologiya ham ilmiy-nazariy jihatdan boyitilib borilmasa, jinoyatchilikka qarshi kurashishda zarur vazifalarni bajara olishga qodir fan sifatida rivojlana olmaydi. Bu borada nazariya amaliyotning ko'zi ekanligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Kriminologiya fanining jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotidagi ahamiyati oshib boryapti. Uning ilmiy tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan ilg'or tajribalar jinoyatchilikka qarshi kurash borasida muhim qarorlarga kelish imkonini yaratmoqda. Xususan, jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida hududlardagi jinoyatlarni o'rganish metodikasi, hududlardagi jinoyatchilikni prognoz qilish bo'yicha qator metodik qo'llanmalar yaratildi.

Kriminologiya fani o'zining vazifalarini quyidagi asosiy funksiyalari orqali amalga oshiradi:

1) yig'ish funksiyasi – tadqiqotlar olib borish orqali jinoyatchilik bilan bog'liq u yoki bu jarayonning qanday kechayotganligi va qanday ro'y berayotganligi xususida zarur kriminologik axborotlarni yig'ishni nazarda tutadi;

2) ta'riflash funksiyasi – olingan empirik axborotlarni tahlil qilish, guruhlariga ajratish va umumlashtirish asosida kriminologiya predmetiga kiruvchi jarayonlarni yoritishni nazarda tutadi. Bunda u yoki bu holatning qanday ro'y berganligi ochib beriladi va mavjud voqelik xususida to'plangan ma'lumotlar nazariy jihatdan ma'lum bir tartibda o'rganiladi. Shuningdek, kriminologik voqelikka daxldor ijtimoiy hodisalarni o'rganish asosida o'ziga xos tushunchalar va nazariy konsepsiyalar yaratiladi;

3) prognoz qilish funksiyasi – bunda u yoki bu jarayonning qanday kechishi va shu asosida kelgusida yuzaga keladigan oqibatlar, umuman olganda, o'rganilayotgan jarayonning qay tarzda rivojlanishi mumkinligi oldindan ilmiy bashorat qilinadi. Kriminologiya kriminologik ahamiyatga ega bo'lgan hodisa va jarayonlar yo'nalishini, kelajakdagi o'zgarishlarni o'rganib, ularning keyingi ahvolini va yo'nalishini prognoz qiladi.

4) aholini xabardor qilish funksiyasi. Hozirgi vaqtda jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti jinoyatchilikni nazariy jihatdan tubdan o'rganish vazifasini yanada qat'iy qilib qo'yimoqda. Umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlari asosiy o'ringa qo'yilayotgan, hozirgi vaqtda to'siq bo'layotgan salbiy hodisalarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish, bu hodisalarda kelajakda qanday o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini prognoz qilib, jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali choralari ishlab chiqishdan iborat.

Kriminologiya fanining asosiy vazifalari samarali bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar taklif etiladi:

1) huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining ixtisoslashtirilgan statistika hisobotlaridan kriminologik ilmiy tadqiqotlarni olib borishda samarali foydalanish mexanizmini yaratish, bu borada ilmiy markaz tashkil etish maqsadga muvofiq;

2) kriminologiyaning dolzarb muammolari bo'yicha samarali ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va

amalga oshirish borasidagi ilg'or xalqaro tajribani va chet el mamlakatlari amaliyotini hisobga olish;

3) jinoyatchilikka qarshi kurashning zamonaviy usullari to'g'risidagi elektron (publistik, yuridik, ilmiy-ommabop) adabiyotlarni tarqatishni jadallashtirish. Jumladan, IIV Akademiyasi va Toshkent davlat yuridik universiteti hamkorligida Internet tarmog'ida "Kriminologiyaning dolzarb masalalari" nomli xalqaro ilmiy-amaliy elektron jurnalni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu, bir tomondan, mamlakatimiz ilm-fani, xususan, kriminologiya fani yutuqlarining xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan esa, tadqiqotchilarga o'z ilmiy maqola (tezis)larini nashr ettirishlarida qulayliklar yaratadi.

Hozirgi davr, mamlakatimiz Prezidentining jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid talablariga muvofiq kriminologik bilimlarni yangilash, rivojlantirish, ularni amaliyotga tatbiq etish kriminologiyaning asosiy vazifasi ekanligidan kelib chiqib, so'nggi besh yilda qayd etilgan jinoyatlar soni besh barobarga oshganligi (2019-2023-yillar respublika bo'yicha qayd etilgan jinoyatlar soni 2,3 barobarga oshgan. Masalan, 2019-yilda 46 ming jinoyat qayd etilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 104 mingga yetgan) [5], voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida maktab o'quvchilari sonining ko'payganligi (2023-yilda voyaga yetmaganlar 3500 ta jinoyat sodir etgan. Shundan 2 280 nafarini maktab o'quvchilari tashkil qiladi) [6], mansabdor shaxslar jinoyatlari (2023-yilda 3575 nafar mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan 15 foizga ko'p) [7] ham ortganligini e'tiborga olib, ushbu yo'nalishlarda tadqiqot olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'ylaymizki, yuqorida ta'kidlagan taklif, tavsiya va xulosalarning amaliyotda o'z ifodasini topishi bu boradagi muammolarni hal etishda ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan manbalar

1. Зарипов З., Мирзажонов К. Современная криминология: её состояние и задачи. 2004;№4 (20):39.
2. Mirziyoyev Sh. M. Maqsadimiz adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali xalqimizni rozi qilish [Internet]. [cited 2024 Apr 4]. Available from: <https://president.uz/oz/lists/view/6519>
3. PQ-2833 25.03.2017 Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida [Internet]. [cited 2024 Apr 4]. Available from: <https://lex.uz/pdfs/3141186>
4. PQ-3528 15.02.2018 Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida [Internet]. [cited 2024 Apr 4]. Available from: <https://lex.uz/pdfs/3556832>
5. uz K. Kun.uz. [cited 2024 Apr 4]. So'nggi 5 yilda qayd etilgan jinoyatlar soni 2 barobar oshdi. Available from: <https://kun.uz/12286183>
6. Gazeta.uz [Internet]. 2024 [cited 2024 Apr 4]. Maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o'tkaziladi. Available from: <https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/05/inspector/>
7. uz K. Kun.uz. [cited 2024 Apr 4]. Mansabdor shaxslar jinoyatchiligi bo'yicha raqamlar ochildi. Available from: <https://kun.uz/90012113>

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УКРЕПЛЕНИЯ КРИМИНОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ОБЩЕСТВА

Main directions of strengthening the criminological security of society



Фахритдин Мухитдинович Мухитдинов
профессор кафедры «Криминологии» Академии
МВД Республики Узбекистан

Аннотация: В статье проведен анализ концептуальных положений криминологической безопасности, которая оценивается как самостоятельная научная категория и реальное социальное явление. Криминологическая безопасность рассматривается в качестве теоретической основы современной уголовной политики страны. Автор отмечает, что разработка теоретических положений криминологической безопасности способствует развитию отдельного направления в рамках национальной безопасности – криминологической безопасности, структурно входящей в общественную и государственную безопасность.

Ключевые слова: криминологическая безопасность, вызовы и угрозы криминологической безопасности, преступность, факторы преступности, социальные последствия преступности, уголовная политика, система противодействия преступности.

Abstract: The article is in the format of conceptual provisions of criminological security, which in criminology is assessed as an independent scientific category and a real social phenomenon. Criminological security is considered as the theoretical basis of the modern criminal policy of our country, designed to set a new and truly humanistic direction for the development of the theory and practice of combating crime. The author notes that the development of theoretical provisions of criminological security contributes, within the framework of national security, to the development of a separate direction - criminological security, structurally included in public and state security.

Keywords: criminological security, challenges and threats to criminological security, crime, crime factors, social consequences of crime, criminal policy, crime control system

Криминологическая безопасность общества является одним из фундаментальных условий стабильного развития государства и благополучия его граждан. В Узбекистане, как стране, переживающей период активных реформ и модернизации, вопросы обеспечения криминологической безопасности приобретают особую актуальность.

«Необходимо добираться до самых корней каждого преступления, сформировать у общества иммунитет для борьбы с преступностью. В противном случае нам придется бороться только с последствиями», отмечал Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев на видеоселекторном совещании по вопросам предотвращения преступности, повышения ответственности государственных органов и общества в этой сфере [1].

В теории криминологическая безопасность определяется как состояние защищенности жизненно важных интересов личности, общества и государства от преступных посягательств. Это понятие включает в себя не только борьбу с уже совершёнными преступлениями, но и предупреждение потенциальных угроз, а также создание условий, при которых преступная деятельность становится менее привлекательной и более рискованной для потенциальных правонарушителей.

В рамках данного тезиса будут рассмотрены следующие ключевые проблемы:

1. Специфика криминогенной обстановки в Узбекистане в условиях социально-экономических преобразований.
2. Эффективность существующей законодательной базы и правоприменительной практики в сфере обеспечения криминологической безопасности.
3. Роль государственных институтов и общественных организаций в предупреждении преступности и защите прав граждан.
4. Влияние культурных и социальных факторов на формирование криминогенной ситуации в стране.
5. Проблемы адаптации международного опыта в области криминологической безопасности к реалиям Узбекистана.
6. Перспективы развития системы криминологической безопасности в контексте долгосрочных целей развития государства.

Специфика криминогенной обстановки в Узбекистане тесно связана с процессами экономической либерализации и социальной трансформации, происходящими в стране с 2016 года. Эти преобразования, с одной стороны, способствуют экономическому росту и повышению уровня жизни населения, но с другой – создают новые вызовы для криминологической безопасности.

Поскольку «каждое государство имеет свои уникальные характеристики и вызовы в области национальной безопасности, и эти факторы могут различаться в зависимости от контекста и обстоятельств. На национальную безопасность государства влияет множество факторов. Проведение широкого анализа факторов, влияющих на национальную безопасность, позволяет выявить некоторые основные направления, которые оказывают влияние на национальную безопасность» [4, стр.9].

К ним, в частности, можно отнести:

- появление новых форм экономических преступлений, связанных с развитием частного сектора и цифровой экономики;
- усиление миграционных процессов, как внутренних, так и внешних, что может влиять на криминогенную обстановку в отдельных регионах;
- рост имущественного расслоения общества, потенциально ведущий к социальной напряженности и росту преступлений против собственности;
- трансформация традиционных социальных институтов, что может ослаблять неформальные механизмы социального контроля;
- увеличение доступа к информации и коммуникационным технологиям, создающее новые возможности для киберпреступности;
- изменение структуры занятости населения, что может временно увеличивать уровень безработицы и, как следствие, влиять на уровень преступности.

Анализ этих факторов на основе криминологической безопасности Узбекистана позволит

выявить наиболее актуальные угрозы и разработать эффективные меры по их предотвращению и минимизации негативных последствий.

Вместе с тем, актуальным вопросом сегодняшнего дня, является научно-теоретический анализ криминологической безопасности в контексте Узбекистана. В нем поднимается ряд важных вопросов, требующих глубокого исследования:

1. Концептуализация понятия «криминологическая безопасность» в условиях трансформирующегося общества. Как меняется само понимание безопасности в контексте социально-экономических реформ?

2. Теоретические модели прогнозирования криминогенной ситуации и их применимость к реалиям Узбекистана. Насколько существующие модели учитывают специфику страны?

3. Междисциплинарный подход к изучению криминологической безопасности, интегрирующий достижения социологии, психологии, экономики и права. Как обеспечить синергию различных научных дисциплин в исследовании данной проблемы?

4. Методологические проблемы оценки эффективности мер по обеспечению криминологической безопасности. Какие критерии и индикаторы наиболее релевантны для Узбекистана?

5. Теоретическое осмысление роли социальных институтов в формировании криминологической безопасности. Как трансформация традиционных институтов влияет на криминогенную обстановку?

6. Концепция «мягкой безопасности» и ее применимость в контексте криминологической безопасности Узбекистана. Каков баланс между превентивными мерами и карательными подходами?

7. Теоретические основы формирования правовой культуры и правосознания как факторов криминологической безопасности. Как учитывать культурные особенности Узбекистана в этом процессе?

Исследование этих теоретических аспектов не только обогатит научное понимание криминологической безопасности, но и создаст фундамент для разработки эффективных практических мер по ее обеспечению в условиях современного Узбекистана.

Из указанных теоретических аспектов можно сосредоточиться на анализе трех важных теоретических концепций, которые имеют особое значение для понимания криминологической безопасности Узбекистана:

1. Концепция социального контроля в криминологической безопасности. Эта концепция исследует механизмы, с помощью которых общество регулирует поведение своих членов для поддержания порядка и предотвращения преступности. Содержание данного аспекта состоит из следующих элементов:

- формальный контроль: роль правоохранительных органов, законодательства и судебной системы;
- неформальный контроль: влияние семьи, сообществ, религиозных институтов и культурных норм;
- баланс между формальным и неформальным контролем в условиях модернизации общества;
- трансформация традиционных механизмов социального контроля и их влияние на криминогенную обстановку.

Концепция социального контроля поддерживается многими учеными и специалистами.

В частности, многие криминологи считают эту концепцию фундаментальной для понимания механизмов предотвращения преступности. Например, эмпирические исследования часто подтверждают связь между сильным социальным контролем и низким уровнем преступности.

Несмотря на широкую поддержку, некоторые ученые критически подходят к основам данной теории. По их утверждению чрезмерный социальный контроль может нарушать права личности.

Более того, существует дискуссия о том, насколько эффективны традиционные механизмы контроля в современном глобализованном обществе.

2. Теория аномии¹ и её применение к анализу криминологической ситуации [3, с.87-89]. Теория аномии рассматривает, как социальные изменения и нарушение общественных норм могут приводить к росту преступности [2, с.75].

Содержательно данная теория имеет следующие направления:

- концепция аномии Эмиля Дюркгейма и её современные интерпретации;
- применимость теории аномии к ситуации в Узбекистане в период экономических реформ;
- анализ разрыва между культурными целями и институциональными средствами их достижения;
- стратегии минимизации аномии для укрепления криминологической безопасности.

Справедливо отметить, что теория аномии имеет своих сторонников. В совокупности их суждения основываются на таком содержании, как рост преступности обычно происходит в период быстрых социальных изменений. Кроме того, многие западные криминологи находят данную теорию полезной для анализа состояния преступности в постсоветских обществах.

Несмотря на это, данная теория имеет свои недостатки. Учёные обращают внимание на такие её недостатки, как чрезмерная детерминированность и не учитывающей индивидуальную особенности субъектов. Также существуют дебаты между учёными о том, насколько данная теория применима к незападным обществам.

3. Концепция ситуационного предупреждения преступности². Этот подход фокусируется на изменении условий, в которых совершаются преступления, чтобы сделать преступную деятельность менее привлекательной или более рискованной [5, с.136-137; 6, с.28]. Содержание данного аспекта состоит из следующих элементов:

- основные принципы ситуационного предупреждения преступности;
- адаптация концепции к урбанизирующейся среде Узбекистана;
- роль городского планирования и архитектуры в обеспечении криминологической безопасности;
- технологические аспекты ситуационного предупреждения (камеры наблюдения, освещение и т.д.) и их этические импликации.

Вместе с тем, большинство исследований показывает эффективность ситуационного предупреждения преступности в снижении определенных видов преступлений. Более того, данная концепция предупреждения преступности широко применяется в практике городского планирования и управления [7. с.126; 8. с.39].

¹ Аномия – состояние общества при дезорганизации социальных норм и институтов, неопределённости и нестабильности условий человеческого действия, расхождения между провозглашаемым обществом целями и доступностью для массы людей законных средств их достижения.

² Концепция ситуационного предупреждения преступности была разработана в 1970-х годах. Основными авторами этой теории считаются: Рональд В. Кларк (Ronald V. Clarke) – американский криминолог, один из основоположников теории; Патрисия Мейхью (Patricia Mayhew) – британский криминолог, работавшая вместе с Кларком.

Однако, некоторые криминологи утверждают, что этот подход лишь перемещает преступность, а не решает её коренные причины. По их мнению, существует этическая обеспокоенность относительно усиления наблюдения и контроля в общественных местах.

Несмотря на это, рассмотрение этих концепций позволит, во-первых, глубже понять теоретические основы криминологической безопасности; во-вторых, проанализировать, как эти концепции могут быть применены в контексте Узбекистана; в-третьих, выявить потенциальные направления для дальнейших исследований и разработки политики в области криминологической безопасности.

С учетом отмеченного, в обеспечении криминологической безопасности существуют следующие направления деятельности государственных органов, общественных организаций и местных органов самоуправления:

1. Махаллинская система и криминологическая безопасность:

- роль махалли (местного сообщества) в предотвращении преступности;
- эффективность традиционных механизмов социального контроля на уровне махали;
- взаимодействие махаллинских комитетов с правоохранительными органами.

2. Влияние национальной программы по сокращению бедности:

- анализ связи между реализацией программы и динамикой преступности;
- оценка эффективности мер по трудоустройству и их влияние на криминогенную обстановку;
- роль микрокредитования и поддержки предпринимательства в снижении уровня преступности.

3. Реформы в системе образования и их влияние:

- связь между повышением доступности образования и уровнем молодежной преступности;
- роль профессионального образования в предотвращении вовлечения молодежи в криминальную деятельность;
- эффективность программ по правовому воспитанию в школах и вузах.

4. Религиозный фактор и криминологическая безопасность:

- роль религиозных институтов в формировании правосознания и предотвращении преступности;
- анализ эффективности мер по противодействию религиозному экстремизму;
- баланс между свободой вероисповедания и обеспечением безопасности.

5. Влияние трудовой миграции:

- анализ криминогенной ситуации в регионах с высоким уровнем трудовой миграции;
- меры по социальной адаптации возвращающихся трудовых мигрантов;
- программы поддержки семей мигрантов и их влияние на предотвращение преступности.

6. Государственная молодежная политика:

- эффективность программ занятости молодежи в контексте предотвращения преступности;
- роль молодежных организаций в формировании правовой культуры;
- анализ влияния спортивных и культурных инициатив на снижение уровня преступности среди молодежи.

7. Цифровизация и её влияние на криминогенную обстановку:

- анализ новых видов преступлений, связанных с развитием цифровых технологий в Узбекистане;
- эффективность мер по обеспечению кибербезопасности;
- роль цифровых технологий в профилактике и раскрытии преступлений.

8. Гендерный аспект криминологической безопасности:

- анализ динамики преступлений, связанных с насилием в семье;
- эффективность мер по расширению экономических возможностей женщин и их влияние на криминогенную обстановку;
- роль женских организаций в профилактике преступности.

9. Реформа судебно-правовой системы:

- влияние либерализации уголовного законодательства на уровень преступности;
- эффективность новых механизмов альтернативного разрешения споров;
- анализ влияния мер по укреплению независимости судебной системы на криминогенную обстановку.

10. Межнациональные отношения и криминологическая безопасность:

- анализ эффективности политики межнационального согласия в контексте предотвращения конфликтов и преступлений на национальной почве;
- роль культурных центров различных национальностей в профилактике преступности.

Такой подход, основанный на реальной социальной практике Узбекистана, позволит провести более точный и релевантный анализ криминологической безопасности в стране. Он учитывает уникальные особенности социальной структуры, культурные традиции и текущие реформы, проводимые в Узбекистане.

1. Соответствие уголовной политике Узбекистана:

- гуманизация: в последние годы Узбекистан взял курс на гуманизацию уголовного законодательства. Наш подход, ориентированный на превенцию и социальный контроль, соответствует этой тенденции;
- модернизация: Узбекистан стремится модернизировать свою правовую систему. Рассмотрение современных криминологических теорий в нашем подходе соответствует этому направлению;
- акцент на профилактику: государственная политика Узбекистана уделяет большое внимание профилактике преступности. Концепция ситуационного предупреждения преступности в нашем подходе хорошо вписывается в эту стратегию;
- учет национальной специфики: необходимо учитывать, что некоторые западные теории могут требовать адаптации к реалиям Узбекистана. Наш подход должен быть дополнен анализом местных особенностей.

2. Соответствие реформ общественным интересам:

- безопасность: общество заинтересовано в снижении уровня преступности. Наш комплексный подход, охватывающий различные аспекты криминологической безопасности, отвечает этому запросу;
- сохранение традиций: рассмотрение роли неформального социального контроля учитывает важность традиционных институтов в обществе;
- модернизация без разрушения: теория аномии позволяет анализировать риски, связанные с быстрыми социальными изменениями, что важно для сохранения стабильности в период реформ;

- прозрачность и участие: общество заинтересовано в понимании и участии в обеспечении безопасности. Данный подход, предполагающий анализ различных аспектов криминологической безопасности, способствует этому.

1. Цифровизация правоохранительной системы:

- развитие системы «Безопасный город» в крупных городах. Например, в Ташкенте установлено более 125 000 камер видеонаблюдения с функцией распознавания лиц;
- создание единой электронной базы данных правонарушений, доступной всем правоохранительным органам;
- разработка мобильных приложений для быстрого реагирования на правонарушения (например, приложение «102» для вызова сотрудников органов внутренних дел).

2. Использование искусственного интеллекта:

- внедрение систем предиктивной аналитики для прогнозирования потенциальных «горячих точек» преступности в городах;
- использование алгоритмов машинного обучения для анализа больших данных в расследовании экономических преступлений.

3. Борьба с киберпреступностью:

- создание специализированного отдела по борьбе с киберпреступностью в структуре МВД;
- проведение регулярных учений по кибербезопасности для государственных служащих;
- разработка образовательных программ по цифровой грамотности для населения.

4. Профилактика преступности:

- запуск программы «Махалля без преступности», предусматривающей активное вовлечение местных сообществ в профилактику правонарушений;
- создание молодежных патрулей в сотрудничестве с Союзом молодежи Узбекистана для поддержания порядка в общественных местах.

5. Реформа пенитенциарной системы:

- внедрение электронных браслетов для осужденных, отбывающих наказание без лишения свободы;
- создание реабилитационных центров для бывших заключенных с программами профессиональной переподготовки.

6. Борьба с коррупцией:

- внедрение системы электронного декларирования доходов для государственных служащих;
- создание специальных антикоррупционных комиссий в каждом министерстве и ведомстве.

7. Международное сотрудничество:

- участие в совместных операциях Интерпола по борьбе с транснациональной преступностью;
- обмен опытом и технологиями с правоохранительными органами других стран (например, сотрудничество с Южной Кореей в сфере цифровых технологий для МВД).

8. Инновации в судебной системе:

- внедрение системы электронного судопроизводства "E-SUD" для повышения прозрачности и эффективности судебных процессов;
- создание специализированных экономических судов для рассмотрения сложных финансовых дел.

9. Работа с общественностью:

- запуск телеграм-каналов и страниц в социальных сетях правоохранительных органов для прямой коммуникации с гражданами;
- проведение регулярных «дней открытых дверей» в отделениях органов внутренних дел для повышения доверия населения.

10. Инновации в криминалистике:

- оснащение криминалистических лабораторий современным оборудованием для ДНК-анализа и других экспертиз;
- использование дронов для осмотра мест происшествий и поиска пропавших людей.

11. Профилактика экстремизма:

- развитие программ по дерадикализации молодежи с использованием психологических методик и религиозного просвещения;
- создание онлайн-платформы для мониторинга и противодействия экстремистской пропаганде в интернете.

Эти примеры показывают, что Узбекистан активно внедряет современные технологии и инновационные подходы в борьбе с преступностью, адаптируя мировой опыт к местным условиям. Однако стоит отметить, что эффективность этих мер может варьироваться, и их реальное воздействие на криминогенную обстановку требует постоянного мониторинга и оценки.

Заключение: На основе проанализированной информации о криминологической безопасности в Узбекистане можно сделать следующее заключение:

1. Комплексный подход: Узбекистан демонстрирует стремление к комплексному решению проблем криминологической безопасности, охватывая законодательные, технологические, социальные и международные аспекты;
2. Модернизация и инновации: страна активно внедряет современные технологии в правоохранительную систему, включая цифровизацию, использование искусственного интеллекта и развитие кибербезопасности;
3. Профилактический фокус: наблюдается смещение акцента с карательных мер на профилактику преступности, особенно среди молодежи и в сфере коррупции;
4. Вызовы и перспективы: несмотря на существующие проблемы (коррупция, организованная преступность, киберпреступность), намечены четкие перспективы развития, направленные на их преодоление;
5. Международная интеграция: Узбекистан стремится к углублению международного сотрудничества в сфере безопасности, что особенно важно в контексте борьбы с транснациональной преступностью;
6. Баланс безопасности и прав человека: прослеживается попытка найти баланс между обеспечением безопасности и соблюдением прав человека, особенно в контексте борьбы с экстремизмом и реформирования пенитенциарной системы;
7. Адаптация к новым реалиям: наблюдается готовность адаптировать законодательство и правоохранительные практики к новым видам преступлений, связанных с развитием технологий;
8. Социально-экономический контекст: признается важность решения социально-экономических проблем (безработица, социальное неравенство) как фактора, влияющего на криминогенную обстановку;

9. Научный подход: намечается тенденция к усилению роли научных исследований в формировании политики криминологической безопасности.

10. Долгосрочная стратегия: перспективы социально-экономического развития указывают на наличие долгосрочной стратегии по улучшению криминологической безопасности страны.

В целом, можно сделать заключение, что Узбекистан находится на пути активной модернизации своей системы криминологической безопасности. Страна сталкивается с серьезными вызовами, характерными как для развивающихся стран, так и для глобального контекста (например, киберпреступность). При этом наблюдается стремление к внедрению передовых практик и инновационных подходов. Успех этих усилий будет зависеть от последовательности в реализации намеченных планов, эффективности межведомственного взаимодействия, а также от способности адаптироваться к быстро меняющимся формам преступности. Кроме того, важным фактором будет оставаться вовлечение общества в процессы обеспечения безопасности и повышение доверия населения к правоохранительным органам.

Использованные источники

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Мирзиёева Ш. М. на видеоселекторном совещании, проведенном 27 июля 2018 году по вопросам предотвращения преступности, повышения ответственности государственных органов и общества в этой сфере.
2. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. М., 1996.
3. Плетнёв А. В. Социологические истоки преступности и их динамика в современной России. Монография. СПб: Издательство СПб университета МВД России, 2016.
4. Турсунов Б. Факторы, влияющие на национальную безопасность /Jamoat xavfsizligi. Ilmiy-amaliy jurnal. 2024. №2. –С. 9-15.
5. Clarke, R. V. (1980). "Situational Crime Prevention: Theory and Practice". British Journal of Criminology, 20(2), 136-147.
6. Clarke, R. V., & Mayhew, P. (Eds.). (1980). Designing out crime. London: HMSO.
7. Clarke, R. V. (1997). Situational Crime Prevention: Successful Case Studies (2nd ed.). Monsey, NY: Criminal Justice Press.
8. Felson, M., & Clarke, R. V. (1998). Opportunity Makes the Thief: Practical theory for crime prevention. Police Research Series, Paper 98. London: Home Office.).

KORRUPSIYA BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI

*Criminological characterization of crimes
related to corruption*



Usmanova Muborak Akmaljanovna

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası professori, yu.f.f.d., professor



Nurmuhamedova Go'zalxon Bahodirovna

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası dotsenti, yu.f.f.d., dotsent

Annotatsiya: Maqolada korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik tavsifi, ularning jamiyatga ta'siri va sabablari tahlil qilingan. Korrupsion jinoyatlarning kelib chiqish omillari, jinoyat sodir etuvchi shaxslarning psixologik xususiyatlari hamda ularga qarshi kurash choralari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, kriminologiya, jinoyat, profilaktika, jamiyat.

Abstract: The article analyzes the criminological characteristics of crimes related to corruption, their impact on society, and their causes. It discusses the factors contributing to corruption, the psychological traits of criminals, and measures to combat corruption.

Keywords: corruption, criminology, crime, prevention, society.

Korrupsiya, uning kelib chiqish sabablari, jinoyatchilarning psixologik va ijtimoiy xususiyatlari haqidagi ilmiy tadqiqotlar inson huquqlarini himoya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy choralardan tarkib topadi. Ushbu jinoyatchilikning kriminologik xususiyati o'zaro ta'sir o'tkazuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan sabablar majmuini tashkil etadi. O'z navbatida, ayrim jinoyat turlari, shu jumladan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik tavsifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ko'rib chiqilayotgan jinoyat turi va uning alohida guruhlarining holati, dinamikasi, nisbati, tarkibi, yashirinlik darajasini;

jinoyat sodir etishga sabab bo'lgan sabablar va shartlarni;

jinoyatchi shaxsning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi kriminologik xususiyatlarni;

jinoyatlarning profilaktik choralarni.

Kriminologiyada jinoyatchi shaxsini o'rganishdan asosiy maqsad – jinoyatchilikni yuzaga keltiruvchi sabab va sharoitlarni o'rganish va shu asosda jinoyatchilikning oldini olishda zarur bo'ladigan usul hamda vositalarni ilmiy jihatdan ishlab chiqish va zarur tavsiyalar berishdan iborat [1].

Kriminologiya fanida shaxsga oid xususiyatlar tizimi quyidagi tartibda belgilangan:

ijtimoiy-demografik va jinoiy-huquqiy belgilari;

ijtimoiy holatlari (ijtimoiy yashash tarzidagi yuzaga keluvchi o'zaro munosabatlar);

ma'naviy xususiyatlari.

Ushbu belgilar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turadi. Xususan, shaxsning ijtimoiy-demografik belgilari (yoshi, ma'lumoti, kasbi, yashash joyi kabilar), o'z navbatida, uning jamoatchilik hayotida tutgan o'rnini belgilashi va ma'naviy shakllanishi bilan uzviy bog'liq holda kechadi. Ma'naviy-ruhiy xususiyatlari esa uning shakllanishiga ta'sir etgan ijtimoiy holatlar qanday kechganligini ifodalaydi, qolaversa, shaxsning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini bilan bog'liq vazifalarni qanday bajarayotganligini baholashga ham imkon yaratadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, olimlar tomonidan haligacha korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar to'g'risida qat'iy belgilangan qarashlar mavjud emas. Zero, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar ham yagona bir jinoyat tarkibini tashkil etmaganidek, ushbu turdagi huquqqa xilof xatti-harakatlarni sodir etuvchilarga ham komplekslik xususiyati xosdir. Shularni inobatga olgan holda O.V.Vannovskaya korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar doirasini aniqlashtirish uchun 5 muhim xususiyatga e'tibor qaratishni taklif etgan [2]:

ma'no va qadriyatlar darajasi (hayotiy maqsadlari, intilishlari, ma'no va qadriyat yo'nalishlari).

kognitiv-axloqiy darajasi (axloqiy o'zini anglash, axloqiy xatti-harakatlarga munosabat, huquqiy ong, mas'uliyat hissi).

hissiy daraja (hayotdan qoniqish darajasi, kasbdan qoniqish darajasi, shaxsiy hayotdan mamnunlik, o'zini o'zi baholash darajasi).

tartibga solish darajasi (nazorat doirasi, qaror qabul qilish mexanizmi).

xulq-atvor darajasi (munosabatning yetakchilik darajasi).

O.A.Kuznetsova esa "har qanday jamiyatda korrupsiyaning eng xavfli namoyon bo'lishi bu – hokimiyat vakillari mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilishidir" [3] deya mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar toifasini alohida ta'kidlab o'tgan. Ushbu nuqtayi nazar bilan Kuznetsova hokimiyat vakillari tomonidan sodir etiladigan korrupsion jinoyatlarga alohida urg'u beradi. Biroq, savol tug'iladi: korrupsiya jamiyatda faqat hokimiyat vakillari tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar bilan cheklanadimi yoki boshqa turdagi shaxslar tomonidan ham sodir etilishi mumkinmi? Jamiyatdagi har qanday shaxsning korrupsiyaga moyilligi ko'plab omillarga bog'liq ekanligini inobatga olgan holda, uni chegaralash muammoli.

Korrupsioner shaxs to'g'risida Q.Mirsafayevning qarashlari ham diqqatga sazovor, ya'ni uning ta'rifiga ko'ra: «Korrupsionerning oddiy jinoyatchidan farqi, bu uning kasbiy bilimiga va muayyan vakolatga, hokimiyatga ega ekanligi, xususiyati esa – ikkiyuzlamachiligidir» [4]. Bu tafovut korrupsionerning kasbiy jinoyatchilik darajasini ko'rsatib, uning xavfliligini oshiradi. Biroq, ushbu nuqtayi nazarga ko'ra, kasbiy bilimiga ega bo'lmagan, lekin jamiyatda korrupsiyaviy tizimlarni tashkil qiluvchi shaxslar nima bo'ladi? Har qanday kasbiy vakolatga ega bo'lmagan shaxs ham jamiyatda korrupsiyaning rivojlanishiga sababchi bo'lishi mumkin, bu esa masalani yanada murakkablashtiradi.

Korrupsiyaning faqat hokimiyat va kasbiy vakolatga ega shaxslar tomonidan sodir etilishi haqidagi fikrlarni qayta ko'rib chiqish, korrupsiyaga olib keluvchi ijtimoiy va iqtisodiy omillarni ham inobatga olish zarur.

Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslarning psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish uning psixologik portretini gavdalantirishda yordam beradi. Ular uchun quyidagilar xarakterlidir: hayot mazmunini moddiy boyliklarni qo'lga kiritish orqali deb hisoblash, baxtga erishishning belgisi sifatida hashamatga intilish, hayotdan qoniqish darajasining pastligi, o'ziga bo'lgan munosabatning salbiyligi va o'z qadrini past baholashi.

Yu.M.Antonyan, V.N.Kudryavsev, V.Ye.Eminovning fikricha «korrupsioner shaxslarning quyidagi umumiy turlarini ajratish maqsadga muvofiq:

Ochko'z shaxslar toifasi. Bu toifa shaxslar birinchi galda o'z manfaatlarini, aniqrog'i moddiy ehtiyojlarini qondirishga, ularni ko'paytirishga va shaxsiy farovonligini mustahkamlashga harakat qiluvchilardir.

Obro'li va nufuzli shaxslar toifasi – o'z “men”larini iloji boricha qondirish istagida bo'lgan shaxslar. Bu turdagi shaxslar axloqiy va huquqiy tartib-qoidalarga zid ravishda bo'lsa-da, hattoki jinoiy faoliyatni sodir etish orqali bo'lsa ham doimiy ravishda shaxsiy va jamoaviy obro'sini saqlab qolishga intiladi.

O'yinchilar toifasi. Bu shaxslarning hokimiyatga intilishi faol harakatida namoyon bo'ladi. Bu toifadagi shaxslar qonunlarni buzish orqali o'zi uchun qulay sharoit va imkoniyatlarni yaratishga intiladi» [5].

Yuqoridagi olimlar tomonidan korrupsionerlarning turlarga ajratilishi juda qiziqarli, lekin bu tasnifda ham bir necha savollar tug'iladi. Ularning birinchi toifasi — ochko'z shaxslar. Bunday shaxslar asosan moddiy manfaatlarini qondirishga harakat qiladilar, ammo savol shundaki, korrupsiya faqat moddiy manfaat bilan bog'liqmi? Korrupsioner shaxslarning siyosiy yoki boshqa shaxsiy manfaatlarini ham hisobga olish zarur.

Ikkinchi toifa — obro'li va nufuzli shaxslar. Bu shaxslarning obro'sini saqlash istagi jinoiy faoliyatga olib kelishi mumkin, deb ta'kidlashar ekan, lekin buni umumlashtirish qanchalik to'g'ri? Har bir shaxsning shaxsiy va ijtimoiy sharoitlarini inobatga olgan holda, ularning harakatlarini o'lchash murakkab masala bo'lishi mumkin.

Uchinchi toifa — o'yinchilar. Bunday shaxslar o'zlari uchun qulay sharoitlar yaratishga harakat qilishadi va qonunni buzishga moyil bo'ladilar. Biroq, bu toifaning asosiy xususiyatlarini aniqlashda muammo bor: nima uchun hokimiyatga intiluvchi har bir shaxs qonunbuzarlikka moyil bo'lishi shart? Ba'zi shaxslar qonuniy yo'l bilan ham hokimiyatga erishishi mumkin.

Ushbu tasnif jamiyatdagi turli shaxslar uchun muayyan modellarni belgilaydi, ammo shaxslarning shaxsiy xususiyatlarini va ularning ijtimoiy sharoitlarini inobatga olish ham zarur.

Yuqoridagilarni inobatga olib, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifi deganda, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgan shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligi, sudning qonuniy hukmi kuchga kirgan-kirmaganligidan qat'i nazar, jinoyat sodir etish bilan bog'liq ijtimoiy-demografik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va boshqa tavsiflarning kriminologik xususiyatlari yig'indisi degan umumiy xulosaga kelishimiz mumkin.

Toshkent shahrida sodir etilgan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning qariyb yarmini, ya'ni 48,5 foizini o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyati (JK 167-moddasi) tashkil qilmoqda. O'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatlar mansabdorlik jinoyatlari (JK 205-209-moddalari, 43,2 foiz) hamda hujjatlarni qalbakilashtirish (JK 227-228-moddalari, 37,5 foiz) bilan birgalikda sodir etilgan.

Toshkent shahrida sodir etilgan mansabdorlik jinoyatlari jami jinoyatlarning 35,1 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichning alohida jinoyatlar bo'yicha nisbati quyidagicha, ya'ni hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (JK 205-m.) – 7,1 foiz, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga

chiqish (JK 206-m.) – 2,4 foiz, mansabga sovuqqonlik bilan qarash (JK 207-m.) – 2,7 foiz, hokimiyat harakatsizligi (JK 208-m.) – 1,4 foiz va mansab soxtakorligi (JK 209-m.) – 21,5 foizni tashkil qilgan.

Poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlar jami jinoyatlarning 10,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, shundan pora olish (JK 210-m.) – 5,6 foiz, pora berish (JK 211-m.) – 3,4 foiz, pora olish-berishda vositachilik qilish (JK 212-m.) – 1,3 foizni tashkil qilgan.

Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi (JK 214-m.) jami jinoyatlarning 2 foizni tashkil etmoqda.

JKning 1929-11-moddalari – tijoratda pora evaziga og'dirib olish, nodavlat notijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish, nodavlat notijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish – jami jinoyatlarning 3,7 foizni tashkil etgan [6].

Yuqorida keltirilgan tahlillar natijalariga ko'ra, korrupsion jinoyatchilarni quyidagi to'rt mustaqil guruhga bo'lish mumkin:

- korruptsiya-talon-toraj qiluvchi (48,5 foiz);
- korruptsiya-mansabini suiiste'mol qiluvchi (35,1 foiz);
- korruptsiya-pora oluvchi (5,6 foiz);
- korruptsiya-pora beruvchi (3,4 foiz).

Toshkent shahrida korruptsiya bilan bog'liq jinoyat sodir etgan shaxslarning kriminologik tahlili o'rganilganda, ularning 77 foizi erkak jinsiga mansub shaxslar tomonidan, 23 foizi ayollar tomonidan sodir etilgan [6].

Demak, tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar asosan erkaklar tomonidan sodir etilgan ekan.

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy, ayollar tomonidan mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etilish ko'rsatkichining pastligi nima bilan izohlanadi? Qator farazlar va amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida buning sababi quyidagilar degan fikrga kelindi:

- mansab lavozimlarida asosan erkak jinsi vakillarining ko'pligi;
- ayollarda qonunni buzish moyillikning pastligi;
- oilani boqish majburiyatiga ega emasligi;
- oylik maoshining pastligi ayolning maqomiga salbiy ta'sir etmasligi.

Ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning oilaviy ahvoliga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning 87,3 foizini oilali, 6,4 foizini ajrashgan va 6,3 foizini bo'ydoq, turmushga chiqmaganlar tashkil etadi [6].

Ma'lumotiga ko'ra, ushbu turdagi jinoyatchilarning 64,3 foizi – oliy ma'lumotli (mansab lavozimi talabidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, tabiiy hol), 20,5 foizi – o'rta-maxsus ma'lumotli va 15,2 foizi – o'rta ma'lumotlilar tomonidan sodir etilgan. Shunisi qiziqki, mazkur o'rta ma'lumotli shaxslarning 44,3 foizi mansab lavozimlarida xizmat qilishgan (MCHJ direktorlari) [6].

Demak, o'zgalar mulkini talon-toraj qilishda ishtirok etgan shaxslar tarkibida ma'lumotli shaxslar soni yuqori va jinoyatning sodir etilishida shaxsning ma'naviy jihatlarini uning ma'lumoti belgilaydi deyishga asos yo'q, deb hisoblash mumkin. Buning yuzaga kelishi jinoiy qilmishni sodir etish usuli bilan bog'liq ekanligini e'tiborga olish lozim. Oliy ma'lumotli shaxslar sodir etadigan jinoiy qilmishlarning puxta amalga oshirilishi, har bir vaziyatning aniq hisobga olinishi, zarur aloqalar va ishtirokchilarni tanlash, ular bajaradigan vazifalarning aniq qo'yilishi kabilar bilan ham e'tiborlidir.

Sudlanganlik holatiga ko'ra qaraydigan bo'lsak, korrupsiya bilan bog'liq jinoyat sodir etganlarning 69 foizi muqaddam sudlanmagan shaxslar bo'lib, bu ham ularning xizmat talablari bilan bog'liq. Jinoyat sodir etganlarning 31 foizini muqaddam sudlanganlar tashkil etadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, sudlanganlarning 49,5 foizi aynan muqaddam o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish jinoyati (JK 167-m.) bilan; 57,1 foizi mansabdorlik jinoyatlari (JK 205-209-m.), poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlar (JK 210-212-m.) – 10,1 foizi, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi (JK 214-m.) – 2,2 foiz va 1,9 foizi – nodavlat notijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish (JK 19211-m.) bilan sudlangan [6].

Har bir jinoyatni kriminologiya nuqtayi nazaridan tahlil etishda jinoyatchining yoshini e'tiborga olish katta ahamiyatga ega. Chunki shaxsning yoshi va ijtimoiy-ruhiy holatlarini aniqlash orqali u sodir etishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning vaqtida oldini olish choralarini ko'rish imkoniyati yuzaga keladi.

Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning yoshi jihatdan tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda, ya'ni jinoyatlar asosan 36-40 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan, ular jami shaxslarning 21,5 foizini tashkil etadi.

E'tiborlisi shundaki, ikkinchi o'rinda tahlil qilinayotgan jinoyatni sodir etgan shaxslarning 18,2 foizini 56 va undan yuqori yoshdagi shaxslar egallaydi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ularning ko'pchiligi bugungi kunda nafaqada, jinoyatlar esa bir necha yillar ilgari, ular xizmat faoliyatini olib borish davrlarida sodir etilgan.

31-35 yoshdagi shaxslar jami ulushning 17,2 foizini tashkil etsa, 41-45 yoshdagilar 12,1 foizni tashkil etmoqda, 46-50 yoshdagilar 11,7 foizni, 51-55 yoshdagilar esa 11,45 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar orasida 26-30 yoshdagilar 7,2 foizni hamda 20-25 yoshdagilar 0,6 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, endi xizmatga kirishgan yoshlarning hali mansab lavozimlarini egallamaganligi bilan izohlanishi mumkin.

Ma'lumki, jinoyatchilik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, har doim uning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratuvchi nimadir bo'ladi. Kriminolog olimlar jinoyatchilikning paydo bo'lishi nafaqat qator sabablarga, balki qulay sharoitlarga ham bog'liq deb hisoblashadi. Jinoyatchilikning vujudga keltiruvchi sabab va sharoitlar umumiy "kriminogen omil (determinant)" tushunchasi bilan birlashtiriladi. Jinoyatchilikning determinantlari uning paydo bo'lishiga yordam beruvchi sabab va sharoitlar hisoblanadi [7].

Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng to'g'ri va samarali yo'li jamiyatda korrupsiyaning paydo bo'lishiga imkoniyat yaratayotgan shart-sharoit va omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf qilishdir.

Korrupsiyani vujudga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni o'rganish yo'li bilangina uni kamaytirish va cheklash bo'yicha muayyan chora-tadbirlarni belgilash va ishlab chiqish mumkin.

Kriminolog olimlarning fikrlariga ko'ra jinoyatchilik sabablari jinoyatlarning sodir etilishini taqozo qiladigan, ularni oziqlantiradigan, ko'payishini ta'minlaydigan hodisa, voqea va jarayonlar yig'indisi [8]. Qolaversa, shaxs tabiatida bo'ladigan g'arazgo'ylik, ruju qo'yish, birovlar hisobiga yashash, millatchilik, jamiyatda mavjud huquq va odat normalariga rioya etmaslik kabi holatlar ham jinoyatchilikning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatadi.

Jinoyatchilikning sharoitlari esa jinoyatlarni bevosita keltirib chiqarmaydigan, lekin ularning sodir etilishiga ko'maklashadigan hodisa, voqea va jarayonlar majmui hisoblanadi [8].

Jinoyatning sodir etilishida muhim rol o'ynaydigan sabab va sharoit o'zaro chambarchas bog'liqdir, bu holat jinoyat huquqida "kriminogen-determinant" deb nomlanadi. Zotan, har qanday

sharoitning o'zi jinoyatchilik va jinoyatni yuzaga keltirmaydi. Sharoit mavjud bo'lgan holda biror-bir jinoyatchilik sababsiz sodir bo'lmaydi. Sabab, o'z mazmuniga ko'ra, ijtimoiy-psixologik holat bo'lsa, sharoit iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan yuzaga keluvchi holat hisoblanadi [1].

I. Ismailov va boshqalar korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning determinantlarini shartli ravishda uch guruhga: iqtisodiy-ijtimoiy omillar; ma'naviy-ruhiy omillar; tashkiliy boshqaruv va huquqiy omillarga [9] ajratishgan. Shuningdek, R.R. Gazimzyanov korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning asosiy determinantlariga quyidagilarni kiritgan:

1) huquqiy, 2) tashkiliy-boshqaruv; 3) tarbiyaviy; 4) mafkuraviy; 5) ijtimoiy-iqtisodiy; 6) axloqiy-psixologik; 7) ijtimoiy-siyosiy va boshqalar [10].

I. Ismailov va boshqa olimlar tomonidan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning determinantlarini turli omillar orqali tasniflash muhim ilmiy asoslarga ega. Ular iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-ruhiy va tashkiliy boshqaruv va huquqiy omillarni korrupsiyaning asosiy sabablari sifatida ajratib ko'rsatadilar. Bu tasnifdan ko'rinib turibdiki, korrupsiyaning sabablari keng va ko'pqirralidir va uning tarqalishi faqat bitta omilga bog'liq emas. R.R. Gazimzyanov esa bu determinantlarni yanada kengaytirib, huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, tarbiyaviy va mafkuraviy omillarni ham korrupsiyaning tarqalishidagi asosiy sabablar sifatida ta'kidlaydi. Bularning har biri jamiyatdagi turli mexanizmlar orqali ta'sir qiladi va korrupsion muhitni yaratadi. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy-psixologik omillar shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari va qo'rquvlari orqali korrupsiyaga moyilligini oshirsa, ijtimoiy-siyosiy omillar mamlakatdagi siyosiy vaziyat va davlat apparatining ustidan nazoratning kamligi natijasida korrupsiyaga yo'l ochishi mumkin.

Boshqa bir guruh mualliflar korrupsiyaga yo'l ochadigan omillar sirasiga hokimiyat organlari tizimining murakkabligi, buyruqbozlik taomillarining ko'pligi, davlat hokimiyati organlari apparatining faoliyati ustidan tashqi va ichki nazoratning yo'qligi kabi holatlarni kiritadilar. Tashkiliy tushunmovchiliklarni fuqarolarning korrupsion xulq-atvorini rag'batlantirishdan farqlash ba'zan juda qiyin kechadi. Taqiqlar, ruxsat berish taomillari sonining haddan tashqari ko'pligi, davlat hokimiyati organlari faoliyatiga jalb qilingan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish mexanizmi va huquqiy asoslarining yo'qligi ham korrupsiyaga yo'l ochadi [11].

A.A. Zvyaginining fikricha, mamlakatda mustaqil iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar xatti-harakatlari ustidan davlat boshqaruv organlarining ortiqcha nazoratining mavjudligi – davlat xizmatchilariga o'z manfaatini ko'zlab mansabini suiiste'mol qilishi uchun sharoit yaratadi. Holbuki, bu fikr to'g'ri, chunki "iqtisodiyotni erkinlashtirish" va "xususiy sektorda davlat nazoratini qisqartirish" bozor iqtisodiyotining asosiy qonuniyatlaridan biri hisoblanadi [12]. A.A. Zvyagin e'tirof etganidek, mustaqil iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar ustidan davlatning ortiqcha nazorati korrupsiya uchun sharoit yaratadi. Bu fikr bozor iqtisodiyoti qonunlariga muvofiq, iqtisodiyotni erkinlashtirish va davlat nazoratini qisqartirish korrupsiyani kamaytirishning muhim yo'llaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

V.V. Merkurishin bugungi kunda korrupsiyaning sodir etilishiga imkoniyat yaratayotgan asosiy shart-sharoitlar deb quyidagilarni sanab o'tgan:

- davlat boshqaruv organlari ustidan jamoatchilik nazoratining susayganligi;
- davlat boshqaruv organlarida byurokratik tuzumga xos salbiy illatlarning saqlanib qolishi;
- o'tish davrida duch kelingan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning to'liq hal qilinmay qolib ketishi [13].

M. Djonstonning ta'kidlashicha, korrupsiyaning jamiyatda mavjud bo'lishi quyidagi muammolarning belgisidir:

- jamiyatda iqtisodiy inqirozlarning yuz berishi;

– muayyan huquqlar va mulkchilik huquqlarini kafolatlovchi qonuniy mexanizmlarning mukammal emasligi;

- jamiyatda ijtimoiy aloqadorlik va tabiiy raqobat mexanizmining sustligi;
- milliy belgilariga asosan bo'linishlar va etnik ziddiyatlar;
- siyosiy jarayonlarda aholi ishtirokining faol emasligi;
- fuqarolik huquqlarining sust himoyalanganligi, yopiq iqtisodiy va siyosiy tizim[14].

Shuningdek, Sh.Qobilov va N.Abdullajonov korrupsiyaning sabablarini obyektiv va subyektiv bo'lishiga e'tibor qaratish lozim deb hisoblashadi. Ular orasida qonunchilikning nomukammalligi, demokratik prinsiplar va institutlarning rivojlanmaganligi, davlatning kuchsizligi kabilarni keltirib o'tishadi[15].

Shu bilan birga, o'tkazilgan ijtimoiy so'rov orqali aholining ushbu turdagi jinoyatlarning sodir etilish sabablariga doir fikrlari o'rganilgan. Jumladan, "Respublikada korrupsiyaning paydo bo'lishida sabab nima deb o'ylaysiz?" degan savolga, respondentlarning 21 foizi iqtisodiy (masalan, mukofotlanishning past darajasi, ijtimoiy himoya institutlarining amalga oshirilishi mexanizmining shakllanmaganligi) deya javob bergan, shuningdek, mansabdor shaxslar faoliyatining ochiq va shaffof emasligi – 18 foiz, huquqiy madaniyatning pastligi – 16 foiz, mansab qoidabuzarliklari uchun javobgarlik choralarining qo'llanilmasligi – 15 foiz, mansabdor shaxslar faoliyatining tartibga solinish darajasining pastligi – 14 foiz, jamoatchilik nazorati institutining shakllanmaganligi – 9 foiz va ichki nazoratning kuchsizligi – 7 foiz deb hisoblashgan.

Jinoyatchilik, shu jumladan korrupsiya muammosiga doir maxsus kriminologik adabiyotlar tahlili korrupsiyani o'zining tabiiy mahsuli sifatida belgilovchi sabablar va shart-sharoitlar (omillar)ning ayrim guruhlarini qayd etish imkonini beradi. Ijtimoiy hayot mazmuni yoki sohalariga ko'ra bunday omillar qatoriga huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, tarbiyaviy, mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sabablar va shart-sharoitlar kiradi [16]. Mazkur sabab va shart-sharoitlarni V.N.Kudryavsev va V.Ye.Eminov [17], M.S.Strelnikov [7], T.N.Timina [18], R.R.Gazimzyanov [10] lar ham o'z tadqiqot ishlarida ilgari surib, ilmiy asoslantirib berishgan.

O.A.Kuznetsova olib borgan tadqiqot ishlari xulosasiga ko'ra, quyidagilarni korrupsiyaning sabablari va sharoitlari sifatida ko'rsatgan: davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlaridagi tashkiliy-boshqaruv tizimining takomillashmaganligi, xodimlarda mansab vakolatidan kelib chiqib tamagirlik, o'z manfaatini ko'zlash kabi psixologik xususiyatning mavjudligi [3].

O'zbekistonlik olim M.Sobirovning fikricha, agar davlat boshqaruv organlarining xususiy sektordagi ijtimoiy va iqtisodiy sohalariga aralashuvi va ularning ishtiroki davom etaversa, korrupsiyaning mavjudligi ham davom etaveradi [19].

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan davlat nazoratini qisqartirib borish hamda mansabdor shaxslarning mas'uliyati va javobgarligini yanada oshirish korrupsiya sabablarini kamaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Kriminologiya: Darslik. / Professor Z.S. Zaripovning umumiy tahriri ostida. T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – B. 67.
2. Ванновская О.В. Личностные детерминанты коррупционного поведения // Журнал Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена, 2009. – №102. – С.323-324. // file:///c:/journal/n\
3. Кузнецова О.А. Коррупционная деятельность: криминологический и уголовно-правовой аспекты: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Тамбов. 2007. – 24 с.
4. Мирсафаев К. Коррупцияга карши кураш – унга токатсизликдан бошланади // Юрист ахборотномаси/ Вестник юриста/Lawyer herald. – 2019. – №1. – 24-б.
5. Антонян Ю. М., Кудрявцев В. Н., Эминов В. Е. Личность преступника. – СПб., 2004. – С. 11.
6. Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi tomonidan 03.07.2019-yil 22/1-2363-sonli so'rovnomasida asosida taqdim etilgan sud hukmlari tahlili.
7. Стрельников М. С. Детерминанты преступности коррупционной направленности // Молодой ученый. – 2016. – №14. – С. 472-474. – URL <https://moluch.ru/archive/118/32831/> (дата обращения: 03.06.2019).
8. Ismoilov I. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / I.Ismoilov, Q.R.Abdurasulova, I.Yu.Fozilov; Mas'ul muharrir Sh.T.Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 90-b
9. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi: O'quv qo'llanma / I.Ismoilov, J.S.Muxtorov, S.B.Xo'jaqulov; mas'ul muharrir yu.f.d., prof. Q.R.Abdurasulova. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 9-b.
10. Газимзянов Р.Р. Коррупционная преступность в Республике Татарстан на рубеже веков (криминологическое исследование); Автореф. дис. ... канд.юрид.наук. – Нижний Новгород, 2005. – С. 32.
11. Zufarov R.A., Axrarov B.J., Mirzayev U.M. Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik: Monografiya //Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambayev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2011. – B. 154.
12. Звягин А.А. Факторы роста коррупции и теневой экономики / Центр проблемного анализа и государственно-управленческого проектирования. – М., 2001. – С.34
13. Меркуришин В.В. Борьба с транснациональной преступностью. – М.: Амалфея, 2003. – С.208.
14. Johnston M. What Can Be Done about entrenched Corruption? // Annual Bank Conference on Development Economics. The World Bank. Washington, D.C., 1997.
15. Qobilov Sh.R., Abdullajonov N.B. Korrupsiya va xavfsizlik. – T., 2006. – 5-b.
16. Алауханов Е.О., Турсынбаев Д.Е. Борьба с коррупцией в государственных органах Республики Казахстан: Учебное пособие / Под ред. Е.О.Алауханова. – Алматы: КазАТК, 2008. – С. 182-187.
17. Кудрявцев В. Н., Эминов В. Е. Криминология: Учебник. 5-е издание. – М., 2013. – С. 53.
18. Тимина Т. Н. Факторы совершения преступлений коррупционной направленности // Криминология: вчера, сегодня, завтра. – 2011. – № 4. – С. 64–69.
19. Sobirov M. Iqtisodiy jinoyatchilikning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ijtimoiy-kriminologik jihatlari: Yurid. fan. d-ri ... dis. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2002. – B. 45.

KRIMINOLOGIYADA VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKANING O'RNI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Role, goals and tasks of victimological prevention in criminology



Niyozova Salomat Saparovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish” kafedrası professori, yuridik fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada kriminologiyada viktimologik profilaktikaning o'rni, maqsad va vazifalari bilan bog'liq masalalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada olimlarning viktimologik profilaktika tushunchasi yuzasidan fikrlari o'rganib chiqilib, muallifning “viktimologik profilaktika” tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilgan.

Kalit so'zlar: Viktimologiya, viktim, viktim-kriminallashish, jabrlanuvchi, jinoyat, oldini olish, profilaktika, umumiy, maxsus, yakka tartibda.

Abstract: This article describes the role, goals and tasks of victimological prevention in criminology. Also, the article examines the opinions of scientists regarding the concept of victimological prevention, and the author's definition of the concept of "victimological prevention" is given.

Key words: Victimology, victim, victim-criminalization, victim, crime, prevention, prevention, general, special, individual.

Bizga ma'lumki, viktimologik profilaktika jabrlanuvchilarning harakati tufayli paydo bo'lgan alohida viktim-kriminallashishning, masalan, nomusga tegish, qasddan odam o'ldirish, badanga tan jarohati yetkazish kabi jinoyatlar qayta sodir etilishining oldini oladi. Ya'ni, viktimologik profilaktika jinoyat jabrlanuvchilarini aniqlash, sabablarini o'rganish va jabrlanuvchi bo'lib qolishlarining oldini olishga doir choralar tizimidan iborat.

Jinoyatlar viktimligining oldini olish ham nazariy va ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, uning dolzarbligini quyidagilarda ko'ramiz: birinchidan, bugungi kunda sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish masalasi qonun hujjati bilan belgilab berilganiga qaramay, jinoyatlardan jabr ko'rgan shaxslar haqida to'g'ri va to'liq ma'lumotga ega bo'lish imkoni bo'lmayapti. Chunki, bunda jabrlanuvchilarni statistik hisobga olish va to'liq tavsiflash uchun yetarlicha baza mavjud emas. Shundan kelib chiqib, jabrlanuvchilarni statistik hisobga olish va to'liq tavsiflash bazasini shakllantirishga doir taklif-tavsiyalar berish;

ikkinchidan, sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda jabrlanuvchining jinoyat sodir bo'lishdan oldingi, sodir bo'lish vaqtida va undan keyingi xulq-atvori, uning holatini viktimologik jihatdan tahlil etish lozimligi;

uchinchidan, davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda fuqarolarning alohida turdagi jinoyatlardan jabrlanuvchi bo'lib qolishlarining oldini olishga qaratilgan dasturlar va maqsadli tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning yetarli emasligi;

to'rtinchidan, sodir etiladigan jinoyatlardan jabrlanuvchilarga yetkaziladigan moddiy, ma'naviy zararining qoplanishi, ularga ijtimoiy yordam berishning yetarlicha huquqiy tizimi yaratilmaganligi;

beshinchidan, fuqarolarda jinoyat jabrlanuvchisiga aylanib qolishlariga qarshi ma'lum bir chora-tadbirlar ko'rish bo'yicha fikrlar shakllanmaganligi;

oltinchidan, alohida turdagi jinoyatlar viktimgilining umumijtimoiy, maxsus va individual profilaktikasi kabi masalalar ilmiy va nazariy jihatdan yoritib berilmaganligidir.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" [1] gi qonunining 43-moddasida "Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanish xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyati huquqbuzarliklarning viktimgologik profilaktiksidir", deb qayd etilgan.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklarning viktimgologik profilaktikasi tushunchasi ilk bor mazkur Qonunda o'z aksini topgan bo'lsa-da, bunga qadar bir qator mahalliy tadqiqotchilar tomonidan viktimgologik profilaktika yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, Q.R. Abdurasulova, I.U. Ismailov, J.S. Muxtorov, S.B. Xo'jaqulov, D.R. To'rayeva, Sh.K. Giyasov [2] va boshqalar viktimgologik profilaktika borasida o'z ilmiy farazlarini ilgari surishgan.

O'rganilgan ilmiy ishlarda huquqbuzarliklarning viktimgologik profilaktikasida ko'zga tashlanayotgan muammolar va jabrlanuvchilarning jinoyat qurboni bo'lib qolishlarining oldini olish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Jumladan, S.V. Nadtoqa o'z tadqiqotida viktimgologik profilaktikaning axborot bazasini yaratish lozimligini, amaliyotda bunday tizim mavjud emasligini, huquq-tartibot organlari o'rtasida o'zaro jabrlanuvchilarning hisobotini yuritish tizimini tashkil etish va uning yagona bazasini yuritishni ichki ishlar organlariga yuklashni taklif etgan [3, 132-b.].

Shuningdek, A.B.Kodzov viktimglik holatlarini o'rganish jarayonida jinoyatlardan jabrlanganlarga ijtimoiy va moddiy jihatdan yordam ko'rsatish, ularga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarini qoplash masalasida jamg'arib boriluvchi fond tashkil qilishni taklif etadi va bu fondning sarf qilinadigan mablag'larini, avvalo, jinoyatchining moddiy qimmatliklarini xatlash orqali amalga oshirishni ta'kidlaydi.

Yuqoridagilardan tashqari, A.B.Kodzov OAV qurol bilan sodir etiladigan jinoyatlarning viktimgologik profilaktika qilishda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozimligini ta'kidlaydi va bunda asosan aholiga oxirgi zarurat va zaruriy mudofaa usullarini qo'llashni va ularning tajovuzdan farqli jihatlarini, qaysi holatlarda qo'llash mumkinligi to'g'risida va kurash usullari haqida xabardor qilib borishlarini taklif etadi [4, 120-b.].

Olimlarning "viktimgologik profilaktika" tushunchasi borasidagi fikrlari o'rganilganda, ularning yondashuvlari har xil ekanligi kuzatiladi.

L.Yu.Sherbakovaning fikriga ko'ra, viktimgologik profilaktika shaxslarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini turli jinoyatlardan jabrlanishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi. U mazkur faoliyatni amalga oshirishda shaxslarning intellektual, jismoniy qobiliyatlaridan, shuningdek moddiy, texnik imkoniyatlaridan jinoyatchiga qarshi turish uchun foydalanish muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi [5, 13-b.].

V.I.Zadorojnyy "viktinologiya" tushunchasini tor ma'noda kriminologik viktinologiya, ya'ni faqat jinoyatlardan jabrlanganlarning xususiyatlarini o'rganadi, deb ta'riflagan [6, 66-b.].

S.B.Xo'jaqulov O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuniga asosan profilaktikaning bir turi sifatida viktinologik profilaktikani qayd etmaydi, balki bu umumiy, maxsus va yakka tartibdagi profilaktika bilan birga olib boriladi va ularning har birida viktinologik jihatlari bor, deb ta'kidlaydi. Shuningdek, viktinologik profilaktikaning yuqorida ko'rsatilgan ushbu turlari bo'lmagan taqdirda olib borib bo'lmashligini ko'rsatib o'tgan [7, 34-39-b.].

Ye.O.Alauxanov esa, kriminologik profilaktika va viktinologik profilaktika o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib bergan va kriminologik profilaktika asosan jinoyatchiga qaratilgan bo'lishi, viktinologik profilaktika esa, jabrlanuvchiga yo'naltirilgan holda amalga oshirilishini, shuningdek viktinologik profilaktikani ikkita, ya'ni umumiy va maxsus (yakka) tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Unning fikriga ko'ra, umumiy viktinologik profilaktika choralari viktinogen omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan bo'ladi. Maxsus (yakka) tartibdagi viktinologik profilaktikani esa, viktinligi yuqori bo'lgan shaxsni aniqlash va u bilan tarbiyaviy chora-tadbirlarni o'tkazish, uning jinoyatdan jabrlanib qolish xavfini kamaytirishdan iborat chora-tadbirlar tizimini tashkil etadi [8, 57-59-b.].

Viktinologik profilaktika murakkab tuzilishga ega bo'lib, turli subyektlar tomonidan amalga oshirilib, turli bosqich, turli shakl va ko'rinishlarda, turli obyektlarga nisbatan, shuningdek dastlabki va bevosita bosqichlarda viktin xulq-atvor va shaxsiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi [9, 76-b.].

Taqdim etilgan viktinologik profilaktikaning yo'nalishlari aniq va tushunarli, biroq viktinologik xavfi yuqori bo'lgan guruh va shaxslarni aniqlashtirish bo'yicha maxsus metodikasiz viktinologik profilaktikani olib borish murakkabdir [10, 49-51-b.].

Viktinologik profilaktika jinoyatchilikning oldini olishdagi yo'nalishlardan biridir. Bu ijtimoiy institutlarning jinoyat sodir etilishiga shart-sharoit yaratuvchi va viktin axloqni shakllantiruvchi omillarni, holatlarni, vaziyatlarni aniqlash, bartaraf etish va neytrallashtirishga qaratilgan spetsifik faoliyatdir [11, 238-b.].

An'anaviy tarzda quyidagi viktinologik profilaktika turlari ajratiladi (jinoyatchilik profilaktikasiga o'xshash tarzda): umumiy viktinologik profilaktika; individual viktinologik profilaktika; turdosh viktinologik profilaktika (alohida turdagi jinoyat qurbonlari bo'yicha); kechiktirib bo'lmaydigan viktinologik profilaktika (aniq sodir etilgan jinoyatlar va tayyorlanayotgan jinoyatlarga qarshi kurash) [12, 112-117-b.].

Viktinologik profilaktika maxsus va umumiy jihatlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish darajasida olib boriladi. Shu o'rinda biz zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlardan jabrlanuvchi bo'lib qolishning oldini olishning maqsad va vazifalariga doir masalaga to'xtalib o'tamiz.

Sodir etiladigan jinoyatlar viktinologik profilaktikaning maxsus darajada olib borilishi jinoyat jabrlanuvchilarining xulq-atvorini, jinoyatchida huquqqa xilof niyatning vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil sifatida o'rganiladi. Umumiy darajada o'rganish esa, viktin xulqning qonuniyati va sabablarini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, viktinologik profilaktikaning umumiy va maxsus choralarni ko'rishda jinoyat sodir etish vaqtida jabrlanuvchining roli ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) o'sha paytdagi jabrlanuvchining holati (mast bo'lishi, jismoniy va ruhiy kamchiligi); b) o'zining sha'ni, qadr-qimmati, mulkining muhofazasiga e'tiborsizligi, yengiltaklik (asosan, o'g'irlik, nomusga

tegish jinoyatlarining sodir etilishiga sabab bo'ladi); v) oldin sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermaslik; g) noqonuniy bitimlar tuzish (firibgarlik, poraxo'rlik jinoyatlari kelib chiqishiga sabab bo'ladi); d) jamoat tartibi qoidalariga rioya etmaslik (bezorilik, avtotransport jinoyatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi).

Viktimologiyaga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jabrlanuvchilarning viktim xulqi va xatti-harakatlari ayrim jinoyatlarning latentlik darajasini oshirishga sabab bo'ladi. Chunki jabrlanuvchilar o'z xarakterlari va tushgan holatlariga ko'ra, jinoyat to'g'risida xabar berishni lozim topishmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, latentlik darajasi o'z-o'zidan oshib boraveradi.

Viktimologik profilaktikaning maqsadi jabrlanuvchilarni jinoyatdan ogohlantirish, ularning huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishdan iboratdir. Bu borada har qanday shaxsga nisbatan tajovuz bo'lganda, uni himoya qiladigan sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar borligini uqtirish lozim.

Viktimologik profilaktikaning maqsadi shaxsni jinoiy xavfdan ogohlantiradi va uni o'z xulq-atvorini o'zgartirishga undaydi, uning jinoyatdan jabrdiyda bo'lish xavfini kamaytirishga qaratiladi. Profilaktik chora-tadbirlar shaxsni jinoiy hujumdan himoyalaniishga, o'zgalarning xatolaridan saboq olishga chorlaydi. Kishi qanchalik kriminologik muhitda o'zini tuta olsa, uning jabrlanuvchiga aylanish xavfi shuncha kamayadi.

Bo'lg'usi jinoyatchi va uning jabrlanuvchisi bir-biridan ruhiy holati, xarakteri, qiziqishi, ehtiyoji bo'yicha tubdan farq qiladi. Huquqbuzarlik sodir etganlar va jabrlanuvchilarning xulqi, odobi, axloqi, ma'lumoti, ma'naviyati, ruhiy holati kabi shaxsini belgilovchi ko'rsatkichlari ko'pincha bir-biriga yaqin hisoblanadi [13, 341–342-b.]. Salbiy xulq-atvorli, ma'lumot darajasi, ma'naviyati past, ijtimoiy-ruhiy holati buzilgan odamlar o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida jinoyat qurboni bo'lish xavfi mavjud bo'lsa-da, o'z qilmishlarini davom ettiraveradilar. Tabiiyki, bunday kishilar turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklar, jumladan, jinoyat sodir etish bilan birga, aksariyat hollarda jabrlanuvchiga ham aylanib qoladilar.

Masalan, qasddan odam o'ldirish jinoyati jabrdiydalarining 48,9 foizi, qasddan badanga shikast yetkazilganlarning 50 foizdan ortig'i va zo'rlik ishlatib nomusiga tajovuz qilingan ayollarning 49 foizi o'zlarining salbiy xulqlari, ya'ni haqoratlash, tuhmat qilish, yengiltaklik, ichkilikbozlik kabi qilmishlari bilan o'zlariga nisbatan jinoiy tajovuzlar sodir etilishiga sababchi bo'lganlar yoki bunday jinoyatlar sodir etilishiga qulay shart-sharoit yaratib berganlar [14, 48–52-b.]. Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi bo'lishga moyil shaxs xulqining salbiy yo'nalish kasb etishi uning ijtimoiy-ruhiy, psixofiziologik xislatlari muayyan hayotiy vaziyat bilan aloqada bo'lgandagina vujudga keladi. Shuning uchun viktimologiya nafaqat shaxslarning viktimlik darajasini, balki viktimogen xususiyatga ega vaziyatni ham o'rganadi. Viktimogen vaziyat huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi bo'lishga moyil shaxsning muayyan xislatlari va xulq-atvori bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan aniq hayotiy vaziyat bo'lib, unda jabrlanuvchiga huquqbuzarlik yoki jinoiy yo'l bilan jismoniy, mulkiy yoki ma'naviy zarar yetkazilish uchun paydo bo'ladigan imkoniyat hisoblanadi [15, 348-b.].

Viktimologik profilaktika subyektlari jabrlanuvchi bo'lish ehtimoli bo'lgan shaxslarni ogohlantirar ekan, bunda jabrlanuvchi shaxsini va u duch kelgan holatlarni o'rganishni taqozo etadi.

Ayrim xorijiy davlatlar kriminologlari shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar viktimologiyasi va uning profilaktikasini o'rganish zarurligini isbotlash uchun quyidagi fikrlarni keltiradilar: birinchidan, umumiy jinoyatchilik soni kamayishi barobarida, shaxsga qarshi jinoyatlar, jumladan, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar kamayish tendensiyasiga ega emas, chunki tegishli jinoyatlar viktimligini pasaytirish uchun tizimli choralar ko'rilmaydi; ikkinchidan, jinoyatlar ichida

shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlardan jabrlanganlar ko'pchilikni tashkil etadi; uchinchidan, ushbu jinoyatlar natijasida shaxslar nafaqat jismoniy, balki mulkiy zarar ham ko'radilar; to'rtinchidan, kriminal viktimlikni kamaytirish borasida chora ko'rgan davlatlarda viktim jinoyatlar soni keskin ravishda pasaygan (Finlyandiya, Italiya, Buyuk Britaniya) [16, 79–108-b.].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, viktimologik profilaktikaning asosiy maqsadi jinoyat jabrlanuvchilariga bevosita ta'sir ko'rsatish orqali aniq jinoyatlarning oldini olish samaradorligini oshirish va jinoyatlardan jabr ko'rishga to'sqinlik qilishdir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi, unga ko'ra, "jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi jinoyatlar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlarning turli ko'rinishdagi jinoyatlardan jabrlanib qolishlarining oldini olish hamda ularning viktimlik darajasini kamaytirish, jabrlanuvchilari bo'lib qolishga moyilligi va unga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida amalga oshiradigan faoliyatdir".

Shaxsning viktimologik tavsifi va jabrlanuvchining xulqini o'rganish aholini turli jinoiy tajovuzlardan o'zini saqlash va himoya qilish hamda tegishli tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarurdir. Bu tavsiyalar quyidagilarda o'z ifodasini topmog'i lozim: a) aholining muayyan kontingentiga ularning yoshi, jinsi, yashaydigan joyining xususiyati, kasb faoliyati, turmushdagi yashash tarzi va boshqa holatlarga qarab ularning shaxsiy xavfsizligini yuqori darajada ta'minlaydigan qoidalarni tushuntirish; b) shaxslarga turli tajovuzlardan himoya qilish qoidalarini o'rgatish; v) jinoyatchilar bilan yuzma-yuz kelganda muayyan harakatlar qilish usullarini, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish tartibi, ularning joylashgan joyi, murojaat qilish tartibini o'rgatish; g) viktimlikni keltirib chiqaruvchi xususiyati yuqori bo'lgan kishilar guruhi va alohida shaxslar ustidan qonunda belgilangan tartibda ijtimoiy nazoratni tashkil qilishni ta'minlash; d) bunday shaxslarning xulqi g'ayriqonuniy tus olgan hamda mansabdor shaxslar va ota-onalarning shunday salbiy xulqining oldini olish yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganlari taqdirda, ularga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash; e) viktim xulqning paydo bo'lish imkoniyatlarining oldini olishga hamda ijtimoiy tartibni saqlashga qaratilgan choralarni ishlab chiqish va tavsiya qilish (bunga misol qilib rivojlangan ayrim davlatlarda jabrlanganlarga ijtimoiy yordam berish tashkilotlarining faoliyati va ularning huquqiy mexanizmining ishlab chiqilganligi keltirish mumkin); z) latent jinoyatchilikni kamaytirish choralari ko'rish lozim [17, 155-b.].

Shuningdek, zo'rlik ishlatib sodir etilayotgan jinoyatlardan jabrlanishning oldini olish (ayniqsa, ayollar va bolalarga nisbatan zo'rlik ishlatilganda) uchun huquqni muhofaza qiluvchi organ va sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmat xodimlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim [18, 625-b.].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kriminologiyada viktimologiya yo'nalishi hali ancha yosh va batafsil o'rganiladigan soha hisoblanadi. Bu yo'nalishda jiddiy muammolar bo'lib, bular: birinchidan, jabrlanuvchining holatiga haddan tashqari ortiqcha huquqiy baho berish, ularning holatini ortiqcha faollashtirish jamiyatda jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan munosabatning o'zgarishi va ularni axloqan tuzatish choralari ishlab chiqishga; ikkinchidan esa, jabrlanuvchilarning viktim xulqiga ahamiyat bermaslik aybdorga adolatli jazo tayinlashga ta'sir qilishi mumkin.

Demak, viktim xulq-atvorning oldini olish qaysidir ma'noda muayyan jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish hamdir. Jinoyatchilikka qarshi viktimologik kurash esa, jinoyatchilik bilan kurashishning alohida mustaqil shakli bo'lib, jinoyatlarni viktimologik profilaktikasi doirasida jinoyatchilik ustidan nazorat o'rnatish siyosatiga asoslangan fuqarolar, jamiyat va davlatning huquq va

qonuniy manfaatlari muhofazasini ta'minlashga qaratilgan davlat va ijtimoiy choralar majmuidan iborat [19, 51–57-b.].

Masalan, jinsiy zo'ravonlikdan jabrlanganlarga zarar yetkazishda viktimologik omil jabrlanuvchilarning jinsiy tiyiqsizligi, palapartish tanishuvlar, oilaviy hayotga yengiltak munosabatda bo'lish, spirtli ichimliklarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilishlar hisoblanadi. O'zlarining axloqqa xilof xulq-atvorlari bilan bunday shaxslar jinoyat sodir etilishini keltirib chiqaradilar yoki unga imkon yaratadilar. Bundan kelib chiqadiki, tarbiyaviy oldini olish faoliyatini tashkil etishda jabrlanuvchilarning, shuningdek viktim xususiyatlari bo'lgan shaxslarning g'ayriijtimoiy xulq-atvoriga e'tibor qaratish zarur.

Xulosa qiladigan bo'lsak, fikrimizcha, viktim xulq-atvoriga qarshi kurashda asosiy e'tibor sudga qaratiladi. Bu majburiyat xususiy ajrimlar chiqarish yo'li bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'z vaqtida chora ko'rishni talab qiluvchi salbiy hamda ijobiy holatlarni yetarlicha to'la qamrab oladi. Xususiy ajrimlar qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash, fuqarolarni qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan muhim vositadir. Ular o'zlarida jinoyat sodir etishning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo'yicha aniq tavsiyalarni mujassam etgan bo'lishi lozim. Sud majlisida axloqsiz yurish-turishga yo'l qo'ygan, ustiga-ustak jinoyatga imkon yaratgan jabrlanuvchilarni oshkora tanqid qilish, jabrlanuvchining o'zlariga ham xususiy ajrimlar chiqarish, sud majlisida hozir bo'lgan shaxslarga ham tarbiyaviy va profilaktik ta'sir ko'rsatishini aytib o'tishimiz mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 20-son, 221-modda.
2. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari: Yurid. fan. d-ri ... dis. – T., 2006; Ismailov I. Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi, 2014, 4-son. – B. 3-6; Xo'jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar profilaktikasi qonun hujjatlari: ilmiy-amaliy tahlil // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining Axborotnomasi, 2015, 4-son. – B. 34-39; Giyasov Sh.K. Hayotga qarshi jinoyatlarni ochish faoliyatida qotillik atamasidan foydalanish va uni tavsiflash masalasiga doir ayrim mulohazalar // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi, 2015, 2-son. – B. 48-52.
3. Надтока С.В. Виктимологические аспекты профилактики насильственных преступлений: Дис. ... канд. юрид. Наук. – Ростов н/Д, 1999 207 с.
4. Кодзов А.Б. Криминологическая характеристика личности потерпевших от вооруженных преступлений и их виктимологическая профилактика: Дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2009.. – С. 120.
5. Шербакова Л.Ю. Виктимологический аспект преступности: современная теория и практика: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – СПб., 2005. – С 13.
6. Задорожный В.И. Концептуальные основы виктимологической профилактики преступлений: Дис. ... д-ра юрид. наук. – М. 2006. – С.66.
7. Xo'jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar profilaktikasi qonun hujjatlari: ilmiy-amaliy tahlil // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi, 2015, 4-son. – B. 34-39.
8. Алауханов Е.О. Уровни и принципы виктимологической профилактики преступлений // Вестник государственная юридическая Академия Казахстана, 2008, №3. – С. 57-59.

9. Басков А.В. Виктимологическая профилактика корыстно насильственных преступлений, совершаемых в общественных местах: Дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2010. – С 76.
10. Медведев В. М. Виктимологическая профилактика насильственной преступности // Психопедагогика в правоохранительных органах. – 2014. – № 3 (54). – С. 49-51.
11. Musayev M.A. Hayotga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliyot muammolari. Monografiya. – T.: Sharq, 2011. – 238 b.
12. The main directions and measures of victimological prevention. Borisova Anna – postgraduate student of the International Institute of Economics and Law. Herald of International Institute of Economics and Law. 2015. N 3 (20). – P. 112-117.
13. Хаткова Ф.Х. Виктимологические аспекты женской преступности: Дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2004. – 168 с.
14. Giasov Sh.K. Hayotga qarshi jinoyatlarni ochish faoliyatida qotillik atamasidan foydalanish va uni tavsiflash masalasiga doir ayrim mulohazalar // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi, 2015. – №2. – B. 48-52.
15. Farfiyev Yo.A. va boshqalar. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 348-b.
16. Croll H. Victims of White-Collar and Corporate Crime // Victims, Crime and Society / Edited by Pamela Davies, Peter Francis and Chris Greer. – London: Citi Universitu, 2017. – P.79-108.
17. Криминология. – М.: БЕК, 1998. – С.155.
18. Долгова А.И. Криминология. 4-е издание переработанное и дополненное.– М.: НОРМА. ИНФРА, 2010. – 652 с.
19. Майоров А.В. О концепции виктимологического противодействия преступности // Юридическая наука и правоохранительная практика, 2015. – №4. – С. 51-57.

QONUN YOQASIDAGI O'YIN: SPORT KRIMINOLOGIYASI

Playing on the edge of the law: the criminology of sport



Sobir Nurberdiyev

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining Sud-huquq sohasida tadqiqotlar bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Maqolada sport va jinoyatchilikning o'zaro ta'siri tahlil qilingan. Xususan, sport sohasida va sportchilar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarni, kelishilgan o'yinlar, doping mojarolari va qonunga xilof ravishda sport o'yinlari bilan bog'liq tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar tashkil etilishining o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, sport sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi xorij tajribasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: sport kriminologiyasi, kelishilgan o'yinlar, doping, noqonuniy bukmekerlik, odam savdosi, uyushgan jinoyatchilik, jinoyatchilikning oldini olish.

Abstract: The article analyzes the interaction between sport and crime. In particular, specific aspects of offenses in the field of sports and athletes, match-fixing, doping scandals and the organization of sport-related illegal risk-based games. Foreign experience of prevention of offenses in these directions is also described.

Key words: sports criminology, fixed matches, doping, illegal gambling, human trafficking organized crime, crime prevention.

O'zbekistonda sportni qo'llab-quvvatlash, uning qamrovini oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ushbu mulohazaning yaqqol isboti sifatida mazkur sohaga alohida mas'ul bo'lgan Sport vazirligi tashkil etilganligi [1], shuningdek, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi [2] va Senatida [3] sport masalalariga ixtisoslashgan alohida qo'mitalar ham faoliyat yuritishini (ta'kidlash joizki, Parlament darajasida sportga ixtisoslashgan qo'mitalar Markaziy Osiyoning birorta davlatida mavjud emas) keltirish mumkin.

Bundan tashqari, mamlakatning yaqin kelajakdagi maqsadlarini aks ettiruvchi 100 ta maqsaddan iborat "O'zbekiston — 2030" strategiyasining quyidagi 4 ta maqsadi aynan sport bilan bog'liq:

ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali yoshlar qamrovini 8 milliondan oshirish, sport bilan shug'ullanishga jalb qilingan aholi ulushini 36 foizga yetkazish;

sport-ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi yoshlar sonini 1 million nafarga yetkazish;

razryadli va unvonli sportchilar sonini 25 ming nafarga yetkazish.

Olimpiya va paralimpiya o'yinlarida kuchli 15 ta mamlakat qatoridan o'rin egallashga erishish [4].

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida katta maqsadlar belgilanganligidan kelib chiqib, davlat

tomonidan munosib miqdorda mablag' ham ajratilmoqda. Jumladan, 2024-yilda Sport vazirligiga 1,8 trln so'm ajratilishi nazarda tutilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich Kambag'allikni qisqartirish va bandlek vazirligi (1,4 trln so'm), Qishloq xo'jaligi vazirligi (1,7 trln so'm), Madaniyat vazirligi (1,1 trln so'm) va Investitsiyalar vazirligiga (1 trln so'm) ajratilgan mablag'lardan ko'proqdir [5].

Shuningdek, joriy yilda Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarida oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritgan sportchilarimizga tegishincha 200 ming, 100 ming va 50 ming AQSH dollari miqdorida pul mukofotlari berildi. Taqqoslash uchun oladigan bo'lsak, qo'shni Tojikistonda sportchilar tegishincha 14 ming, 9 ming va 4,5 ming AQSH dollari, Qirg'izistonda 119 ming, 83 ming va 60 ming AQSH dollari miqdorida mukofotlangan bo'lsa, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Norvegiya va Shvetsiya hukumatlari birinchi uchtalikni egallagan sportchilariga umuman pul mukofoti berishmagan, AQSH esa oltin medal sohiblariga bor yo'g'i 37,5 ming AQSH dollari, kumush va bronza medallari uchun 22,5 va 15 ming AQSH dollari miqdorida rag'batlantirishgan [6].

Tadqiqotlarga ko'ra, sport sohasi qamrovi va daromadlari bo'yicha dunyodagi top-10 talikka kiruvchi soha bo'lib, ushbu industriyadagi umumiy daromadlar 2,65 trln AQSH dollarini tashkil etadi [7]. Ushbu raqamlarni tasavvur qilish va taqqoslash uchun quyidagi ma'lumotni keltiramiz: Italiya va Kanada kabi rivojlangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulot hajmi 2,2 trln AQSH dollarini chegarasida (dunyoda bor-yo'g'i 7 ta mamlakatning YAIM hajmi ushbu ko'rsatkichdan yuqori).

Bunday katta pul aylanmasiga ega soha albatta turli jinoiy unsurlarni o'ziga jalb qiladi hamda ayrim turdagi jinoyatlar sodir etilishiga sharoit yaratib beradi. Quyida bu borada batafsil to'xtalamiz.

Kelishilgan o'yinlar. Bunday jinoyatlarni birinchi, asosiy va fosh qilinishi qiyin bo'lgan "ixtisosligi" – bu "kelishilgan o'yinlar", ya'ni moddiy manfaat evaziga raqibga atayin yutqazib berish.

Umuman olganda, bu kabi holatlarni ta'qib qilish va jazolashga ko'pgina mamlakatlar hanzugacha e'tiborliksiz qilmoqda. Davlatlarning bu kabi loqaydligi hatto BMT darajasida qayd etilgan. Xususan, BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi va Xalqaro olimpiya qo'mitasining "Sport bellashuvlaridagi manipulyatsiyalarni jinoiy ta'qibi bo'yicha jinoyat huquqining namunaviy qoidolari"da kelishilgan o'yinlar bilan bog'liq holatlarda «sport tashkilotlarini tekshirish imkoniyatlari, shuningdek nazarda tutilgan jazolar, shu jumladan diskvalifikatsiya va jarima choralari endilikda yetarli emas»ligi qayd etilgan [8].

Bundan tashqari, kelishilgan o'yinlarning oldini olish bo'yicha jinoyat huquqiga oid bo'lmagan boshqa turdagi tizimli chora-tadbirlar ham ancha sustligi sport huquqi mutaxassislari tomonidan tan olinmoqda [9].

Sportdagi halol raqobatni tijoratlashtirish holatlari O'zbekistonda ham keng tarqalganligini quyidagi statistik ma'lumotlardan bilsa bo'ladi. Davlat rasmiy axborot manbai hisoblanuvchi Uza agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2023-yillarda 30 nafar futbolchi va hakam, 8 ta murabbiy, 7 nafar futbol klubi rahbarlari va 2 nafar futbol klubi ma'muriyati xodimi – jami 77 nafar sportchining kelishilgan o'yinlarga aralashgani aniqlangan [10]. Shu bilan birga, sportchilarimiz nafaqat "ichki" chempionatlarda, balki xalqaro musobaqalarda ham "shuhrat" qozonishmoqda.

Xususan, 2023-yilda Tennisda halollik uchun kurashish xalqaro agentligi tomonidan tennischimiz Sanjar Fayziyev kelishilgan o'yinlardagi ishtiroki uchun katta tennisdan 3,5 yilga diskvalifikatsiya qilinib, 15 ming AQSH dollari miqdorida jarimaga tortilgan [11].

Shuningdek, shu kunlarda O'zbekistonda o'tkazilayotgan 2024-yilgi futzal bo'yicha jahon chempionatida Fransiya va Eron terma jamoalarining o'yinida kelishuv bo'lganligi haqida shubha paydo bo'ldi Liviya terma jamoasi bosh murabbiysi ushbu jamoalar xatti-harakatlarini tekshirish uchun mazkur o'yin yuzasidan rasmiy shikoyat kiritishini ma'lum qildi [12].

Tennischimiz holati ham, mamlakatimizda o'tkazilayotgan futzal bo'yicha jahon chempionatidagi holat ham yurisdiksiya nuqtayi nazaridan O'zbekistonning mas'ul vakolatli organlari tomonidan tekshirilishi va qaror qabul qilinishi lozim bo'lsa-da [13], amaldagi Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarda sport musobaqalarida kelishuv o'yinlarni tashkil etish qilmishiga javobgarlik belgilanmaganligi sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlarimiz ushbu holatlarga javob reaksiyasini bildirishmagan.

Bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida Xitoy, Germaniya, Polsha, Italiya, Turkiya, Rossiya va Qozog'iston kabi davlatlarda rasmiy sport musobaqasi yoki tanlovlar natijasiga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan [14].

Yana bir holat bu kabi qilmishlar uchun tezkorlik bilan jinoiy javobgarlikni belgilashni taqozo etadi. Gap shundaki, butun dunyoda bukmekerlik faoliyati kelishuv o'yinlari bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonda yillar davomida bu faoliyat tizimli ravishda taqiqlanib kelinganligiga qaramasdan, fuqarolarimiz taqiqlarni chetlab o'tgan holda turli xorijiy servislardan keng foydalanib kelganligi holatiga javoban Prezident farmoni bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasida Internet tarmog'ida tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish faoliyatini va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirishga ruxsat etildi [15]. Ushbu sanagacha davlat sport musobaqalari natijasiga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash orqali ushbu sohaning barcha ishtirokchilariga qat'iy "signal" yubormasa, bukmekerlik va sport uyushgan jinoyatchilikning daromad vositasiga aylanish xavfi mavjud.

Qimor bilan bog'liq professional sportdagi huquqbuzarliklar yoki huquqbuzarlik deb tan olinishi lozim bo'lgan qilmishlar haqida gapirar ekanmiz, "xalq sporti"ga aylangan holatlar haqida ham qisqacha to'xtatilib o'tishimiz lozim. Jamiyatimizda "an'anaviy" va "milliy sport" yorliqlari ostida uchrab turadigan it va xo'roz urishtirish holatlari ham aslida qimor bilan bog'liq. Shu bilan birga, ushbu holatda hayvonlarni qiynoqqa solish va ularga azob berish kabi huquqbuzarlik ham kuzatiladi.

Aslida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 111-moddasi "Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish" deb nomlanib, hayvonlarni urishtirish bilan bog'liq holatlar ham ushbu modda bo'yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi [16]. Bu kabi amaliyot jinoyat huquqi sohasi olimlari tomonidan ham yoqlanadi [17].

Sport va odam savdosi. Bugungi kunda odam savdosi umumbashariy muammo bo'lib, dunyoning barcha burchaklarida keng tarqalgan jinoyatlardan biri hisoblanadi. Respublikamizda odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha chinakam samarali tizim yo'lga qo'yilgan: "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi maxsus qonun [18] qabul qilingan, Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha milliy komissiya tashkil etilgan [19], odam savdosi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan, Ichki ishlar vazirligi tizimida odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha maxsus tarkibiy tuzilma mavjud [20].

Shunday bo'lsa-da, bugungi kunda odam savdosining ayollarni majburlab fohishalik bilan shug'ullanish maqsadida respublika tashqarisiga chiqarish kabi shakliga asosiy urg'u berilyapti [21]. To'g'ri, ushbu jinoyatning bu kabi ko'rinishiga xalqaro miqyosdagi hujjatlarda ham alohida e'tibor qaratilgan, lekin bugungi kunda odam savdosining boshqa tendensiyalari ham kuzatilmoqda.

Xususan, Yevropa va Osiyo mamlakatlardagi sport, jumladan futbol klublariga Afrika va Janubiy Amerika mamlakatlaridan bolalar va o'spirinlarni "sotish" yo'lga qo'yilgan [22]. Bunda yosh futbolchilarni o'z vatanidan yangi klublarga yuborish kanallarini yo'lga qo'ygan "agent"lar sportchilarning 50 foizgacha oylik ish haqini o'zlashtirishadi.

Bu kabi holatlar mamlakatimizda hali keng tarqalmagan bo'lsa-da, e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar mavjud.

Jumladan, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda Markaziy Osiyodagi yosh futbolchilarni Yevropaning yetakchi futbol akademiyalarida tahsil olishga jo'natish kabi xizmatlar tarqalmoqda (bunday xizmatlar asosan Qozog'iston hududida ko'rsatilmoqda). Bunda ota-onalar bunday "menejerlar" bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqa o'rnatib, farzandini Qozog'istonga olib borishmoqda. U yerdan esa bolalar Yevropaga yuborilishi aytilmoqda. O'zbekiston hududida ofis ochmasdan bolalarni uchinchi davlat orqali chaqirib olish tendensiyasi fuqarolarimizni zaif ahvolga solgan holda ularni odam savdosi qurboni bo'lish xavfini oshirmoqda.

Sportchilar va uyushgan jinoyatchilik. Butun dunyoda sportchilar tomonidan sodir etiladigan va eng ko'p tarqalgan jinoyatchilik zo'ravonlik jinoyatlaridir.

XX asrning 80–90-yillarida qo'shni mamlakatlar kabi respublikamizda ham keng tarqalgan uyushgan jinoyatchilik, narkotik savdosi, reket, banditizm, tovlamachilik, transport o'g'irlash, reyderlik, badanga shikast yetkazish va odam o'ldirish kabi jinoyatlarning subyektlari aksariyat holatlarda sport bilan faol shug'ullanuvchi yoshlar bo'lgan. Bunday holatda sport to'garaklari va sport zallari jinoiy olam kontingentini to'ldirish uchun selektiv muhit rolini bajargan.

O'shanda respublika huquqni muhofaza qiluvchi organlari bu "to'dalar" vakillarining aksariyati javobgarlikka tortilishini ta'minlab, O'zbekiston XXI asrga uyushgan jinoyatchilikdan holi holatda kirib kelishiga sharoit yaratgan va yurtimiz uzoq yillarga "ko'cha" to'g'risida eshitmagan.

Biroq, so'nggi yillarda odamlarni turmush tarzi yaxshilanishiga javoban yengil daromad payida yurgan yosh sportsmenlar to'dalari shakllanishi tendensiyasi kuzatildi. Eng achinarlisi, yoshlar orasida "o'g'rilar" hayotiga taqlid va havas qilish trend bo'lganligi ijtimoiy tarmoqlarda aniq va ravshan kuzatildi. O'smirlar ta'lim olib, jamiyatga foyda keltiradigan kamol inson bo'lib yetishishni emas, shunday to'dalarga a'zo bo'lish va osongina pul topish orzusida yashay boshlashdi.

Bunga javoban 2023-yil noyabr oyida barcha hududlarda "kriminogen vaziyatni yaxshilash bo'yicha tezkor-profilaktik tadbirlar" o'tkazilib, 100 dan ziyod shaxs qo'lga olindi. Bu haqda Davlat rahbarining "O'zini «ko'cha» deb ataydigan jinoiy guruhlar bo'ladimi, korrupsiyaga berilgan mansabdor shaxslar bo'ladimi, kim qonunga bepisand qarab, davlat va jamiyatga zarar yetkazadigan bo'lsa, biz bunga hech qachon jim qarab turolmaymiz» degan so'zlari kuch ishlatar tizim vakillari uchun dalda, jinoyat olami uchun esa qattiq zarba bo'ldi [23].

Joriy yilning avgust oyida 30 ga yaqin sport va jinoyat olami vakillariga tovlamachilik, firibgarlik, jinoiy uyushma tashkil etish, jinoiy daromadlarni legallashtirish, bezorilik va hatto korrupsiya kabi qilmishlar bo'yicha ayblovlar qo'yilib, sud hukmi bilan ularga turli darajadagi jazolar tayinlandi (eng og'iri – 20 yilga ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlandi).

Bunday tendensiyalar takrorlanmasligi uchun nafaqat umum profilaktika tadbirlari, balki aynan sport sohasi vakillari, sportzallar va to'garaklarda maxsus profilaktik dasturlarini amalga oshirish, yoshlarni shu maskanlardan to'g'ri, halol va osuda yo'lga boshlash bo'yicha aniq reja ishlab chiqish lozim.

Doping. So'z boshida ta'kidlanganidek, bugungi kunda professional sport faqatgina sog'liq garovi bo'libgina qolmay, balki yaxshigina daromad manbaiga aylangan. Qoidalar aniq va o'n-yuz yillar davomida shakllanganligiga qaramasdan, ayrim sportchilar o'z ustidan ishlab, to'g'ri yo'l bilan, halol raqobatda g'olib bo'lish o'rniga turli taqiqlangan vositalar yordamiga murojaat qilishadi.

Ayrim davlatlar doping nazoratiga nisbatan loqayd munosabatda bo'lishsa-da, umumiy jihatda ko'pgina mamlakatlar hamda soha vakillari dopingning ruxsat etilishiga keskin qarshi pozitsiya bildirishadi [24].

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuniga (yangi tahriri)

ko'ra, sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- doping nazoratini o'tkazish;
- sportchilarning, trenerlarning, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislarning dopingga qarshi qoidalarni buzganlik uchun javobgarligini belgilash;
- taqiqlangan substansiyalar va (yoki) taqiqlangan usullar qo'llanilishining oldini olish;
- doping nazoratini o'tkazuvchi mutaxassislarning malakasini oshirish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalarining qo'shimcha ta'lim dasturlariga dopingga qarshi qoidalar, sportda dopingning sportchilar sog'lig'i uchun oqibatlar, dopingga qarshi qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi bo'limlarni kiritish;
- ommaviy axborot vositalarida dopingga qarshi targ'ibot olib borish;
- sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;
- sportchilarning ish qobiliyatini tiklash vositalari va usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;
- doping nazoratini o'tkazish tartibida nazarda tutilgan doping nazoratini o'tkazish shartlarini buzganlik uchun jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarining javobgarligini belgilash;
- sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish [25].

Halol sport davlat darajasida targ'ib qilinishiga qaramasdan, bizda ham doping bilan bog'liq holatlar uchrab turadi.

Milliy antidoping agentligi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, 2020–2023-yillarda Olimpiya va noolimpiya sport turlari bo'yicha federatsiya (assotsiatsiya) sportchilaridan musobaqa davrida hamda musobaqadan tashqari vaqtlarda olingan doping tekshiruvlari natijalari bo'yicha antidoping qoidalarini buzgan 39 nafar shaxsga 6 oydan 4 yilgacha muddatga musobaqalardan chetlashtirish sanksiyasi qo'llanilgan.

Shu bilan birga, sportchilarimiz bilan bog'liq bunday voqealar nafaqat Milliy antidoping agentligimiz tomonidan, balki xalqaro tashkilotlar tomonidan ham aniqlanadi.

Xususan, og'ir atletika bo'yicha 2016-yilgi Olimpiada chempioni Ruslan Nurudinov Sport hakamlar sudining qarori bilan 2012-yilgi Olimpiada o'yinlari jarayonida antidoping qoidalarini buzganlikda aybdor deb topilgan va 2 yilga diskvalifikatsiya qilingan edi [26].

Milliy agentlik aniqlangan holatlarda ushbu yo'nalishda davlat nazoratni susaytirmayotganligi haqida to'xtamga kelinadi; biroq yuqoridagi kabi xalqaro darajadagi musobaqalar doirasida uchinchi tashkilotlar tomonidan fosh qilingan holatlar O'zbekistonning jahon sport arenasidagi obro'siga ko'proq ziyon, xalqimizga esa isnod keltiradi.

To'g'ri, bunday holatlarda sportchilarni musobaqalardan chetlashtirish kabi sanksiya qo'llaniladi, ular jamiyat tomonidan tanqid qilinadi, xalqni g'azabi ularga psixologik bosim o'tkazadi. Biroq qilmishi natijasida sportdagi hamkasblari, trenerlari va respublikamiz obro'siga ziyon va hatto moddiy zarar yetkazgan bu shaxslarning harakati huquqbuzarlik deb tan olinmasligi va jazolanmasligi ajablanarli holdir.

Oddiygina taqqoslash: haydovchi belgilangan tezlikni soatiga bor yo'g'i 5 kilometr ga oshirsa, unga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma rasmiylashtiriladi va bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida jarima tayinlanadi, u huquqbuzarlik sodir etgan shaxs deb tan olinadi. Lekin doping iste'mol qilishi ortidan davlatga bir necha milliard so'mda baholanadigan zarar

va respublika jahon sportida yillar davomida misqollab to'plagan, pul bilan baholab bo'lmaydigan obro'siga ziyon yetkazgan na jinoiy va na ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Rossiya Federatsiyasida sportchi tomonidan antidoping qoidalarini buzish, sportchi, trener, mutaxassis tomonidan doping mahsulotlarini tarqatish ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi [27].

Qozog'istonning "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunida antidoping qoidalarini buzganlik uchun quyidagi choralar belgilangan:

- 1) sportchi, trener, trener-o'qituvchi, sport tibbiyoti bo'yicha mutaxassis, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassisni diskvalifikatsiya qilish;
- 2) sport natijasini bekor qilish va sportchining malaka ballari yoki ballarini olib qo'yish;
- 3) trenerni, trener-o'qituvchini, sport tibbiyoti bo'yicha mutaxassisni, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassisni javobgarlikka tortish;
- 4) sportchilar va trenerlarga har oylik pul ta'minoti to'lashni to'xtatish;
- 5) sportchilar, trenerlar, trener-o'qituvchilarni sport turlari bo'yicha Qozog'iston Respublikasining terma va shtatdagi terma jamoalari (sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar), viloyatlar, respublika ahamiyatiga molik shaharlar va poytaxtning sport turlari bo'yicha terma jamoalari tarkibidan chiqarish.

Dopingdan foydalanilgan yoki foydalanishga harakat qilingan taqdirda sport natijasini bekor qilganlik uchun quyidagilar nazarda tutiladi:

- 1) sport unvoni, razryadi, malaka toifasidan mahrum qilish;
- 2) olingan pul mukofotini qaytarish;
- 3) sportchilar va trenerlarga umrbod to'lanadigan oylik moddiy ta'minot to'lashni to'xtatish;
- 4) Olimpiya, Paralimpiya va Surdlimpiya o'yinlari chempioni yoki sovrindori bilan uy-joydan foydalanish shartnomasini bekor qilish [28].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu maqolada bir qarashda jinoyatchilikka aloqasi yo'qdek tuyuladigan sport sohasida uchrashi mumkin bo'lgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarning yuzaga kelish ehtimollari va ko'rinishlari tahlil qilindi va biz uchun yangi bo'lgan sport kriminologiyasi ixtisosligida ham tadqiqotlar o'tkazish lozimligi haqida to'xtamga kelindi.

Sport kriminologiyasi o'ziga xos tadqiqot sohasi bo'lib, unda sport, huquq va kriminologiya elementlari kesishadi. So'nggi o'n yilliklar davomida biz sport muhitida jinoyatchilik, shu jumladan doping, korrupsiya va zo'ravonlik bilan bog'liq muammolarga e'tibor ortib borayotganining guvohi bo'ldik. Bunday hodisalarning sabab va oqibatlarini tushunish nafaqat sportning halolligini himoya qilish, balki barcha ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlash uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Sportdagi jinoiy ko'rinishlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chuqur tahlil va yangicha yondashuvlarni, shu jumladan fanlararo tadqiqotlar va turli tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni joriy etishni talab qiladi. Kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar bizni sport sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ishlarni yanada faollashtirishga undaydi.

Shunday qilib, sport kriminologiyasi zamonaviy sport ekotizimida muhim o'rin tutadi va tadqiqotchilar, amaliyot va qonun chiqaruvchi organlarning o'zaro hamkorligini talab qiladi. Ushbu muammoga e'tibor qaratgan holda biz nafaqat sportga bo'lgan ishonch darajasini oshirishimiz, balki uning rivojlanishi uchun yanada xavfsiz sharoitlar yaratishimiz mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi "Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-18-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.01.2024-y., 06/24/18/0054-son; 25.06.2024-y., 06/24/94/0447-son.
2. <https://parliament.gov.uz/oz/committees/19>.
3. <https://senat.uz/committees/category/yoshlar-madaniyat-va-sport-masalalari-qomitasi/>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.
5. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-son qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 03/23/886/0970-son.
6. https://kaktus.media/doc/506342_prizovye_na_olimpiadah_skolko_platiat_za_pobedy_i_medali_sportsmenam.html
7. <https://gis.sport/news/the-true-size-of-the-global-sports-industry>.
8. https://www.unodc.org/documents/corruption/Publications/UNODC-IOC_Model_Criminal_Law_Provisions_for_the_Prosecution_of_Competition_Manipulation_Booklet.pdf
9. Why are countries taking so long to act on match-fixing? K.Carpenter — Transparency International's Forthcoming Global, 2016 https://captivatelegalsports.com/wp-content/uploads/2015/08/Feature_TakingLong_MatchFixing_Carpenter_GCRSport.pdf
10. https://uza.uz/uz/posts/2019-2023-yillarda-77-nafar-sportchining-kelishilgan-oyinlardagi-ishtiroki-aniqlangan_580946
11. <https://www.itia.tennis/news/sanctions/timur-khabibulin-sanjar-fayziev-and-igor-smilansky-provisionally-suspended/#!>
12. <https://en.as.com/soccer/france-goalkeeper-fuels-match-fixing-scandal-speculation-against-iran-at-2024-futsal-world-cup-n/>
13. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan 2012-XII-son qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2024-yil, № 1, 8-modda, № 2, 111-modda, № 3, 245-modda.
14. <https://s-bc.ru/articles/igra-ne-stoit-svech-ugolovnaya-otvetstvennost-za-dogovornye-matchi-stanet-real-nost-yu-do-konca-2012-goda>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi "Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-68-son farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan 2015-XII-son qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2024-yil, № 1, 5, 7, 8, 9-moddalar, № 2, 102, 111, 115, 116-moddalar, № 3, 243, 245-moddalar, № 6, 530, 532-moddalar, № 7, 629-modda.
17. Уголовное право России. Особенная часть: Учебник / Под ред. Ф.П. Сундуrowa, М. В. Талан. – М., 2012. – С. 521.
18. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 17-aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-154-son qonuni (O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-avgustda qabul qilingan O'RQ-633-son qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 8, 490-modda; 2021-yil, 4-songa ilova).
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-210-son farmoni // Qonunchilik

ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2023-y., 06/23/210/0955-son.

20. <https://gov.uz/oz/iiv/pages/vazirlik-tarkibiy-tuzilmasi>. 21. <https://uz.usembassy.gov/ru/2023-trafficking-in-persons-report-uzbekistan-ru/>

22. Europol, Criminal Networks Involved in the Trafficking and Exploitation of Underage Victims in the European Union (The Hague, 2018), p. 21.

23. https://t.me/Press_Secretary_Uz/3663.

24. Jenkins P. Doping in sport. The Lancet, 2002, vol. 360, no. 9327, pp. 99-100.

25. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi 513-XII-son qonuni (O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrda qabul qilingan O'RQ-394-son qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2023-yil, № 1, 2-modda.

26. <https://www.reuters.com/article/sports/doping-uzbeki-weightlifter-nurudinov-disqualified-from-london-olympics-idUSKCN1SX1F9/>

27. Кодекс Российской Федерации об административных правонарушениях от 30.12.2001 N 195-ФЗ (ред. от 08.08.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 08.09.2024)

28. Закон Республики Казахстан от 3 июля 2014 года № 228-V «О физической культуре и спорте».

МЕТОДЫ КРИМИНОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ «ГОРЯЧИХ ТОЧЕК» ПРИ ИЗУЧЕНИИ ПРЕСТУПНОСТИ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Methods of criminological research of "hot spots" in the study of crime and ensuring public safety



Миразов Даврон Мирагзамович
начальник кафедры Университета общественной безопасности Республики Узбекистан
доктор юридических наук, профессор

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы криминологического исследования "горячих точек" при изучении преступности и обеспечении общественной безопасности. Обсуждается понятие "горячих точек", методы их выявления и анализа, а также значение данного подхода для борьбы с преступностью и оптимизации деятельности правоохранительных органов.

Ключевые слова: криминология, горячие точки, преступность, общественная безопасность, борьба с преступностью, правоохранительные органы.

Abstract: This article examines the methods of criminological research of "hot spots" in the study of crime and ensuring public safety. The concept of "hot spots", methods for their identification and analysis, as well as the importance of this approach for combating crime and optimizing the activities of law enforcement agencies are discussed.

Keywords: criminology, hot spots, crime, public safety, crime prevention, law enforcement agencies.

Mazkur mavzu bo'yicha o'tkazilgan jamoatchilik fikri so'rovlari monitoringining dalolat berishicha, odam savdosi to'g'risidagi ma'lumotlar hajmining ortib borishi bilan ushbu ma'lumotlardan foydalanish imkoni oshmoqda, fuqarolarning odam savdosining asosiy yo'nalishlari va ekspluatatsiyaning turli shakllari bilan bog'liq jinoyatlar, bu turdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlari to'g'risidagi xabardorlik darajasi o'smoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 81,2% respondentlar qullikning zamonaviy shakllari, shuningdek, inson a'zolari yoki to'qimalarini noqonuniy ravishda olib qo'yish bilan bog'liq jinoyatlar mavjudligidan xabardor.

Umuman olganda, o'zbekistonliklarning odam savdosi masalalari bo'yicha xabardorligi darajasi juda yuqori bo'lishiga qaramay, ushbu turdagi jinoyatlar mavjudligi haqida umuman tasavvurga ega bo'lmagan fuqarolar toifalari ham borligiga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki bunday holat bilan ular o'zlarini xavf ostiga qo'yishlari mumkin.

So'rov natijalariga ko'ra, aholi bir qismining odam savdosi muammolaridan xabardorlik darajasi pastligining asosiy sabablari qatoriga muammoni tushunish darajasining yetarli emasligi kiradi. Respondentlarning fikriga ko'ra, ayrim fuqarolar odam savdosi butun dunyoda keng ko'lamda avj olganini, bu esa jamoat xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini, bu jinoyatlar insoniyat oldiga globallashuv qo'ygan yangi muammoni ifoda etishini oxirigacha anglamaydilar.

Qullikning zamonaviy shakllari haqidagi xabardorlik darajasining yetarlicha emasligiga ommaviy axborot vositalarida ushbu muammo haqida axborotlar yetishmasligi ta'sir ko'rsatmoqda. So'rov ishtirokchilari ommaviy axborot vositalari muntazam va tizimli ravishda:

mamlakatimizda va xorijda odam savdosiga qarshi kurashish masalalarini yoritishi;

ushbu muammoni hal qilish uchun mas'ul bo'lgan tashkilotlar mutaxassislarini jalb qilgan holda, fuqarolarning odam savdosi tarmog'iga jalb qilinishi xavfini kamaytirishga qaratilgan axborot loyihalari va tahliliy dasturlarni yaratish bo'yicha ish olib borishi;

odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish va ularni jamiyatga integratsiya qilish jihatlarini batafsil yoritib borishi;

odam savdosi to'riga tushib qolgan, ekspluatatsiya qurboniga aylangan, hayoti va sog'lig'i xavf ostida bo'lgan shaxslarga yordam ko'rsatayotgan tashkilotlar faoliyati to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilishi kerak.

Mamlakatda mazkur muammo haqida tasavvurga ega bo'lmagan, ushbu jinoyatlar haqidagi ma'lumotlarga qiziqish bildirmayotgan fuqarolar mavjudligining yana bir sababi, ularning aynan o'zlari bu turdagi jinoyat qurboni bo'lishi mumkin emasligiga ishonchi hisoblanadi.

Odamlarni ekspluatatsiya qilish va ularning majburiy mehnatidan foydalanishga qaratilgan jinoyatlar bilan bog'liq xavf-xatarlar to'g'risida yetarli bilim darajasining yo'qligiga sabab yoshlar, shuningdek, xavf guruhiga kiruvchi mehnat muhojirlari, xotin-qizlar uchun ushbu mavzudagi ma'rifiy dasturlarning yetishmasligi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari ishga joylashish davomida, ayniqsa, O'zbekistondan tashqarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ma'lum xavf-xatarlarning oldini olish, odam savdosining tipik belgilari va yollash usullari, odam savdosi qurbonlarining muammolari va inqirozli sharoitlarda ularni himoya qilish bo'yicha muntazam ravishda ixtisoslashtirilgan profilaktika chora-tadbirlarini o'tkazish zarurligini ko'rsatdi. Respondentlarning fikricha, fuqarolarni xabardor qilish ishiga huquqni muhofaza qilish organlari vakillaridan tashqari odam savdosidan jabrlanganlarni ham jalb qilish muhimdir, chunki ularning shaxsiy tajribasi jamiyatda mavjud stereotiplarni o'zgartirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishga, fuqarolarning muammoga, jinoiy tarmoqlarga jalb etilish xavfiga va jabrlanganlarga nisbatan mos munosabatni shakllantirishga imkon beradi.

O'tkazilgan tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarga ko'ra, fuqarolar ommaviy axborot vositalarining aholini odam savdosiga qarshi kurashish borasidagi ma'rifiy faoliyatini turlicha baholaydilar. Ommaviy axborot vositalarida mazkur muammoning yoritilishidan to'liq qoniqqan fuqarolar ulushi 48,4%ni tashkil etdi.

20,7 % respondentlarning fikriga ko'ra, ommaviy axborot vositalari odam savdosi bilan bog'liq muammolar va vaziyatlarni "o'rtacha darajada" yoritadi. Ushbu toifadagi fuqarolar uchun bunday ma'lumotlar dolzarb va talabgir hisoblanadi, ular migratsiya jarayonlari bilan bog'liq ehtimoliy xavf-

xatarlar, odam savdosi qurbonlari bilan yuz bergan real vaziyatlar, qullikka tushib qolganlarni qo'llab-quvvatlash, rehabilitatsiya qilish va jabrlanganlarni normal hayotga qaytarish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar to'g'risida eng yangi ma'lumotlarni doimiy ravishda olishni xohlashadi.

Ommaviy axborot vositalarining muammoni yoritish uslubidan norozi bo'lgan respondentlar ulushi 22,9 %ni tashkil etdi. Ularning fikricha, mamlakat ommaviy axborot vositalarida ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlar haddan tashqari kam.

O'zbekistonliklar odam savdosining asosiy sabablari sifatida mehnatga haq to'lash darajasining yetarli emasligini ta'kidlashdi, bu esa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini o'z farovonligini oshirish muammosini hal qilish yo'llarini izlashga, to'liq qonuniy bo'lmagan ishlar to'g'risidagi takliflar va mehnat migratsiyasiga rozilikka majbur bo'lishga olib kelmoqda. Odamlarning mehnat ekspluatatsiyasiga tushib qolishiga sabab bo'lgan omillar ularning huquqiy savodsizligi va huquqiy nigilizmi, xorijda qonuniy ishlash imkoniyatlaridan xabardor emasligidir.

Doimiy ishning mavjud emasligi, ishga joylashishdagi qiyinchiliklar ham odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning sababi hisoblanadi. Tez daromad topishga intilish, odatda kam haq to'lanadigan ish uchun, sog'lom fikrga zid ravishda, yuqori daromad olish xohish-istagi, soliqlar to'lanmaydigan, noqonuniy ishga joylashish ham odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning keng tarqalishiga xizmat qilmoqda.

Ko'pchilik respondentlarning fikriga ko'ra, asosiy xavf guruhlari yoshlar (35 yoshgacha bo'lgan erkaklar va ayollar) hisoblanadi, ular o'zlarining yuqori mehnat qobiliyati, harakatchanligi va hayotiy tajribasining yetarli emasligi sababli boshqalarga qaraganda ko'proq odam savdosi va ekspluatatsiya nishoniga aylanishadi. Shuningdek, so'rov ishtirokchilari bugungi kunda noqonuniy farzandlikka olish maqsadida bolalar savdosi tobora keng tarqalayotganini, shuning uchun xavf guruhiga, ayniqsa, ijtimoiy nochor, to'liqsiz oilalardagi go'daklar ham tushib qolayotganini ta'kidladilar.

Olingan natijalarni tahlil qilish, jamoatchilik fikrida odam savdosidan jabrlanganlarni, qoida tariqasida, ma'lum bir psixologik xususiyatlar to'plami, xarakter sifatleri va xulq-atvor xususiyatlari birlashtiradi, degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Shunday qilib, respondentlarning fikriga ko'ra, ko'pincha huquqiy bilimi va huquqiy madaniyati yetarli darajada bo'lmagan, amaldagi qonunchilik, jumladan, xalqaro huquq haqida yuzaki tasavvurga ega, oliy ma'lumotsiz, sodda, ishonuvchan yigit-qizlar odam savdosidan jabrlanishadi. Jabrlanuvchilar tavakkalchilik xulq-atvori va chuqur o'ylanmagan, g'ayriixtiyoriy xatti-harakatlarga moyillik bilan ajralib turadilar. Qoidaga ko'ra, jabrlanganlar o'zlariga ishonmaydigan, begonaning ta'siriga osongina beriladigan, hayotiy ko'rsatmalari va aniq maqsadlari bo'lmagan odamlardir.

Yurtdoshlarimizning odamfurushlar to'riga tushib qolgani uchun asosiy mas'uliyat, 46,6 % respondentlarning fikriga ko'ra, o'z farzandlariga munosib ta'lim-tarbiya bera olmagan, ularning talabgir kasbni egallashiga yordam qilmagan va xorijdagi ish yoki mehnat migratsiyasi haqidagi shubhali takliflarga rozi bo'lishiga yo'l qo'ygan ota-onalar zimmasiga yuklanadi. Jabrlanganlarning o'zini ayblaganlar ulushi 44 %ni tashkil qildi. Har beshinchi respondent davlat o'z fuqarolari himoyasini kafolatlashi sababli ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishi, jinoyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktika choralarini ko'rishi, noqonuniy mehnat migratsiyasiga tushib qolish xavfini minimallashtirishi, mamlakatimizdan tashqarida noqonuniy ishga joylashuviga chek qo'yishi zarur, deb hisoblaydi.

So'rov natijalariga asoslangan holda, dunyoda odam savdosi bilan bog'liq xavf-xatar eng yuqori bo'lgan mamlakatlar reytingi tuzildi. O'zbekistonliklarning tasavvurida, mehnat muhojirlari vizani

oldindan rasmiylashtirmasdan bora oladigan mamlakatlarda odamfurushlar to'riga tushib qolish xavfi, ayniqsa, yuqori. Mamlakat hududiga kirish uchun hujjatlarni to'plash va rasmiylashtirish zarurati yo'qligidan tashqari, bu davlatlar fuqarolarimizga mentalitet jihatidan yaqinligi, til bo'yicha to'siqlar yo'qligi va hududiy jihatdan nisbatan yaqin joylashgani bilan ham jozibador hisoblanadi.

So'rov davomida olingan ma'lumotlar tahlili mamlakatimizda odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat sharoitlarini yaratish borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini tasdiqlaydi, mamlakatda va chet eldagi migratsiya va noqonuniy ishga joylashish bilan bog'liq mavjud xavf-xatarlarga bog'liq profilaktik va tushuntirish-tashviqot faoliyati samaradorligidan dalolat beradi. 76,8% o'zbekistonliklar ushbu jinoyatlarning sodir etilishiga yordam berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha davlat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarni ijobiy baholadilar hamda yuzaga kelayotgan yangi da'vat va tahdidlar munosabati bilan ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurligini ta'kidlashdi.

So'rov shuni ko'rsatdiki, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi davlat organlari va nodavlat tuzilmalarining faoliyatini baholashda, o'zbekistonliklar ularning faoliyati haqida ko'p hollarda ijobiy fikr bildirdilar hamda jabrlanganlarga tegishli e'tibor va ularning keyingi normal hayotga qaytishi uchun yordam ko'rsatilayotganini ta'kidladilar. Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilari odam savdosiga qarshi kurashish, mehnat migratsiyasi jarayonlarini boshqarish va xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirishni xohlovchi fuqarolar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, jabrlanganlarga yordam ko'rsatish va ularni vatanga qaytarish borasidagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlik darajasini ijobiy baholashdi.

Umuman olganda, jamoatchilik fikrining tahlili mamlakatimizda odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlash borasida salmoqli yutuqlarga erishilgani haqidagi tadqiqot farazini tasdiqladi. O'zbekistonliklar mamlakat rahbariyatining ushbu jinoiy biznesga qarshi maqsadli yo'naltirilgan kurashish va odam savdosidan jabrlanganlarni har tomonlama himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Tadqiqot davomida respondentlar odam savdosi muammosining samarali ravishda oldini olish, uni aniqlash va bartaraf etish uchun davlat tuzilmalari, jumladan, ichki ishlar organlari, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari va oddiy fuqarolarning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurligiga ishonchlari komil ekanligini bildirdilar, binobarin, dunyoning aksariyat mamlakatlarida keng tarqalgan jinoyatning ushbu turiga qarshi kurashish faqat hamjihatlikda olib borilgandagina samarali bo'ladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi // President.uz
2. O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" 2020-yil 17-avgustdagi O'RQ-633-son qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.08.2020y., 03/20/633/1187-son; 24.06.2022-y., 03/22/780/0560-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha global harakatlar rejasi. YUNESKO veb-arxivi. https://webarchive.unesco.org/*http://en.unesco.org/unesco-condemns-killing-of-journalists/
5. "Fuqarolar odam savdosi haqida: xabardorlik, sabablar va unga qarshi kurashish" mavzusidagi jamoatchilik fikri so'rovi natijalari asosidagi axborot-tahliliy ma'lumotnoma. – T.: "Ijtimoiy fikr" RJFO'M, 2024-yil iyun.

OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI HUQUQBUZARLIKLARNING KRIMINOLOGIK TAHLILI

Criminology analysis of family-based crimes



Adilkariyev Xojimurod To'xtamurodovich
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlari doktori, professor



Murodov Alisher Sharofxonovich,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada oiladagi zo'ravonlikning sabab va sharoitlari, omillari, zo'ravonlikni sodir etuvchi va undan jabrlangan shaxslarning psixologik tavsifi hamda uning oldini olishga oid fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: oila, zo'ravonlik, jinoyatchi, zo'ravonlik qurboni, jinoyatning darajasi, tuzilishi, dinamikasi.

Abstract: In this article, the opinion on the causes and conditions of domestic violence, the prerequisites for the occurrence, the person committing violence and psychological characteristics of persons affected by violence and also measures to prevent them.

Key words: violence in family, criminal person, victim of violence, state of crime, level, structure, dynamics.

Oilada shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarining sabablarini aniqlash uchun nafaqat jinoyatchi, balki jabrlanuvchi bilan jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida ham chuqur kriminologik va psixologik tahlil hamda tadqiqotlar o'tkazish dolzarb masaladir. Jabrlanuvchi bilan jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni har tomonlama chuqur o'rganish oilada shaxsga (xususan ayollarga) qarshi qaratilgan jinoyatlarning viktimologik jihatlarini yoritish hamda bu turdagi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan kriminologik chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ma'lumki, har qanday jinoyatning ma'no-motivini o'rganish uning ichki va tashqi xususiyatlari, elementlari hamda sabab va sharoitlarini tadqiq etishdan boshlanadi. Kriminologik nuqtayi nazardan,

jinoyatchilikning darajasi, tuzilishi va dinamikasini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar sodir etilgan jinoyatlarni tahlil etish jarayonida xulosa va choralar ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi. Statistik ko'rsatkichlar sodir etilgan hodisaning mazmun-mohiyatini to'la ochib bermasa-da, ularni o'rganish jinoyatchilikning dinamikasi tendensiyalarini hamda qonuniyatlarini aniqlash va jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilashga ko'maklashadi.

Garchi, statistikada aynan zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar to'liq qayd etilmasa-da, mazkur jinoyatlarni shaxsning sha'ni, hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlar tarkibidan ajratib olish mumkin. Masalan, oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarni oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlar tarkibidan ajratib tahlil qilish va o'rganish mumkin.

Oilada zo'ravonlik natijasida shaxsga jismoniy kuch ishlatish, kaltaklash, zo'rqlash [1], ruhiy (psixik) ta'sir ko'rsatish, majburlash, qiynash, azoblash, jabr-zulm qilish [2], jinsiy zo'ravonlik qilish, nomusga tegish [3] kabi xatti-harakatlar sodir etiladi.

Oilada zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar axloq-odob me'yorlariga zid ma'naviy-axloqiy buzilish bo'lib, o'zining turmush o'trog'i, ota-onasi yoki aka-ukalar o'rtasida sodir etilishi bilan ijtimoiy xavfi yuqoridir. Bu boradagi kriminologik tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, jinoyat yo'lga kirgan shaxslarning 30 foizi oilaviy sharoitlarida ota-onalarining muntazam ichkilikbozlikka berilganligi, ota-onalar yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslarning axloqan nobopligi kabi illatlar mavjud bo'lgan [4].

Tahlillarga ko'ra, oilada bunday nizolarning kelib chiqishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar, er-xotin o'rtasida mehr-oqibatning yo'qligi, haqoratlash, kamsitish; tahqirlash, jabr-zulm qilish, erkakning spirtli ichimlikka ruju qo'yganligi, rashk, xiyonat, ishsizlik, farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik, er-xotin munosabatlariga qaynona-qaynota, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlarning noo'rin aralashuvi, oiladagi nosog'lom muhit va hokazo.

Afsuski, ko'p hollarda bolalardagi ta'lim-tarbiyaning buzilishiga kattalarning o'zi ham sababchi bo'lishi kuzatiladi. Oilada kattalarning axloqqa zid ko'rinishidagi salbiy ma'naviy-ruhiy xususiyatlari nizoli kriminogen vaziyatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'lishi mumkin. Bularning oqibatida nizolarning yanada kuchayishi, sonining ortishi kuzatiladi [5]. Bunday holat oilada farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday omillar mavjud bo'lgan oilalarga jamoat tashkilotlari, qarindosh-urug'lar lozim yordamni bermasa, oiladagi bolalarning zo'ravonlikdan jabr ko'rish ehtimoli yuqori bo'ladi. Eng achinarlisi, oiladagi nizolarning o'z vaqtida hal etilmasligi ko'pincha er-xotinning ajralishlariga sabab bo'lmoqda [6].

Tadqiqot jarayonida ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari o'rtasida "Bugungi kunda oilada zo'ravonlikka olib kelgan nizolarning asosiy sabablari nimada deb o'ylaysiz?" degan savolga ularning 32,5 % – moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklarni, 29,8 % – ishsizlikni, 17,3 % – oilada tarbiyaning sustligini, 10,4 % – oilada erkakning spirtli ichimlikka ruju qo'yganligini, 6,1 % – erkakning rashk yoki xiyonat qilishini, 3,9 % esa haqorat qilish va tahqirlashni ko'rsatgan.

Shuningdek, so'rovga jalb etilgan respondentlar "Oiladagi zo'ravonlik oqibatida kim kimga nisbatan jinoyat sodir etgan?" degan savolga ularning 48,2 % – eri xotiniga, 4,7 % – xotini eriga, 12,7 % – ota farzandiga, 11,6 % – o'gay ota-ona farzandga, 8,2 % – qaynona kelinga, 3,1 % – qayniopa qaynsingilga yoki kelinga, 7,1 % – aka-uka bir-biriga, 3,5 % farzand – ota-onasiga, 0,9 % esa ota-ona farzandiga nisbatan sodir etishini qayd etgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga asosan, oila-turmush doirasida zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etganligi uchun javobgarlikka tortilgan shaxslarning jinoyat ishlari o'rganilganida oiladagi nizolarning kelib chiqishida 26,3 % holatda – mastlik, 21,1 %ida mol-mulk talashish, 19,4% ida – moddiy yetishmovchilik, 12,0 %ida – kelishmovchilik, 10,3 %ida – rashk

yoki xiyonat, 7,1 %ida tuhmat yoki haqorat qilish va 3,8 % holatda – oila a'zolari o'rtasida uzoq muddat davom etib kelgan adovat sabab bo'lganligi aniqlandi.

Oilada zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlarning 37,6% – qasddan badanga yengil shikast yetkazish, 17,0% – qasddan badanga o'rtacha shikast yetkazish, 12,3% – qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, 9,1% – qasddan odam o'ldirish, 8,3% – voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, 4,7% – qiynash, 3,4% – tuhmat, 2,1% – nomusga tegish, 1,9% – o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, 1,2% – haqorat qilish, 1,7% – o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish tashkil etgan.

Mazkur qilmishlarning sodir etilishida shaxs ruhiy holatining buzilishi alohida rol o'ynaydi. Muayyan xatti-harakatning jinoyatga aylanishini taqozo etuvchi xususiyatlar shaxsning ruhiy holati bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu nizolar ba'zi hollarda to'satdan vujudga kelgan ruhiy buzilish (stress) oqibatida, ya'ni qiziqqonlik, tajovuzkorlik, o'zini nazorat qila olmaslik kabi vaziyatlarda sodir etilishini ham inobatga olish lozim.

Biz ko'rib chiqayotgan qilmishlar tarkibida o'ch olish, oila a'zolarining bir-birini yoqtirmasligi, adovat, alam, kelishmovchilik va psixologik ziddiyatlar zo'ravonliklar sodir etilishining asosiy omili hisoblanadi. Ular ta'sirida aybdor shaxsning manfaatlariga zid harakatlar sodir etganligi uchun hisob-kitob qilish, ushbu qilmishiga yarasha munosib javob qaytarish, kuchi, jahlini yoki nimaga qodir ekanligini ko'rsatish, xafa qilgan kishiga shikast yetkazish orqali boshidan kechirgan azob-uqubat va kechinmalar o'rnini ruhan to'ldirishga intilish kabi ruhan o'zini tayyorlash bilan bog'liq holat va vaziyatlar vujudga keladi.

Oilal-turmush munosabatlari doirasida shaxsning sababsiz janjal qilishiga olib kelgan hayotiy vaziyatlar tahlil qilinganida quyidagilar ma'lum bo'ldi: ya'ni, shaxsga uning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi, xo'rllovchi, jazolovchi munosabatda bo'lish jabr-zulm, nafrat, zo'rlik, o'ch olish motivining shakllanishiga olib keladi. Bu turdagi jinoyatlarning aksariyati kuchli ruhiy zo'riqish holatida sodir etiladi. Misol uchun, qasddan odam o'ldirish motiviga rashk yoki qahr-g'azab sabab bo'lishi mumkin.

Afsuski, oilada zo'ravonlikning ko'pincha tajovuzkorlik xususiyatlari bilan bog'liq holda sodir etilishini ko'rish mumkin. Yu.M. Antonyanning fikricha, tajovuzkorlik tabiiy xususiyatga ega bo'lib, inson zakovatining mahsulidir va ijtimoiy jihatdan zo'ravonlik sifatida namoyon bo'ladi [7]. Bunday tajovuzkor xulq-atvor tug'ilgandan yuzaga kelmaydi, balki unga shaxs ruhiyatidagi ma'lum buzilishlar sabab bo'lishi mumkin.

Inson ruhiyatidagi buzilishlar huquqbuzarlikka moyillikning kuchayishiga, uning g'ayriijtimoiy turmush tarzini yuritishiga sabab bo'lishi aniqlangan. Ruhiy buzilishlar nasldan o'tgan kasalliklar natijasida yuzaga kelishi yoki hayot davomida orttirilgan bo'lishi ham mumkin [8]. Psixik buzilishlarda shaxsda tajovuzkor xulq-atvor shakllanishi mumkin. Tajovuz turli hissiy holatlarda, ya'ni qasos, g'arazli maqsad, ko'rolmaslik yoki nafrat oqibatida ham namoyon bo'ladi. Ko'pincha tajovuzkorlik xatti-harakatlari, odatda, beqaror va har xil ijtimoiy anomaliyalar tufayli murakkablashgan maishiy muhitda sodir bo'lgan [9]. Mazkur omillar yuqorida qayd etilgan zo'ravonliklarning kelib chiqishiga ta'sir etishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlar ushbu masalaga ikki xil nuqtayi nazardan qarash imkonini beradi: birinchidan, tajovuzkorlikni tabiiy tug'ma – barcha tirik mavjudotga xos bo'lgan va o'zini saqlab qolishga qaratilgan qo'qqisdan namoyon bo'ladigan dastlabki instinkt sifatida tushunish; ikkinchidan, odamning kimgadir jismoniy yoki ruhiy shikast yetkazish uchun sabab bo'ladigan har qanday ongli xulq-atvor shakli sifatida qarash; uchinchidan, salbiy xulq-atvorning shaxs ruhiyatga ta'sir etishi va hokazo.

Shaxs ma'lumoti darajasining pastligi uning zo'ravonlik qurboni bo'lishi ehtimolini orttiradi. Misol uchun, ma'lumot darajasi past shaxslarning tajovuzkor xulq-atvori o'zining nimaga qodir ekanligini

ko'rsatishga harakat qilishi yoki bo'lmag'ur xatti-harakatlari bilan kimgadir javob qaytarishida namoyon bo'ladi.

Oiladagi zo'ravonlikdan jabrlangan shaxsning xulq-atvori tufayli sodir etilgan qilmishlarning sabablari sifatida jabrlanuvchining salbiy xulq-atvori, noo'rin xatti-harakatlari hamda spirtli ichimliklardan mast holatda ekanligini ko'rsatish mumkin. Shu o'rinda, 70% qasddan badanga tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarning ichkilikbozlik oqibatida sodir etilishini ham e'tiborga olish lozim [10].

Tadqiqot davomida o'rganilgan vaziyatlar, tahlil etilgan adabiyot va statistik ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, bugungi kunda oilalarda zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga quyidagi sabab va sharoitlar ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Oilada nosog'lom ma'naviy-ruhiy muhitning mavjudligi. Har qanday huquqbuzarlikning kelib chiqishida asosiy ta'sir ko'rsatuvchi kriminogen omillar muhit bilan bog'liq ekanligi fanda olimlar tomonidan isbotlangan. Ayniqsa, voyaga yetmaganning shakllanishi, kamolotga yetishishida bunday omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oilalarda azaliy milliy urf-odat va qadriyatlarning e'tirof etilmasligi natijasida oila a'zolari o'rtasida bir-birlarini hurmat qilmaslik yoki tushunish kabi insoniy fazilatlarining yo'qligi oiladagi nizolarga sabab bo'layotganligini ko'rish mumkin.

2. Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyaning zaifligi yoki sustligi. Shaxsning ma'naviyati uning axloqiy sifatlari bilan belgilanadi. Tahlil qilinganida, oilada nizo keltirib chiqargan shaxslarning aksariyati ma'naviyati va axloqiy saviyasi past darajada ekanligi aniqlangan.

3. Shaxsda mavjud salbiy xulq-atvor. Nafaqat huquqbuzarliklarning kelib chiqishida, balki undan zarar ko'rishda jabrlanuvchining salbiy xulq-atvori sabab bo'lganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, shunday toifadagi shaxslar huquqbuzarliklar kelib chiqishida o'zining salbiy xulqi yoki xatti-harakati bilan sababchi bo'lishi mumkin.

4. Oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar. Oilada zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning kelib chiqishida moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar¹ ham sabab bo'lmoqda. Oila moddiy ta'minotining yetarli emasligi er va xotin o'rtasida turli nizolarning kelib chiqishida asosiy sabab bo'luvchi omillardan biri hisoblanadi. Misol uchun, ayollar ko'pincha erkaklardan o'zining imkoniyati yetmaydigan darajada turmush tarzi kechirishni talab qilishi yoki dabdabali to'y-hasham o'tkazish va hokazo.

5. Spirtli ichimlikka ruju qo'yish. Aytish joizki, spirtli ichimlikning iste'mol qilinishi natijasida shaxs o'z xatti-harakatining oqibatini anglab yetmasdan qo'pol va jizzaki bo'lib qoladi. Buning natijasida, mast kishining ongida nafaqat jamiyatga, balki o'rnatilgan axloq-odob normalariga befarqlik va hurmatsizlik bilan qarash xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu holat esa uni g'ayriijtimoiy salbiy harakatlarni sodir etishiga olib kelishi mumkin.

6. Oilada a'zolari yoki qarindosh-urug'larning mol-mulk va meros talashishi. Sud-tergov amaliyotidan ma'lumki, shaxsga nisbatan tan jarohati yetkazish, qarindosh-urug'larning, eng achinarlisi aka-uka, opa-singil, farzand va ota-onalarning yuzko'rmas darajada munosabatlarini izdan chiqishiga, mol-mulk yoki meros talashish, uni bo'lib olish kabi masalalar yuzasidan nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Eng achinarlisi, bir hovlida yashab turib aka-ukalarning shunday qilmishlari oqibatida u yerda voyaga yetayotgan bolalar o'rtasida bir-birlariga adovat bilan "dushman" sifatida qarashga olib kelayotganligi holatlaridir.

¹ Moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar asosan bitta hovli yoki xonadonda ikki va undan ortiq oila yashaydigan oilalarda uchraydi. Mazkur oilalarning aksariyati shahar joylaridagi ko'p qavatli uylarda yashashadi. Normativga ko'ra, bir shaxs uchun uydagi yashash maydoni 16 kv. metr bo'lishi lozim. Taassufki, bugungi kunda bir kishi 4-5 kv. metrda yashayotgan oilalar ham mavjud bo'lib, bu holat u yerda istiqomat qiluvchi shaxslarning muayyan darajada erkin yashashiga imkon bermaydi.

7. Rashk, erkak va ayolning xiyonatkorligi yoki zino qilishi. Oilaviy hayotda er va xotin o'rtasida nizolarning kelib chiqishiga haddan ortiq rashk qilish yoki shunday qilmish bilan ayblash, xiyonatkorlik, jinsiy qoniqmaslik, zino kabi omillar sabab bo'ladi. Bunday holat asosan erkaklar tomonidan kuzatilib, ayollarning oiladan ketib qolishiga, oilaning buzilishi va qayta tiklanmasligiga, ba'zida qasddan turli tan jarohatlar yetkazish, kaltaklash, azoblash, xo'rlash, qiynash va boshqa jismoniy hamda ruhiy azob berishlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bular ichida eng ijtimoiy xavfi yuqorisi xiyonatkorlik bo'lib, shaxsning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli jinoyatlarning sodir etilishiga olib keladi.

8. Yoshlarning erta turmush qurayotganligi hamda qarindosh urug'larning oiladagi nizolarga noo'rin aralashuvi. Mutaxassislarning fikricha, yosh oilalarda er-xotinning dunyoqarashi oilaviy hayot to'g'risidagi tasavvurlarining o'zaro mos kelmasligi, turli bahonalar bilan yetishmovchilikni ro'kach qilish, bir-birini tushunmaslik, oilalarda tabaqalanish borligi nizoning kelib chiqishiga hamda oilaning ajralishiga ham sabab bo'lmoqda. Shuningdek, yoshlarning erta turmush qurayotganligi ularning hayotiy tajribasi yo'qligini, uy-ro'zg'or ishlariga tayyor emasligi oqibatda oilada qaynona-kelin yoki erining oila a'zolari tomonidan unga nisbatan samimiy munosabatda bo'lmaslikka olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yosh oilalarning ishiga kattalarning yoki qarindosh-urug'larning noo'rin aralashuvi oilada mavjud bo'lgan muammoni yanada murakkablashuviga yoxud og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, so'nggi paytlarda oilaviy ajrimlarning soni ortib bormoqda. Eng achinarlisi, ajrashayotgan oilalarning aksariyatida ikki yoki undan ortiq farzandlar mavjud. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2020-yil davomida O'zbekistonda 296.8 ming ortiq nikoh qayd etilgan. Shu bilan birga, 2021-yilning 1-yanvar holatiga respublikada 2020-yil davomida 28,2 mingta ajrim holatlari FHDYO organlarida qayd etilgan [11].

Yuqorida keltirilgan sabab va sharoitlarni o'rganib, oiladagi zo'ravonliklarning oldini olish borasida quyidagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

birinchidan, mahalla fuqarolar yig'ini raislari bilan birgalikda ma'muriy hududlarda yashovchi oilalarda mavjud qiyinchilik va yetishmovchiliklar, ko'p farzandli, bir xonada ikki yoki undan ko'p oila yashaydigan xonadonlarni aniqlab, ulardagi ishsizlik, uy-joy muammosini hal qilish bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati idoralari bilan amaliy hamkorlik qilish²;

ikkinchidan, oilada zo'ravonlikning oldini olish, uning sabablari va huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan keng qamrovli profilaktik chora-tadbirlarni belgilashda jamoatchilik imkoniyatlaridan foydalanish hamda ommaviy axborot vositalari orqali oilada ayollarga o'tkaziladigan zulm yoki zo'ravonliklarning oldini olishga qaratilgan chiqishlar va ko'rsatuvlar tashkil etish;

uchinchidan, muammoli oilalarda mavjud kelishmovchilik va nizolarning sabablarini o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari va jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikda chora-tadbirlarni alohida reja-dasturlar asosida amalga oshirish;

to'rtinchidan, oila-turmush munosabatlari doirasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar yashaydigan oilalarni jamoatchilik nazoratiga olish hamda huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslarni ichki ishlar organlarining profilaktik hisobiga qo'yish bilan cheklanmay, ular bilan yakka tartibda profilaktik ishlar olib borish;

²Bugungi kunda sodir etilayotgan oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning asosiy qismi ana shunday oilalarda sodir etilmoqda. lalar ham mavjud bo'lib, bu holat u yerda istiqomat qiluvchi shaxslarning muayyan darajada erkin yashashiga imkon bermaydi.

beshinchidan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshirish;

oltinchidan, ma'muriy hududlarda yashovchi ijtimoiy jihatdan xavotirli ahvolda bo'lgan oilalarni o'z vaqtida aniqlab, ularga ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy jihatdan yordam ko'rsatish, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan alohida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;

yettinchidan, og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan, oila-turmushda ruhiy (psixologik) jihatdan qiynalgan, o'z joniga qasd qilishga moyil bo'lgan xotin-qizlarni aniqlash va ular bilan manzilli hamda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish huquqbuzarliklarning barvaqt aniqlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, oiladagi zo'ravonlik, shu jumladan ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari ham ruhiy, ham ijtimoiy jihatdan muntazam tarzda, tizimli ravishda chuqurroq hamda ilmiy asosda puxta tahlil etilishi lozim. Aks holda bu jiddiy muammoning ildiziga yetib borish, obyektiv sabablarini aniqlash hamda bu sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish mushkul bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Шахов В.И. Насилие в семье: уголовно-правовое и криминологическое значение: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 2003. – С. 6.
2. Гребёнкин Ф.Б. Уголовно-правовое значение психологического насилия в преступлениях против собственности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 2004. – С. 6.
3. Мощицкая Е.Ю. Виктимологическая характеристика сексуального насилия несовершеннолетних: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2004. – С. 7.
4. Kriminologiya: Darslik. – T., 2006. – B. 105.
5. Shoumarov G`B. Oila psixologiyasi. – T., 2017, – B. 151.
6. Елизаров В.В. Демографическая ситуация и проблема семейной политики // Социологические исследования, 1998. – №2. – С. 55–56.
7. Антонян Ю.М. Преступная жестокость. – М. 1994. – С. 48.
8. Axmedova M.X. Jinsiy tajovuzkorlik sodir etgan jinoyatchi shaxslarning psixologik xususiyatlari: psixologiya fanlari nomzodini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2007. – B. 65.
9. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligi va ularni oldini olish muammolari. O`quv qo`llanma. – T., 2007. – B. 28.
10. Kriminologiya: Darslik. – T., 2007. – B. 314.
11. <https://uznews.uz/uz/posts/7175>.

BOLALARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLAR VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Improving victimological prevention of oppression and violence concerning of a minor



Otajonov Abrorjon Anvarovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

Annotatsiya. Maqolada bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarning umumiy xususiyatlari (bolaning viktimligi, jinoyat qurboni bo'lishi, voyaga yetmagan jabrlanuvchining jinoyat mexanizmidagi o'rni), bolaga nisbatan zo'ravonlik tushunchasi va uning turlari ko'rib chiqilib, bolaga nisbatan tazyiqva zo'ravonliklarning viktimologik profilaktikasini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan qurbon, tazyiq va zo'ravonlik, viktimlik, viktimologiya, viktimologik profilaktika.

Abstract. The article touches upon the questions of the general description of violent criminal delinquency of a minor (victimity of a minor; the part of a minor complainant in the crime mechanism), and reviews the definition and different types of violent crime delinquency of a minor, a proposal has been developed to improve victimological prevention of oppression and violence against of a minor.

Keywords: a minor victim, oppression and violence, victimity, victimization.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bolalar jamg'armasi mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda bir yilda taxminan 275 million bola zo'ravonlik qurboniga aylanmoqda [1]. Mamlakatimizda esa, har yili o'rtacha 300 nafargacha shaxs oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlikka va 10 mingga yaqin shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilmoqdalar. Bunday tazyiq va zo'ravonliklarning 1500 mingga yaqini bolalarga nisbatan sodir etilmoqda, ularning 500ga yaqinini jinsiy zo'ravonliklar tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmagan qizlarga nisbatan jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar, shu turdagi boshqa jinoyatlarga qaraganda (50 foiz hollarda) ko'proq voyaga yetgan erkaklar va yoshi kattaroq qarindoshlar tomonidan sodir etiladi. Bolalarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar, odatda, jabrlanuvchi yoki tajovuzkorning yashash joyida, ularning ko'p qismi ko'chalarda (23 foiz holatda va ularning 17 foizi kunduzi) va uy podyezdlarida (10 foizi) ro'y beradi.

Bolalarga nisbatan zo'ravonliklar maktablarda, oilalarda, tengdoshlar orasida sodir etilishi mumkin. Ayni paytda, mamlakatimizda bolalarga nisbatan (ma'lum bo'lgan) tazyiq va zo'ravonlik

harakatlarining 78 foizi begonalar tomonidan, 14 foiz holatda ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, ya'ni vasiy, homiy, farzandlikka olgan shaxslar tomonidan va 6 foiz holatda qarindoshlar va 2 foiz holatda ta'lim muassasalari xodimlari tomonidan sodir etilmoqda. Jumladan, 2023-yilda bolalarga nisbatan 166 ta zo'ravonlik holatlari yaqinlar tomonidan sodir etilgan, natijada bunday zo'ravonliklar oqibatida 22 nafar bola halok bo'lgan.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, ushbu raqamlar bolalarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonliklarning real holatini ko'rsatmaydi, chunki bunday ijtimoiy xavfli qilmishlarning latentlik darajasi juda yuqori bo'ladi. Boisi, tazyiq va zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalar, odatda, zo'ravonlik qurboni bo'lgani haqida hech kimga xabar bermaydilar, ko'pincha ular qo'rquv, uyat hissi yoki bo'layotgan holatlarni tushunib yetmasligi bois, bo'lgan voqealar haqida hech kimga gapirmaydilar.

Ye.N.Yershovaning fikriga ko'ra, jinsiy yoki jismoniy zo'ravonlik qurboniga aylangan bolalar ko'pincha bunday xatti-harakatlarni yetarli darajada jinoiy emas deb hisoblab yoki oshkor bo'lishdan, qasos olishdan qo'rqib, shuningdek boshqa sabablarga ko'ra huquqni muhofaza qilish organlariga xabar bermaslikni afzal ko'radilar. Ba'zan unga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik haqida gapirishdan uyaladi yoxud bola ular bilan qilingan harakatlarning mohiyati va ma'nosini tushunmaydi [2].

Shuni qayd etish joizki, amaliyotda bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarning bir qancha turlari farqlanib, ular jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy (psixologik) zo'ravonlik, bolaga nisbatan g'amxo'rlik qilmaslik, befarqlik, ekspluatatsiya qilish va bulling kabi turlarda sodir etilishida namoyon bo'ladi.

Nainki, jismoniy zo'ravonlikda, shafqatsizlik va bolaga og'riq keltiruvchi hamda uning sog'ligi va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos bo'lmagan maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlar sodir etiladi. Masalan, bolaga yetkazilgan har qanday tan jarohati yoki og'riq (urish, chimchilash, tishlash, kuydirish, bo'g'ish yoki cho'ktirish), bolani har qanday jismoniy jazolash – tarsaki berish, kaltaklash, tahqirlash, bolani dori yoki boshqa kimyoviy vositalar yordamida zaharlash va boshqalar.

Shunday bo'lsa-da, madaniyatdagi farqlarga qaramay, jismoniy zo'ravonlik butun dunyoda tarbiyalash va to'g'ri yo'lga solishning asosiy vositasi sanaladi. Bu holat mamlakatimizda ham bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonliklarning asosiy vositasi hisoblanadi. Xususan, BMT Bolalar jamg'armasi (UNICEF) tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, O'zbekistonda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning 3/2 qismi (62 foiz) zo'ravonlik bilan tarbiyalash usullariga (jismoniy jazo, psixologik tajovuz) uchragan, 15–19 yoshdagi qizlarning 33 foizi erning xotinini urishga haqli, degan fikrda bo'lishgan [3]. Vaholanki, jismoniy jazo har qanday holatda ham bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadi. Shuningdek, amalda bolaga nisbatan qo'llanilgan bunday jazo kelajakda birmuncha xavfli tus olishi va shafqatsizroq shakllarda sodir etilishi mumkin bo'lgan boshqa tazyiq va zo'ravonliklar uchun zamin yaratadi.

Ruhiy zo'ravonlik deganda, bolaga ruhiy (psixik) ta'sir etish yo'li bilan jismoniy zo'rlik ishlatishi yoki boshqacha harakatlar bilan azob berishi to'g'risida tahdid qilish tushuniladi. Bunday zo'ravonliklar, masalan, yolg'on, tahdid, qo'rqitish, kamsitish, haqorat qilish, boladan voz kechish, izolyatsiya, noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish va majburlash, bola bajara olmaydigan ishlarni bajarishni asossiz talab qilish, bolaning me'yorida rivojlanishiga to'siq bo'luvchi ortiqcha homiylik, kattalarning o'z va'dalarini bajarmasligi, bolada ishonch tuyg'usining buzilishini keltirish kabilarda namoyon bo'lishi mumkin. Garchi, ayrim hollarda ruhiy tazyiq jismoniy zo'ravonlikdan ko'ra, og'irroq oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Jinsiy zo'ravonlik voyaga yetmagan bola bilan shahvoniy tarzda jinsiy aloqa qilish bilan tavsiflanadi. Jinsiy zo'ravonlik kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanishida ifodalanadi. Bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch, aldash va ishonchni suiiste'mol qilishdan foydalanishadi. Masalan, bunday zo'ravonliklar bola bilan har qanday holatda jinsiy aloqaga kirishishda (kuch ishlatgan holda yoki ishlatmasdan), bolani jinsiy aloqaga jalb qiluvchi har qanday xulq-atvorni namoyon qilishda, jinsiy tavsifdagi har qanday xatti-harakatlar – o'yinlar, suhbatlar, foto va video tasvirlarni tomosha qildirishda ifodalanishi mumkin. Chunonchi, JSSTning ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyoda qizlarning 20 foizi, o'g'il bolalarning 5-10 foizi jinsiy zo'ravonlikka duch keladi. Ayni paytda, mamlakatimizda bolalarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'ravonliklar bilan bog'liq qilmishlar yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, bunday zo'ravonliklar 2021-yilda 334 ta, 2022-yilda 395 ta va 2023-yilda 405 ta sodir etilgan bo'lib, ular bolalarga nisbatan sodir etilgan jami jinoyatlarning 18 foizini tashkil qiladi.

Bolaga g'amxo'rlik qilmaslik yoki unga nisbatan befarqlik ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar zarur imkoniyatlar, bilim va ko'nikmalar, shuningdek tegishli xizmatlardan foydalanish sharoitiga ega bo'lishiga qaramay, qarmog'idagi bolaning sog'lig'i, jismoniy, aqliy, ma'naviy va axloqiy rivojlanishining jiddiy buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan jismoniy, moddiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarini qondirmaslikda ifodalanadi. Shuningdek, u bolani e'tiborsiz, qarovsiz qoldirish, xavf ostida qoldirish; bola ehtiyojlariga nisbatan befarqlik (ovqatlanishga, tibbiy ko'makka, ta'limga, muloqotga, rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi)da, ular bilan hissiy yaqinlikning yo'qligida (undan voz kechish) va mavjud tahdidlardan bolani himoya qilmaslik (istamaslik) kabilarda ham namoyon bo'ladi.

Bolaga nisbatan befarqlikning boshqa turdagi zo'ravonliklardan farqi shundaki, u, odatda harakatsizlik oqibatida amalga oshiriladi. JSSTning hisob-kitoblariga ko'ra, har yili dunyoda 5 yoshga to'lmagan 400 ming nafar bola turli suyuqliklarga tushib ketib, kuyish va zaharlanishdan yoki yo'lda avtohalokatlar oqibatida vafot etadi.

Mamlakatimizda ham bolalarga nisbatan befarqlik va e'tiborsizlik tufayli bolalarning zarur ko'rish ko'rsatgichlari yuqoriligidan qolmoqda, jumladan, birgina yo'l-transport hodisalari tufayli 2023-yilda bolalar bilan bog'liq 1 794 ta yo'l-transport hodisasi sodir etilgan bo'lib, ularda 1 568 nafar bola jarohat olgan, 263 nafar bola halok bo'lgan.

Ekspluatatsiya qilish bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakldagi majburlashlarda namoyon bo'ladi. Xususan, u majburiy mehnat, qullik yoki qullikka o'xshash odatlar, erksiz holat yoxud shahvoniy ekspluatatsiya qilishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Bunda, shahvoniy ekspluatatsiya deganda, boladan pornografik tasvirlar tayyorlash, buzuvchi harakatlar sodir etish kabi maqsadlarda foydalanish tushuniladi.

Bulling esa, bolaning boshqa bolaga zarar yetkazishidir. Bu muntazam ravishda takrorlanadigan va jabrlanuvchida unga nisbatan zo'ravonlikni to'xtatishiga to'sqinlik qiladigan kuchning nomutanosibligidagi harakatlarda namoyon bo'ladi. Bulling har qanday joyda va istalgan vaqtda bolaning kundalik hayotida, bevosita munosabatlarda yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir bo'lishi mumkin. Bu nafaqat bolaning diqqatini ta'limda jamlashiga to'sqinlik qiladi, balki uzoq muddatli psixologik jarohatlarga ham olib kelishi mumkin. Qolaversa, ushbu muammoni o'rgangan L.Alekseyevaning qayd etishicha, bolaga nisbatan sodir etiladigan va eng keng tarqalgan zo'ravonlik

turi – jismoniy kuch ishlatish hisoblandi. Butun dunyoda mazkur zo'ravonlikning asosiy qurbonlari bolalar bo'ladi [4, 58-b].

Shuningdek, adabiyotlarda jinoyat qurbonlari bo'lgan bolalar bir nechta tiplarga ajratilishi haqida ta'kidlanadi. Xususan, T.V.Varchuk jinoyat qurbonlarini quyidagi tasniflarga ajratadi: potensial qurbon – bu o'zining shaxsiy sifatлари, maqomi, nuqtai-nazari, xulq-atvori kabi xislatlari tufayli jinoyatdan oldin "qurbon" rolini egallashi mumkin bo'lgan shaxs; tasodifiy qurbon – bu ham potensial qurbon tipiga mansub bo'lsa-da, lekin u tasodifiy vaziyatlar yoki jinoyatchining tanlovi sababli qurbonga aylanadi. Ba'zan tasodif jinoyatning qurboniga kim aylanishini belgilaydi; latent qurbon – bu jinoyatdan real va amalda jabr ko'rgan shaxs bo'lib, muayyan sabablar tufayli mazkur holat aniqlanmay yoki rasmiylashtirilmay qolgan qurbon tipi [5, 38-b].

Chunonchi, amalda potensial va real viktimlashuv bir-biriga har doim ham mos kelmaydi. Xususan, ushbu muammoni o'rgangan M.Rustambayev va S.Niyozovalarning yozishicha, turli yoshdagi shaxslar yosh bilan bog'liq o'ziga xos ruhiy-jismoniy xususiyatga ega bo'ladi. Bunda, voyaga yetmaganlar o'zlarining qiziquvchanliklari, ishonuvchanliklari, tez ta'sir ostiga tushishlari, jismoniy kuchsizliklari sababli yuqori viktimlikka egadir. Bunday sifatlar voyaga yetmaganlarni nafaqat qurbonga aylanishlari uchun, balki jinoyat sodir etishlari uchun ham sabab bo'lishi mumkin [6, 76-b.].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, jismoniy, ruhiy yoki boshqa turdagi zo'ravonliklar bolaning normal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bu qisqa yoki uzoq vaqtdan so'ng o'zining salbiy ta'sirini namoyon qilishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, agar oilada ota-onalar doimiy nizo va urishib, notinch yashasalar, odatda, bola ular e'tibordan chetda qolgan holda ulg'ayadi. Bu yana qachon oilada notinchlik va zo'ravonlik bo'lishini kutib yashashiga olib keladi hamda bolada doimiy xavotirli va tashvishli holatni paydo qiladi.

Bola to'g'ridan-to'g'ri tazyiq va zo'ravonlikka uchragan hollarda esa, u bolada og'irroq salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, ya'ni unda uyqu rejimi buziladi, doimiy asabiylik va g'azablanish, diqqatni jamlashda qiyinchilik ro'y berdi, ba'zida bolalar o'zlari boshdan kechirgan zo'ravonliklar elementlarini takrorlashlari ham mumkin.

Kezi kelganda qayd etish kerakki, bugungi kunda bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni kompleks oldini olish hamda qarshi kurashish borasida huquqni qo'llash amaliyotida qator muammolarning mavjudligi saqlanib qolmoqda. Masalan, bunday muammolar qatorida idoralararo tarqoqlik, profilaktik ishlarni tashkil etishda yagona uslubiy va tizimli yondashuvlarning yo'qligi; bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni manzilli ravishda oldini olishga e'tibor bermaslik; tazyiq va zo'ravonliklardan jabrlangan bolalarni himoya qilish va reabilitatsiya qilish bo'yicha qonunchilik normalari va huquqni qo'llash amaliyotining yetarli darajada emasligi, aholi huquqiy savodxonligining pastligi; pedagoglar, ijtimoiy va tibbiyot hamda ichki ishlar organlari xodimlarining jabrlanuvchi bolalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarining yetishmasligi; samarali faoliyat ko'rsatayotgan reabilitatsiya tizimining yo'qligi va hokazolarni sanab o'tish mumkin.

Shu bois, viktimologik profilaktikaning bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanish muammolarini, uning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni, ularni tahlil qilishni va bu borada yuzaga kelgan muammolarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaz vazifalaridan hisoblanadi.

Darvoqe, mamlakatimizda bolalarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik holatlarini aniqlash va ularning sodir etilishiga aloqador ota-onlarga nisbatan tegishli qonuniy choralar ko'rib kelinmoqda. Jumladan, oxirgi 3 yilda 2 072 nafar shaxs sudlar tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan. Shundan 1 777 nafari yoki 86 foizi ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgan bo'lsa, 23 nafari ota-onalik huquqini suiiste'mol qilgan, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lgan, kuch ishlatgan yoki ruhiy ta'sir ko'rsatgan [7]. Ammo, bunday qilmishlar uchun, nazarimizda, ota-onalarni javobgarlikka tortish kabi chora-tadbirlar ijtimoiy ta'sir ko'rsatish nuqtayi nazaridan vaqtinchalik samara beradi.

Shuning uchun bugungi kunda tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan bolalarga yordam ko'rsatish haqida gap ketganda, bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi va ta'minlovchi tuzilmalar o'rtasida idoralararo hamkorlikni samarali tashkil etish lozim. Chunki, bunday tizim organlari o'rtasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish tazyiq va zo'ravonlik qurbonlarini aniqlash, bolalar va oilaning boshqa a'zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarini amalga oshirish, ular bilan psixologik-ijtimoiy rehabilitatsiya ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik muammosi jamiyatning barcha manfaatdor tuzilmalari o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlarini yaratish va rivojlantirish orqali hal qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ishlarni rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

1) maktabgacha va maktab ta'limining o'quv reja, dastur va o'quv-metodik majmualarini ishlab chiqish asosiy e'tibor bola rivojlanishining bosqichlari va darajalarini hisobga olish hamda zo'ravonlik qurboni bo'lishining oldini olish va undan himoyalani ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim. shuningdek, o'quvchilarni zo'ravonlik oqibatlar haqida hamda tazyiq va zo'ravonliklar ko'rinishlari haqida xabardor qilish va ularda bunday zo'ravonliklarga duch bo'lmaslikka oid ko'nikmalarni shakllantirish va hokazo;

2) zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalarni aniqlash va ularga yordam ko'rsatish sohasida ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, yoshlar siyosati, jamoat tashkilotlari mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish;

3) maktabgacha va maktab ta'limi muassasalari, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, yoshlar siyosati, huquqni muhofaza qilish organlari, prokurorlar, sudyalar, jamoatchilik vakillari uchun bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish sohasidagi ishlarni samarali tashkil qilishga qaratilgan turli yo'nalishdagi o'quv dasturlar, qo'llanmalar, uslubiy materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish va tarqatish;

4) bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik muammolarini hal etishga yo'naltirilgan tarmoqlararo guruhlarini (idoralararo komissiyalar) tashkil etish, ular tarkibiga barcha vakolatli organlar vakillarini kiritish shart;

5) o'zaro hamkorlikning yagona tartibi bo'yicha o'qitishni tashkil etish; bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari to'g'risida xabar berish va xabarlarni jo'natish tizimini yaratish;

6) zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolaga psixologik yordamni majburiy ko'rsatgan holda "Surishtiruv tartibi" modelini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish;

7) an'anaviy oilaviy qadriyatlarni, oilaviy munosabatlar madaniyatini targ'ib qilish, bu to'g'risida teleko'rsatuvlar tayyorlash va efirga uzatish;

8) jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

9) jinoyatdan jabrlanishga moyil bo'lgan yoki jabrlangan bolalarni aniqlash, ularning ro'yxatini shakllantirib borish va ular bilan doimiy ravishda profilaktik suhbatlar o'tkazib turish;

10) bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan hamda zo'ravonlik holatlari bo'yicha faktlarni yashirish yoki murojaatlarga javob bermaslik holatlarida mansabdor shaxslarning javobgarligi choralarni tubdan kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, tazyiq va zo'ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarni doimiy ravishda izchil amalga oshirish sodir etilayotgan zo'ravonliklarning kamayishiga olib keladi.

Foydalanilgan manbalar

1. <https://www.unicef.org/eca/research-and-reports>.
2. Домашнее насилие: социально-правовой аспект: Учебно-методическое пособие / Под общей редакцией Е.Н.Ершовой. – М., 2013. <http://www.wcons.org.ru>.
3. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/10/10/violence/>
4. Алексеева Л.С. Жестокое обращение с детьми: его последствия и предотвращение. — М.: Национальный книжный центр, ИФ «Сентябрь», 2016. — 160 с.
5. Варчук Т.В., Вишневецкий К.В. Виктимология: Учебное пособие. 2 изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ, 2015. – 191 с.
6. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Viktimologiya: Darslik. Umumiy qism. – T: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. – 239 b.
7. <https://xabar.uz/post/oxirgi-3yilda2mingdan-ortiq-shaxs-ota-onalik-huquq>

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE PHILOSOPHY OF CRIME AND PUNISHMENT IN THE TRAINING OF POLICE OFFICERS

*Jinoyat falsafasining roli va ahamiyati
va ATS xodimlarini tayyorlashda jazolar*



Djavakova Karina Vladimirovna
Head of the Department of State and Legal Disciplines
and Ensuring Human Rights of the Academy
of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy, Professor

Abstract. The article reveals the need to update the educational process, taking into account the transformation of the internal affairs bodies into a national professional structure and the introduction of teaching the philosophy of crime and punishment for police officers, its role and significance. The contribution of the thinkers of antiquity to the development of this issue and the role of the philosophy of crime and punishment in understanding the causes of criminal human behavior is analyzed.

Keywords: internal affairs bodies, critical thinking, values, philosophy of crime, philosophy of punishment.

Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar organlarining xalq kasbiy tuzilmasiga aylanishini va ichki ishlar organlari xodimlari uchun jinoyat va jazo falsafasini o'qitishni joriy etishni hisobga olgan holda o'quv jarayonini yangilash zarurligi, uning roli va ahamiyati ochib berilgan. Antik davr mutafakkirlarining ushbu masalani ishlab chiqishga qo'shgan hissasi va jinoyat va jazo falsafasining insonning jinoiy xatti-harakatlarining sababini tushunishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, tanqidiy fikrlash, qadriyatlar, jinoyat falsafasi, jazo falsafasi

Today, in the context of the development of the New Uzbekistan, one of the main tasks is to transform the internal affairs bodies into a national professional structure as a reliable defender of the population, ensuring their work in close cooperation with citizens, public organizations and the general public in the spirit of mutual trust and cooperation, further strengthening the rule of law, peace and tranquility in the country [1]. In accordance with the task, it is necessary to train and educate employees of the internal affairs bodies with high spiritual and moral qualities, faithful to their duty, based on the principle "In the name of human honor and dignity".

At the same time, it is important to form a sense of high responsibility among employees of internal affairs bodies, an attitude to official duties with honor, conscience, a sincere awareness of duty to the Motherland and the people, unquestioning observance of generally accepted moral norms in society, etc. Therefore, the educational process must be updated and adjusted to meet the requirements of the time. In this regard, the teaching of one of such ideological directions of the philosophy of law as the

philosophy of crime and punishment comes to the fore. At the same time, it is relevant and necessary to conduct scientific research in this area.

What is the role and relevance of this area for legal scholars and police officers in modern conditions? After all, these are complex ideological subjects that combine philosophical and legal knowledge.

The significance is explained by several points, and above all by the fact that the meaning of our life is directly determined by thinking, reasoning, and the use of reason. As Al Farabi noted, "The essence of man is in the mind, and the essence of the mind is in action." Therefore, it is possible to determine an intelligent person or not, a professional or not, by the behavior, actions of people, by their goals. The level of the mind is connected with goals, surrounded by emotions, feelings. This is exactly what philosophy teaches.

At the same time, we are all witnessing today how the world around us is rapidly changing, and big changes are taking place, and in the value system. On the one hand, new technologies are emerging (computers, the Internet and other modern technologies), which are being introduced into all spheres of society, which makes human activity much more convenient, information covers all spheres of human life. On the other hand, digital management models eliminate the principle of personal responsibility, and the interference of information technology in private life destroys it, makes it public, deprives a person of privacy. People are prone to psychological problems that are associated with virtual reality, but most importantly, there is a loss of the habit of meaningfulness and reasonableness. In other words, the simplification process is underway, you do not need to load your brain with mental activity, you do not need to expend energy, think ... The machine calculated everything for you, and wrote it for you...

Today, many researchers cite the loss of value aspects as the reasons for committing crimes. So, for example, researcher Raidugin D.S. Emphasizes that "The ideological factors determining the growth and spread of criminal processes in society are a qualitative change in the axiological (value) parameters and attitudes of public and individual consciousness, manifested in the mass adoption of an achievable ideology, a strategy of material enrichment, discrediting patriotic values, alienation from the state, the growth of legal nihilism and the formation of new "living norms". social interaction that organically includes elements of criminal consciousness"[2].

When we talk about the philosophy of crime and punishment, we involuntarily recall F.M. Dostoevsky's novel "Crime and Punishment", which is read all over the world. The hero of the novel Raskolnikov rebelled against the society of injustice in the name of human dignity. However, intending to bring happiness to people in the future, to arrange their lives on a just and humane basis, he decided to achieve this goal not by creative accomplishment, but by crime. However, do not think that this is just fiction or the events of the past days. Unfortunately, today in the twenty-first century, one of the most acute global problems of our time remains the persistence of a high crime rate. This problem is more or less inherent in all States without exception and in this sense poses a global danger to everyone. Thus, in the last five years alone (2019-2023), the number of registered crimes in Uzbekistan increased 2.3 times. Data from the Presidential Statistics Agency show that if in 2019 46089 crimes were committed (13.7 per 10,000 population), then in 2023 this figure increased to 104096 (28.3) [3].

At the same time, at an expanded meeting of the board of the Ministry of internal affairs in Fergana in July 2023, the Head of our State stated that "since the beginning of 2023 alone, 12 thousand crimes

that could have been prevented have been committed in Uzbekistan," and crime was rampant among young people [4]. At the same time, at a meeting on February 5, 2024, President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev noted that the number of crimes committed by minors continues to grow. So, in 2023, 3,500 crimes committed by minors were registered in the country [5]. Undoubtedly, all the above facts require the immediate adoption of effective measures, including in the educational process. As the Head of State stressed, the issues of education and spirituality are among the most urgent.

Therefore, the vitality of the novel today lies in the fact that F. M. Dostoevsky is trying to show the internal reasons that arose due to external circumstances and prompted Raskolnikov to commit murder, as well as the emotional experiences of the hero, i.e. the struggle of consciousness with the subconscious. Dostoevsky's philosophical novel *Crime and Punishment* [6] warns readers that no man, no matter how genius he is, has the right to take the life of another, no theory justifies such actions. You can never improve your position at the expense of crime, no one has ever succeeded. And all this is due to the lack of any moral core in people who have been driven to extremes by life.

Thus, the philosophy of crime and punishment teaches legal scholars the skills of critical thinking, rational choice and moral assessment. These are very important skills for lawyers. Another Canadian cultural critic, philosopher, philologist and literary critic Marshall McLuhan (July 21, 1911 — December 31, 1980), who predicted the appearance of the World Wide Web almost 30 years before its invention, noted that the whole situation of simplified perception returns public consciousness to a pre-written state. In contrast, the philosophy of crime and punishment preserves human feelings, intuitions, values and ideals of police officers, and most importantly – allows a lawyer to make an informed choice of the main idea. After all, a person's ability to think critically frees him from some of the obvious misconceptions. Today, it is the knowledge of the ATS staff, namely the knowledge of the grammar of judgments - thanks to which speech becomes meaningful and understandable to the majority - that allows you to make a conscious, rational, moral choice.

The philosophy of crime and punishment allows future police officers to understand not only the essence of crime and punishment, but also, most importantly, the cause of criminal human behavior. And this is very important today. The President has repeatedly spoken in his speeches about crime prevention and the training of highly professional legal personnel. Undoubtedly, the philosophy of punishment as a branch of philosophical knowledge is inextricably linked with the philosophy of crime. The problem of punishment is a deeply philosophical problem that affects such eternal questions of philosophy as human freedom and responsibility, categories such as sin, guilt, good and evil, repentance and redemption. Therefore, punishment is traditionally understood as a measure of external influence on a person following a crime and aimed at preventing further harm from the crime. Many thinkers wrote about this - even the reformer Gongsun Yang (390-338 BC) was a Chinese philosopher, thinker, politician, reformer who lived in the 4th century BC. He is considered the founder of legalism, a philosophical doctrine, one of the important principles of which is the equality of everyone before the law [7]. Gongsun Yang believed that in order to maintain and strengthen power, it is necessary to punish even before a misdemeanor is committed, then serious crimes will disappear, and order will reign in the state. Where people are severely punished for minor offenses, the latter disappear, and serious crimes are out of the question, since there is no one to commit them.

Education and education are important in the fight against crime. This is evidenced by the works of famous ancient philosophers - Confucius, Pythagoras, Democritus, Plato, Socrates, who noted the

possibility of preventing crime through proper education. Thus, Pythagoras laid the foundations of the system of civic education in ancient Greece, and Democritus developed the ideas of influencing crime through education. Plato developed a system of punishments for various crimes and even determined the optimal number of prisons that the state should have in order to achieve effective punishment. He believed that it was necessary to establish laws and threaten punishment in a timely manner, anticipating crimes. It can be said that the evolutionary development of society has led humanity to realize the role of education in the fight against crime. After all, unfortunately, even today in the 21st century, when the process of large-scale reforms is in full swing, there are cases of lack of intelligence, limited thinking.

Ultimately, which action should be considered criminal and which should not be a question to which there is no single answer. If we compare approaches to understanding crime, we note that criminal law as a legal science in its approach to understanding crime does not proceed from reason, but from authority, that is, an authoritative establishment [8].

The well-known French representative of the sociological school, G. Tarde, believed that crime should be explained primarily as a social phenomenon, and its origin as a historical one [9]. So, for example, for a follower of Zoroaster, the gravest crime was considered to be burying the dead in the ground. Instead, the corpses were left to dogs or birds of prey. And among the Greeks, the greatest crime was not to wrap the dead in a shroud.

There are many such examples from the history of any nation. An outstanding specialist in the field of theory of law and the state, philosophy and sociology of law, sociology of the state, history of political and legal doctrines, G.V. Maltsev, argued that "one thing has been and remains unchanged: every community, ancient or modern, classifies as criminal those acts of its members that, according to experience, seem dangerous to the general cases that cause harm to the collective and its individual members, and pose a threat to the collapse of a social organization. All this is now summarized in the concept of public danger of a criminal act" [10].

It follows from all this that "crime" is just a concept used in certain social situations. The same act in terms of content in different historical times, in different societies and in different social contexts can be regarded as antisocial, socially neutral or socially approved. T. Tard notes: "The system of virtues, as well as the system of crime and vice, changes with the course of history" [11]. There were peoples among whom theft and robbery were not only not crimes, but, on the contrary, were considered virtues.

Each society generates a certain number of certain types of crimes, which are a consequence of its structure and general condition. The concept of crime is connected with the ideas prevailing in a particular society, with ideas about what is criminal and should entail criminal punishment, and what is not.

It is impossible to study a crime outside of time and space by removing it from the social environment in which it exists. Therefore, who is considered a criminal and when is also a matter of time and historical period. This helps us to understand the philosophy of crime and punishment.

Today we need not just ordinary employees, but successful, highly qualified specialists who are always ready to solve non-standard and difficult tasks. Namely, those who are able to correctly interpret the unclear text of a legal norm, form an action plan to achieve the ultimate goal in a complicated court case – all this requires a broad view of things. Including understanding how law works, what it is, where it begins and where it ends.

Therefore, an employee of the Department of Internal Affairs needs to clearly know where to find the answer in the information and reference database, how to correctly pose a question, identify the essence, nature of the problem, understand whether this issue is solvable under current legislation, or the answer needs to be sought in other documents - charters, contracts, etc.

Today, life shows that many questions have to be answered, sometimes they have to be created independently and defend their answers in court. In many cases, the fairness of punishment depends not so much on the fairness of the law as on the possibility of its correct application in a particular situation, which requires a deeper investigation [12]. In short, we need a certain education of thought, the ability of police officers to navigate complex intellectual combinations. And this education is provided by the philosophy of crime and punishment.

References

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures to transform internal affairs bodies into a national professional structure and orient their work towards closer interaction with the population"// National Database of Legislation, 01/21/2023, No. 07/23/10/0043; 08/22/2023, No. 07/23/282/0631)
2. Raidugin D.S. Philosophy of crime: social aspects// Abstract for the degree of Candidate of Philosophical Sciences. Krasnodar, 2007.
3. Which crimes in Uzbekistan increased in 2023, and which ones decreased // "Gazeta.uz" 02/20/2024
4. "A number of heads of the Department of Internal Affairs put personal benefit above responsibilities" — the President // "Газета.uz" - July 28, 2023, Politics
5. 3,500 minors committed crimes in a year in Uzbekistan// "Газета.uz" 02/5/2024
6. Dostoevsky F. M. Crime and punishment. The text of the work. Source: F. M. Dostoevsky. Collected works in 15 volumes. L., Nauka, 1989. Volume 5.
7. The ancient Chinese Reformer // https://dzen.ru/a/Wyd_5siuywCoRQDL
8. Hegel G.V.F. Philosophy of Law. M., 2007. p. 283.
9. Tarde G.D. The criminal and the crime. Comparative crime. Crime of the crowd / Comp. and preface V.S. Ovchinsky. M., 2004. p. 7.
10. Maltsev G.V. Revenge and retribution in ancient law. M., 2012. p. 420.
11. Tard G.D. Comparative crime. M., 1907. P. 33.
12. Tychkina V.M. Understanding crime and punishment in the philosophy of law.

KRIMINOLOGIYA TIZIMLI ILMIY-TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA: GERMANIYA TAJRIBASIGA NAZAR

Criminology as an object of systematic scientific research: a look at the German experience

Ismailov Yusub Niyazmetovich

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
stajer-tadqiqotchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent*



Annotatsiya. Maqolada kriminologiya baynalmilal integrallashuvligi bilan alohida ajralib turuvchi fanlararo ilmiy-amaliy soha sifatida namoyon bo'lishi, jahonning yetakchi davlatlari bilan kriminologiya sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ijobiy xorij tajribasini o'zlashtirish va undan foydalanishni yo'lga qo'yish, shuningdek o'zining tizimli va ko'p qirrali kriminologik siyosatini izchillik bilan yo'lga qo'ygan va jahonning eng xavfsiz mamlakatlaridan biri sifatida e'tirof etiladigan Germaniya tajribasi O'zbekiston uchun ayniqsa foydali bo'lishi muqarrarligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kriminologik siyosat, kriminologik kompetensiya, tizimli yondashuv, federalizm, transformatsion jarayon, kriminologik o'ziga xoslik.

Abstract. In the article, criminology is manifested as an interdisciplinary scientific and practical field, which is distinguished by its international integration, strengthening cooperation in the field of criminology with the world's leading countries, assimilating and using positive foreign experience, as well as consistently establishing its own systematic and multifaceted criminological policy and the world's. It is thought that the experience of Germany, which is recognized as one of the safest countries, will inevitably be especially useful for Uzbekistan.

Keywords: criminological policy, criminological competence, systemic approach, federalism, transformational process, criminological identity.

Kriminologiya fanlararo tajribaviy-ilmiy yo'nalish sifatida borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda va bugunga kelib o'z ilmiy alohidaligi va xususiyatlari bilan kriminalistikadan chegaralanib olishga ulgurdi. Kriminologik bilim faqatgina ilmiy tadqiqot natijalaridan emas, balki uzoq yillar davomida amaliyotda yig'ilgan avlodlar tajribasiga tayanadi [3]. Ayrim nemis zabon manbalarda kriminologiya tushunchasiga sinonim sifatida Erfahrungswissenschaft ("tajribaviy fan") atamasi qo'llanilishi bejiz emas va kriminologiyani keng ko'lamli vazifalar yechimini o'z ichiga olgan holda shu sohada nazariya va amaliyotning naqadar chambarchas bog'liqligidan darak beradi (Fajrullu, 3. In: <https://studuunilu.ch/uploads/2021/10>).

Quyida yillar davomida kriminologiya tadqiqot sohasida yig'ilgan ilg'or va ijobiy nemis tajribasini O'zbekistonda o'zlashtirish va tavsiyalar ishlab chiqarish maqsadi doirasida Germaniyaning kriminologik tadqiqoti bilan bevosita bog'liq ushbu mamlakatga xos umumiy chizgilarni belgilab

olishga harakat qilinadi. Bunda asosiy vazifa soha adabiyoti, statistik ma'lumotlardan hamda OAV va internet manbalari tahlilidan kelib chiqib, Yevropaning ushbu yirik davlatida kriminologiya bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Shu o'rinda har bir mamlakatga xos milliy xususiyatlarni aniqlash doirasida obyektivlik masalasi ko'ndalang turadi. Bunga javoban, eng avvalo, har bir mamlakatning bir tomondan tabiiy o'ziga xosliklari, ya'ni geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari, ikkinchi tomondan esa davlatning shakllanish, rivojlanish tarixi va davlat qurilishi, siyosat va iqtisodiyot, din va madaniyat, aholining turmush tarzi va mentaliteti kabi ijtimoiy-siyosiy xususiyatlar kriminologik sohada ham tabiiy ravishda shu mamlakatga xos xususiyatlarga olib kelishini nazarda tutish lozim. Ayni paytda, bunday o'ziga xosliklarning ma'lum darajada nisbiylik ehtimolidan xoli bo'lmazligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir, chunki tobora ildiz otib borayotgan globalizm davrida jinoiy qilmishlar integratsion tarzda dunyoning qator mamlakatlarida juda o'xshash tarzda takrorlanib sodir bo'lib turishi nafaqat kriminologiya sohasi vakillariga, balki ushbu sohadan yiroq aholi qatlamiga ham ma'lum. Shuningdek, Germaniyaning kriminologik tajribasi bir maqola doirasida emas, bir qator yirik ilmiy loyihalar va monografiyalar uchun tadqiqot obyekti bo'lishiga arziydigan dolzarb muammo sifatida qaralishi lozim.

Kriminologik jihatdan Germaniya dunyoning eng xavfsiz mamlakatlari qatoriga kiradi. Jahonning 163 mamlakatida turli indikatorlar yordamida tinchlik darajasini aniqlash bilan shug'ullanadigan Global Peace Index jamg'armasi bahosiga ko'ra Germaniya bu borada muntazam ravishda yuqori o'rinlarni egallab keladi (https://en.wikipedia.org/wiki/Global_Peace_Index). 2024-yilning 9-aprelida e'lon qilingan Politsiya Kriminal statistikasiga (PKS) ko'ra, keyin yillarda Germaniyada jinoyatchilik sezilarli oshib borayotgan bo'lsa-da, mamlakatning ichki ishlari vaziri Nensi Fezer xonim (GSDP vakili) haqli ravishda "Germaniya haliyam jahonning eng xavfsiz mamlakatlaridan biri" deya uqtirmoqda. Vaholanki, Germaniyada bunday muvaffaqiyatga birdaniga yoki osonlik bilan erishilgani yo'q. Yutuqlarning asosini uzoq yillar davomida soha bo'yicha yaratilgan institutsion tuzilmalar va nihoyat nemis kriminolog olimlarining tizimli ilmiy izlanishlarining samaralari tashkil etadi.

Germaniyada kriminologik tadqiqot o'ziga xos uzoq tarixga ega. Kriminologik tafakkur, ya'ni jinoyatchilik va unga qarshi kurashishning ilk tafakkur shakllanishi Uyg'onish davrining boshlariga to'g'ri keladi. Kayzer Germaniyasi, Veymar Respublikasi, 1933-1945-yillardagi natsistlar hukmronligi, 1949-yilda tashkil topgan Germaniya Federativ hamda Germaniya Demokratik Respublikalari va nihoyat 1990-yilda g'arbiy va sharqiy Germaniyalarning hozirgi Germaniya Federativ Respublikasining tarkibida qayta birlashuvi davrlarida nemis kriminologiya sohasi o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ldi va rivojlanib bordi. 1968-yillarda demokratik harakatlarning keskinlashishidan "ilhomlangan" yosh nemis kriminologlari mamlakatdagi mavjud institutsional tuzilmalarni keskin tanqid ostiga oldilar. Natijada kriminologiya axloqiy qoralanish va huquqiy jazolanish orqali kurashish hodisasi sifatida chuqur va intensiv ilmiy tadqiqotlarga aylanishga turtki bo'ldi.

Germaniyaning kriminologiya siyosati hozirda kriminologik institutsional tashkiliy qurilmalari, kriminologlar tayyorlashning ta'limiy tizimidan tortib, OAV bilan shaffof munosabatlar o'rnatish va jamiyat a'zolari bilan ochiq muloqot olib borishning yo'lga qo'yilganligi kabi ko'p qirrali ravishda namoyon bo'ladi. Germaniyaga xos kuchli federalizm, partiyalararo kurash, sharqiy va g'arbiy Germaniya o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va mental farqlar kriminologik siyosatda ham bevosita va bilvosita o'z aksini topadi. Hozirgacha butunlay bartaraf bo'lmagan pandemiya oqibatlarini, xalqaro siyosiy ahvolning yomonlashuvi ta'siridagi tobora avj olib borayotgan inflyatsiya, Germaniyaga xorijdan muhojirlikning intensivlashuvi, ba'zi siyosiy partiyalarning bosimi ta'siridagi liberallashtirish

siyosati, xususan, ayrim giyohvandlik moddalarining legallashuvi kabi qator dolzarb omillar Germaniya kriminologlari uchun dolzarb tadqiqot obyektiga aylangan.

Soha adabiyotlari tahlilidan kriminologik siyosat Germaniyada izchil va tizimli yo'lga qo'yilganligiga amin bo'lish mumkin. Bu holat eng avvalo Germaniyada kriminologik tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi institutsional tuzilmalarda o'z aksini topadi. Germaniya davlat qurilishi jihatidan kuchli federativ mamlakat ekanligi sababli federalizm davlat strukturalarining aksariyat tarkibiy qismlariga ham singib ketgan. Ma'muriy jihatdan Germaniya 16 federal o'lkadan iborat bo'lsa-da, tarixiy an'analardan kelib chiqib, Bavariya va Saksoniya o'lkalariga qo'shimcha ravishda "erkin davlat" maqomi, Berlin, Gamburg va Bremen aslida faqat shaharlar bo'lsa-da, ushbu shaharlarning iqtisodiy salohiyatlaridan kelib chiqib, ularga "federal o'lka" maqomi berilganligi markaziy Yevropaning ushbu mamlakatida federalizm o'ziga xosligidan darak beradi. Ushbu xususiyatlar kriminologik tadqiqotlar olib boruvchi institutsional tuzilmalarga ham tegishli. Jahonning 26 ta davlatidagina kriminologik tadqiqotlar institutlari mavjudligini qayd etgan holda, Germaniya o'zida o'nlab kriminologiya ilmiy-tadqiqot strukturalari faoliyatini yo'lga qo'yilganligi bilan e'tiborni tortadi. Ayni paytda, ular kriminologiya, xavfsizlik va huquqni tadqiq qiluvchi Maks-Plank instituti, Federal kriminologik byuro, Berlin kriminologiya instituti kabi markazlashgan federal kriminologik tadqiqotlar muassasalari, Quyi Saksoniya, Shimoliy Reyn – Vestfaliya, Hessen, Saksoniya, Baden-Vyurtembergdagi kriminologik tadqiqot institutlari va Gamburg politsiyasi qoshidagi fanlararo kriminologik va xavfsizlik tadqiqoti instituti hamda Visbaden shahridagi kriminologik tadqiqot markazi kabi federal o'lka maqomidagi tuzilmalardir. Ayni paytda, ushbu tadqiqot strukturalar ularning oldiga qo'yilgan vazifalar darajasi va yechimidan kelib chiqib, institut, filial, markaz, byuro kabi xilma-xil nomlar ostida faoliyat ko'rsatadi. Bu kabi turfa xillikni faqat federal xususiyat bilan emas, balki mamlakatda kriminologiya sohasiga tizimli va izchil yondashuvga bo'lgan intilish bilan izohlash mumkin.

Tizimlilik va izchillik Germaniya ta'lim tizimi doirasidagi kriminologiya ta'lim sohasida ham o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Yuqoridagi federal xususiyat kabi bu yerda ham monopol siyosatdan voz kechilgan. Oliy ta'lim tizimining 6 ta oliygohida, ya'ni Berlin, Gamburg, Regensburg, Boxum va Kremsdagi Dunay universiteti hamda Noyshtedt institutida bakalavriat, 6 ta oliygohda, xususan, Berlindagi Iqtisodiyot va huquq instituti, Gamburg, Regensburg, Mayns va Boxum universitetlarida magistratura bosqichlarida kriminologiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimli yo'lga qo'yilgan. Soha bo'yicha Laudius akademiyasi, The open University va Boxumdagi Rur universitetida esa kasbiy faoliyatdan ajralmagan holda sirtidan ham tahsil olish mumkin. Laudius akademiyasida 6 oylik sirtqi kriminologiya kurslari tashkil etilgan bo'lib, o'qish bu yerda sertifikat bilan yakunlanadi. Germaniyada 250 dan ortiq universitetlar bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, ulardagi yurisprudensiya mutaxassisligi doirasida ham ayni paytda kriminologiya bo'yicha mutaxassis tayyorlash yo'lga qo'yilganligiga amin bo'lish mumkin. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining aksariyati davlat imtihoni bilan yakunlansa, magistratura bitiruvchilari o'qishni magistrlik dissertatsiyalarini taqdim etish bilan yakunlaydilar. Universitetlar kriminologiya mutaxassisligi bo'yicha bir xil ta'lim sohasi dasturini taqdim etishlari bilan bir qatorda, bir-birlaridan tor ixtisosga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishlari bilan farqlanadilar. Masalan, Gamburg universiteti xalqaro kriminologiya, Regensburg universiteti zo'ravonlik tadqiqoti, Boxum universiteti esa kriminologiya va politsiyashunoslik sohalariga ixtisoslashgan. Soha mutaxassislarining malaka oshirishlari va talabalarning amaliyot o'tashlaridagi keng imkoniyatlar ham Germaniya ta'lim tizimida kriminologiya sohasiga bo'lgan jiddiy e'tibordan darak beradi. Xilma-xillikdan iborat barcha ta'lim turlarini birlashtiradigan bir umumiylik mavjud bo'lib, bu kriminologik kompetensiyani o'zlashtirishda o'z aksini topadi. Yuqorida ta'kidlanib

o'tilgan kriminologiya sohasida nazariya va amaliyotning chambarchas bog'liqlik xususiyatidan kelib chiqib, kompetensiyaviy yondashuv kriminologiya sohasi uchun naqadar muhimligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Germaniya va O'zbekistonni birlashtiradigan va o'zbek kriminologiyasi tadqiqoti uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadigan umumiyliklardan biri Sharqiy Germaniya va O'zbekistonning totalitar tizimdan bozor iqtisodiyoti va demokratiyaga asoslangan jamiyat qurishga qaratilgan transformatsion xususiyatidir [4]. Bu esa ijtimoiy hayotning aksariyat jabhalarida, shuningdek kriminologiya sohasida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Xulosa tarzida quyidagilarni alohida ta'kidlashni joiz deb bilamiz:

Germaniya o'zining kriminologik siyosatini tizimli va izchil yo'lga qo'yganligi, kriminologik tadqiqot bilan shug'ullanuvchi institutsional tuzilmalari, kriminologlar tayyorlovchi ta'lim muassasalarining keng ko'lamliligi, ularning turfa xilligi va sifat samaradorligi, sohaning shaffofligi jihatidan dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kiradi. Bu Germaniya jahonning eng xavfsiz mamlakatlaridan biri ekanligini dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinishida ko'rinadi. Shu sababli Germaniyaning kriminologik tadqiqotlar tajribasi boshqa mamlakatlar, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti, demokratik va huquqiy davlat qurish yo'lida shaxdam qadamlar bilan borayotgan O'zbekiston Respublikasi kabi nisbatan yosh davlat uchun haqli ravishda andaza va namuna bo'la oladi. Germaniyaning kriminologik jihatdan faqat shu mamlakatga xos xususiyatlarini nazarda tutgan holda, bu boradagi bir qator ilg'or nemis tajribasini O'zbekistonda o'zlashtirish va joriy etish maqsadga muvofiqdir. Sohaga tizimli va izchillik bilan yondashish ana shunday ijobiy tajribalardan biri bo'lib, mamlakatimizning turli hududlarida O'zbekiston Respublikasi kriminologiya tadqiqotlar instituti filiallari tashkil etish, OAV va ijtimoiy tarmoqlar bilan hamkorlikda kriminologik shaffoflikka erishish, ta'lim tizimining bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlarida kriminologlar tayyorlashga kirishish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ayni paytda, o'zbek kriminologiya tadqiqotchilari uchun germaniyalik hamkasblar bilan hamkorlik rishtalari o'rnatish va birgalikda ilmiy loyihalar ustida ishlashni yo'lga qo'yish juda muhim. Bu borada Sharqiy Germaniya kriminologiyasining tajribasi o'ta muhim, chunki, yuqorida ta'kidlanganidek, har ikki mamlakatga xos bo'lgan transformatsion jarayon kriminologik vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazishi muqarrar.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-yanvardagi PF-10 son Farmoni.
2. Schwind Hans-Dieter. Kriminologie und Kriminalpolitik. Eine praxisorientierte Einführung mit Beispielen. Verlag Kriminalistik. – Heidelberg, 2021.
3. Köhn Klaus. Praxisbezogenes Lexikon der Kriminologie. 4.Sonderband des Handbuchs Kriminalistische Kompetenz. Taschenbuch. Verlag Kriminalistik. Heidelberg, 2007.
4. Ismailov Yu.N. Siyosiy jarayonlar komparativistikaning obyekti sifatida (Germaniya va O'zbekiston misolida). Impact Factor: 5. 972 International journal of consensus konsensus xalqaro jurnali volumu 4, ISSUE 2. 20235.
5. (Fajuulu,3. In:<https://studuunilu.ch/uploads/2021/10>).
6. Polizeiliche Kriminalstatistik 2023 Ausgewählte Zahlen im Überblick. In: <https://de.statista.com/studie>.
7. https://en.wikipedia.org/wiki/Global_Peace_Index).

Forum dasturi	2
Agenga	
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonovning tabrik so'zi	7
The speech of the Minister of Internal Affairs of Republic of Uzbekistan P.R. Bobojonov.	
O'zR Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i B.E. Berdialiyevning tabrik so'zi	13
The speech of head of the Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan.	
Prof. Dr. Gábor Kovács	19
Vengriya Qirol Lyudovik Davlat xizmati universiteti Huquqni muhofaza qilish departamenti rahbari. Head of the Department of Law Enforcemen of the Ludovika National University of Public Service of Hungary.	
Woong Seok Jeong	22
Koreya ilmiy tadqiqot va adliya instituti prezidenti. President of the Korean Institute of Criminology and Justice.	
Prof. Dr. Purvi Pokhariyal	23
Hindiston Respublikasi IIV Milliy Kriminologiya va sud ekspertizasi instituti rahbari. Director of Log Nayak Jai Prakash Narayan Institute of Criminology and Forensic Science.	
Филатова М.А.	26
Типология и признаки психического кибернасилия. Typology and features of psychological cyber violence.	
Nenad Vojinović.....	32
Organized crime – strategic aspects and the role of the police academy in the education of Montenegro's police force. Uyushgan jinoyatchilik: strategik jihatlar va Chernogoriya politsiya kuchlarini shakllantirishda Politsiya akademiyasining roli.	
Терещенко Т.Г.	36
О межрегиональном сотрудничестве в подготовке криминологических кадров. Interregional cooperation in training criminologists.	
Адилов А.Н.	38
Современные криминологические проблемы и пути их решения через профессиональную подготовку. Contemporary criminological problems and ways to solve them through professional training.	
Gao Wen, Ge Xiangwei	43
Xitoyda jinoyatlarning oldini olish amaliyoti. Crime prevention practices in China.	

MUNDARIJA / CONTENTS

Заробинзода С.З., Хусейнзода С.Х	48
Применение взаимного опыта регламентации института судимости как способ совершенствования уголовного закона Таджикистана и Узбекистана.	
Application of mutual experience in regulation of the institute of criminal record as a way to improve the criminal law of Tajikistan and Uzbekistan.	
Азим Шухрат	54
Международное сотрудничество - необходимое условие эффективности обеспечения кибербезопасности на национальном уровне.	
International cooperation is a necessary condition for effective cybersecurity at the national level.	
Prof. Dr. Andrea Domokos	56
The impact of different crises on victims of domestic violence.	
Turli inqirozlarning oiladagi zo'ravonlik qurbonlariga ta'siri.	
Абеуов Д.А.	62
Сравнительный анализ уголовного законодательства республики Узбекистан и республики Казахстан. Проблемы и пути решения.	
Comparative analysis of the criminal legislation of Uzbekistan and Kazakhstan.	
Problems and solutions.	
Isamiddin Ismailov	66
Kriminologiya va jinoyatchilik: yangi O'zbekiston huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimi	
Criminology and crime: the new national crime prevention system of Uzbekistan.	
Abdurasulova Q.R.	76
Kriminologiya fanining vazifalari haqidagi mulohazalar.	
Considerations on the tasks of the science of criminology.	
Мухитдинов Ф.М.	81
Основные направления укрепления криминологической безопасности общества.	
Main directions of strengthening the criminological security of society.	
Usmanova M.A., Nurmuhammedova G.B	90
Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik tavsifi.	
Criminological characterization of crimes related to corruption.	
Niyazova S.S.	98
Kriminologiyada viktimologik profilaktikaning o'rni, maqsad va vazifalari.	
Role, goals and tasks of victimological prevention in criminology.	
Nurberdiyev S.Q.	105
Qonun yoqasidagi o'yin: sport kriminologiyasi.	
Playing on the edge of the law: the criminology of sport.	

Миразов Д.М.	113
Методы криминологического исследования «горячих точек» при изучении преступности и обеспечения общественной безопасности.	
Methods of criminological research of "hot spots" in the study of crime and ensuring public safety.	
Гордеев С.Н.	121
Об актуальности развития в Узбекистане оперативно-розыскной криминологии.	
On the relevance of development in Uzbekistan operative-search criminology.	
Raximova N.	125
Kriminologiyada va jinoyatchilik hamda uning tarkibiy elementlarini empirik baholashda jamoatchilik fikri sotsiologik so'rovlarining o'rni.	
Criminology and crime and its structural elements the role of sociological surveys of public opinionin empirical evaluation.	
Adilkariyev X.T., Murodov A.S.	132
Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning kriminologik tahlili.	
Criminology analysis of family-based crimes.	
Otajonov A.A.	138
Bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklar viktimologik profilaktikasini takomillashtirish.	
Improving victimological prevention of oppression and violence concerning of a minor.	
Djavakova K.V.	144
The role and significance of the philosophy of crime and punishment in the training of police officers.	
Jinoyat falsafasining roli va ahamiyati va ATS xodimlarini tayyorlashda jazolar.	
Ismailov Yu.N.	149
Kriminologiya tizimli ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida: Germaniya tajribasiga nazar.	
Criminology as an object of systematic scientific research: a look at the German experience.	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

**JAHON KRIMINOLOGIYASINING ILG`OR TAJRIBALARI
I XALQARO FORUM MATERIALLARI**

Muharrirlar: B.A. Yarov, G.T. Muminova
Dizayn va sahifalovchi: D. Rasulova

Original-maket Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi
Bosishga ruxsat etildi 25.10.2024-yil

Bichimi 60x4 1/8. Nashriyot-hisob tabog'i 9,8. Adadi 100 nusxa.
Buyurtma № 71
XK "PECHATNIK VOSTOKA" bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Olmazor tumani, Usta Shirin ko'chasi, 116-uy